



SOTIM AVAZ

TEMURG' OZI TO'RA



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT -2006

84(54)6-4 Бадиниң азабиёт

A-21


ХИКОР

10 32013
2

Avaz Sotim.

Temurqozi To'ra. — T.: «Sharq», 2006. — 144 b.

Ushbu kitobdan o'tin olgan Muhammad Pahimxon II — Feruzning nabirasi Temurg'ozi to'raning hayoti haqida hikoya qiluvchi qissada XIX asr boshlarida Xiva xonligida yuz bergan voqealar aks etgan. Bu davrdagi qarama-qarshiliklar, ezzulik uchun kurash o'quvchini befarq qoldirmaydi. Asarga kirgan hikoyalar va novellalar esa oddiy va ravon tili, haqqoniyligi va milliylik jihatlari bilan ajralib turadi.



BBK.84(5U)

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2006-yil.

YANGICHA SO'Z JARANGLARI

Bolalarda yuksak tuyg'ular, vatanparvarlik, mardlik va jasorat fazilatlarini shakllantirish g'oyat muhim. Bu adabi-yotimizning ham asosiy vazifalaridan.

Keyingi davrda shu boradagi muvaffaqiyatlarni ko'-paytirish yo'lida qator asarlar yaratildi. Buyuk bobokalon-larimizning ibratli hayotlari, o'lmas ishlaridan hikoya qiluv-chi kitoblar ko'paydi.

Bolalar uchun mard va jasur bolalar to'g'risida so'z yuri-tiluvchi asarlarning o'mi alohida. Bu o'rinni boshqa hech narsa to'ldirolmaydi. Xususan, Mo'min Mirzoning ilmu shi-joati bitilgan kitoblar beqiyos ekanligini yaxshi bilamiz. Ammo mo'minmirzolar qanchadan-qancha?! Xususan, Muhammad Rahimxon soniy — Feruz hazratlarining nabi-rasi Temurg'ozi to'ra haqida ham ko'pchilik bilmaydi.

Bundan o'n besh yilcha oldin Xivaning Ichon qal'asida Temurg'ozi to'raning suratini ko'rib, hayratlangan edim. O'n ikki-o'n uch yoshlardagi shahzoda-to'raning qiyofasida beqiyos idrok va jasorat barq urib turardi. Shunda yozuvchi ukamiz Sotim Avazga "nega shunday bolalar haqida hech narsa yozmaysizlar?" degandim. Oradan bir necha yil o'tib Sotim Avaz Temurg'ozi to'ra haqida mo''jazgina qissa yaratganini eshitib quvondim.

Keyinchalik yozuvchi fikr-mulohazalarni inobatga olib, qissani badiiy hamda mazmun mundarijasi jihatdan ancha boyitdi. Natijada qo'lingizdagи qissa dunyoga keldi.

Qissa bolalarbop tilda yozilgan. Lekin uni katta yoshdagilar ham qiziqib o'qishlari mumkin. Muallif Xiva xonligida o'tgan asr boshida yuz bergen voqealarni tarixiy asoslarga tayangan holda aks ettirar ekan, Chinakam badiiyatga xos ijodiy umumlashma va to'qimalardan unumli foydalanishga intiladi. Ularda tasvir, dramatizm kuchli.

Umuman olganda, asar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bolalarimizda vatanparvarlik, mehru ixlos, e'tiqod, rahm-

shafqat fazilatlarini kamolga yetkazish ishiga yaxshi xizmat qilishi mumkin.

Temurg‘ozi to‘ra juda erta olamdan o‘tgan. Uning o‘limi haqda turli xil, bir-biriga o‘xshamagan taxminlar yuradi. Lekin bir gapni aniq aytish mumkin. U alg‘ov-dalg‘ov va notinch zamona qurban ni bo‘lgan. Asarni o‘qib shunday xulosaga kelish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tinch va osoyishta zamondan shukronalik ruhiyatini jonlantiradi. Har holda “Temurg‘ozi to‘ra” adabiyotimizdag‘i o‘ziga xos taraqqiyot jarayoniga xos hodisa deyish mumkin.

Sotim Avazning hikoya va novellalari mutlaqo o‘ziga xos. Ularning oddiy va ravon tili sizni voqeа-hodisalar ichiga boshlaydi. Badiiy qahramonlar ham sizga tanish, goho yaqin kishilarday tuyulishi mumkin.

Ayniqsa, “To‘g‘ri chiziq” muhabbat yoshini va shu davrning shirin iztiroblarini boshidan kechirgan kishini befarq qoldirmaydi. Xulosa har kimni ham o‘ylantiradi. “To‘g‘ri chiziq” — ma’naviy yolg‘izlikning beixtiyor xudbiniga aylanib qolgan kimsaning surati go‘yo. Bu surat hammani o‘ylantirishga haqli.

Keyingi yillarda kichik badiiy janrlardagi nisbiy sokinlik buzila boshladi. Bu quvonchli voqeа. Sotim Avazning hikoya va novellalari ham shu borada yangicha so‘z jaranglari jilosidir.

Anvar OBIDJON,
O‘zbekiston Xalq shoiri.

TEMURG' OZI TO'RA





SURAT

*Temurg'oz'i to 'ram, cho 'g 'day rasmilingiz,
Xayol ko 'zlariga bosilar har kun.
Bilmam, mo 'jaz harbiy kiyim kiyib Siz,
Avlodlarga meros qolgansiz nechun?*

*Vaqtni tilkalovchi olmosday toqat
Nigohingiz ko 'kka tirmashib ketgan.
Jaloliddin ruhin bergan u qismat,
Nechun umringizga xiyonal etgan?*

*Siz jahduq ursangiz, har bir sarkash ot,
Tulpor bo 'larmidi, ta 'rif yetmagan.
Siz jangga kirsangiz "Vatan!" deb hayhot,
Bo 'larmidi shavkat qo 'ldan ketmagan.*

*Feruzning gujumdek umidi so 'lmay,
Afsonaga do 'nsa edi jismingiz.
Bugun chaqir yo 'llar gungu lol bo 'lmay,
Qichqirib turmasmi edi ismingiz.*

*Agar siz shahd etib o 'tdek, yolingdek,
Sarhadlar bitsangiz dashtu dalaga.
Bugun sayyoohlarni o 'ynang, kuling, deb.
Yoyib qo 'ymasmidik Ichon qal 'aga.*

*Agar Siz oshusta, daryoday toshib,
Boylansangiz edi ishq ummoniga.
Bugun tuzlar emas, gulshanlar oshib,
Quvvat yog 'armidi elning joniga.*

*Sizsiz ziyon yo 'qdir balki dunyoga,
Sizingsiz g 'amxona halki hu olam.
Lekin o 'ldirilgan xonu gadoga,
Bolam, deb yig 'laydi Vatani, to 'ram.*

*Tarixdan badiha aytmoqqa bugun,
Kim ham ola bilar, elim, rizongni.
Men faqat parishon xotiring uchun,
O 'yladim, Xorazm, Mo 'minmirzongni.*

1990- yil



MUQADDIMA

MOMO

Rajabgul momo bir necha yildan buyon oyog'ida tuz to'planib qolganligidan azob chekadi. U bu kasallikning "allanima" degan nomini aytishdan ham, tinimsiz lo'qillab turadigan og'riqni tushuntirib berishdan ham juda bezgan.

Bir oycha burun yurolmaydigan, o'rnidan sira qo'zg'ololmaydigan bo'lib qolgandi. O'g'li u yoqqa yugurdi, bu yoqqa yugurdi, topmagan dorisi qolmadidi. Igna bilan, biotok bilan davolaydigan doktorlarga ko'rsatdi. Xullas, joniga biroz oro kirdi. Sal-pal yura boshladi. Sal-pal yuradigan bo'lgandan keyin esa u shunday dedi: Bolam, meni Xivaga olib bor. Polvon pirmi¹ bir ziyorat etaylik.

O'g'li darrov rozi bo'ladi.

— Bekpo'latni ham olib ketamiz, — davom etdi Rajabgul momo. — Menga suyanchiq bo'ladi.

Bekpo'lat momoning jonidan ham yaxshi ko'radigan nabirasi. U xuddi ulli² odamni kichraytirib qo'yganday. O'zi o'n uch yoshda bo'lsa ham, mактабдан qaytib, eshikdan kirishi bilan, "ena, zerikmay o'tiribmisiz?" deb so'raydi. Qari va xasta odamning uyda yolg'iz o'tiraverib zerikishi qaydanam uning xayoliga keladi? Momo shunga ajablanadi.

Bir kun yo'l yursa uch kun "kasal" topadigan "Moskvich"ning orqa o'rindig'ida, nabirasining bir qo'lini ikki kafti orasiga olib o'tirgan momo mashina o'chib, buzilib qolmasaydi deb, hadiksirab o'tirdi. Onasining qisinjakligini³ bilgan o'g'li uni tinchlantirdi.

— Opa⁴, Polvon pirga borayotirmiz, inshollo, mashina buzilmaydi. Qolaversa yaxshilab remont qilganman.

¹ Pahlavon Mahmud maqbarasi ma'nosida.

² Katta.

³ Bezovtalanishini.

⁴ Ona.

Momo biroz orqayin¹ bo'ldi. Shu eski mashinaning bori-ga ham shukur qildi. Aks holda odam tirband avtobusda Xivaga borguncha ona suti og'zidan kelardi.

Bu, tuz, degan oyoqda qanday to'planib qolar ekan o'zi? Aqlu hushi avvalgidan ham yaxshi. Ignaga nox² o'tkazib berishni nabirasidan shu vaqtgacha so'ragan emas. Lekin oyog'i xuddi tiqib to'ldirilgan shakar xaltaday³. Axir yoshligida muz ustida yalangoyoq chopqillab yurardi, loyli suvni hovuchlab ichardi, unga non botirib yerdii. Kasal-pasal degan gap yo'q edi. Hozir esa ko'tracha ustida yonboshiga yostiq olmay o'tirmaydi. Lekin boshi darddan chiqmaydi. Momo shularni o'yadi.

— Ena, ena bu uchib yurgan nima? — so'radi Bekpo'lat xayol surib o'tirgan momosining qo'lidan asta tortib.

U derazadan yo'lga qaradi. Haqiqatan ham bu nima o'zi? Oq rangdagi chang-to'zon uyumi go'yo iloji boricha baland-roq ko'tarilishga ahd etganday, mashinaning yonboshida yelib borardi. U goho bir-ikki qarichga ko'tarilar, goho yo'ldan siptirilib⁴ borayotgan ilonday olg'a intilardi. Eng dahshatlisi, mashina qanday tezlikda yurmasin, u sira orqada qolib ketmasdi.

— Bu chang qumga o'xshamaydimi? — so'radi momo.

— Tuz, ena, tuz. Orol quridi-ku.

Momo ham radio-televizorda aytilayotgan gaplardan xabardor. Har kuni suv kamchiligi haqidagi gaplar xayoliga o'mashib qolgan.

Momo yo'lda uchib yurgan tuz to'zonlari bilan oyog'iga to'planib qolgan tuz orasida qanday aloqa borligi haqida o'ylab oxiriga yetolmadni. Fikrlari chuvalashib ketaverdi. Oxiri xudoga shukur qildi.

Ular shu tariqa gungur-sangur⁵ va xayollar bilan Ichon qal'aga yetib kelishdi. Ota darvoza oldida yarim yalang'och odamlar-chet ellardan kelgan sayohlar Xiva tarixidan hikoya tinglardilar. Momo ular uchun uyalinqiradi, ro'molini yuziga sal tortib qo'ydi.

¹ Xotirjam.

² Ip.

³ Kichik xalta.

⁴ Tez sudralib.

⁵ Suhbat.

Mehmonlar bir necha mezbonlar qurshovida, dargozadan kirib ketguncha, ular kutib turishdi. Keyin sekinsta qal'aga kirishdi. Kaltaminor orqasidagi eski masjidga joylashtirilgan mehmonxonadan chiqib kelgan ikki sochi kesik va kalta ko'yak kiygan qiz ularning yonidan shoshilib o'tishdi. Aftidan, ular mehmonxonada ushlanib qolishgan, endi esa hamrohlariga qo'shilishmoqchi. Ular, ko'zoynak taqib olishgan, yelkalarida fotoapparat, shodu xandon. Ammo silliq tosh yo'llar ularning o'tkir uchli oyoq kiyimidan chirqillab turardi.

Aftidan ko'zlariga xiyol chalinib o'tgan kampir qizlarining diqqatini tortdi. Sal oldinda to'xtashib, pichirlashib olishdi. Keyin orqaga qaytishdi. Momoning yoniga kelib, o'z tillarida bir nima deyishdi. Ehtimol salom berishgandir, sizni suratga olishga ruxsat bering deyishgandir. Har holda uni suratga olishdi. Keyin ular ro'paradagi eski madrasa — yangi restoranga kirib ketishdi.

— Nimamiz yodqi ekan ularga? — ajablandi momo.

O'g'li ajnabiy qizlar kampirning o'zidan ham ko'proq uzun ko'yak va ro'moliga, ayniqsa mahsi kovushiga, umuman eskicha qiyofasiga qiziqishib qolganligini fahmladi. Ammo momoga buni tushuntirish qiyin. U xafa bo'lishi, dili og'rishi mumkin.

— Endi sizdaqa tavarrik¹ kampirlar ham oz qolgan-da, deb qo'yaqoldi o'g'li hazil aralash.

Kampir Pahlavon Mahmud ziyoratgohining bo'sag'asidan hatlashi bilan "Assalomu alaykum" deganicha qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Keyin kiraverishda ziyoratchilarga chipta soitib o'tirgan qiz bilan hol-ahvol so'rashishdi.

U keksa odamlarga xos ravishda, taomilga yarasha Polvonpir qabrini ziyorat qildi. Guldor koshinlar bilan bezatilgan devorlarga qo'lini tekkizib peshonasiga surtdi. Keyin o'g'li va nabirasini tiz buktirib, o'zi ham cho'kkalab o'tirib, duoga qo'llarini ko'tardi, oyat o'qidi.

Maqbaraga kiraverishdagi o'ng ayvonda dam olib o'tirishdi. Ko'p o'tmay chap tomondagи hujradan uch-to'rtta odam chiqdi.

— U yoqda nima bor ekan?

¹ Tabarruk.

Chiptachi qiz darhol javob bermadi. Keyin yoqar-yoqmas, "eski suratlar" dedi.

— Sadag'ang ketay, biz ham bir ko'z qirini tashlaylik, - iltimos qildi momo.

O'g'li chiptachi qizni zo'rg'a ko'ndirdi. "Biz ham juda oddiy odamlardan emasmiz. Gazetaga u - bu yozib turamiz", - dedi. Oxiri sayyoohlар bahonasi bilan ochilgan eshikdan tezda kirib chiqishga ularga ham ruxsat etildi.

Hujrada to'rtta katta yog'och romlar ichidagi suratlar devorga suyab qo'yilgan ekan. Momo ularni ko'rishni o'ngdan boshladi va har safar xitob qilib bordi.

— Madraximxon! Islomxo'ja! Isfandiyor!

Eng chekkadagi suratga ko'zi tushib momo qotib qoldi. Keyin ko'zlaridan yosh tirqiradi. Shisha g'ilof ustidagi changlarni artdi.

— To'ram, bechora to'raginam, — degancha suratga yopishdi momo. Na bir bola edingiz, to'ram!

Momoning bu ishidan o'g'li va nabirasi hayron bo'lishdi. Lekin hayajonini oshirmaslik uchun unga savol berishmadi. Faqat o'g'li "opa, xon avlodini yaxshi bilaman, saroyda osh mextar¹ xizmatida bo'lganman deganingizcha bor ekan" deb qo'ya qoldi.

Bekpo'lat momosi "to'ram" deb atagan yigitcha suratiga uzoq tikildi. U harbiy kiyim kiygan, boshida dubulg'a, qo'lida miltiq. Ko'zları xuddi tirik odamnikiday so'roq alo-matlari bilan boqib turibdi. Bir so'z bilan aytganda, o'n ikki-o'n uch yoshlaridagi o'ziga tengdosh bola oddiy bolalarga o'xshamasdi. Uning butun vujudidan shijoat, qat'iyat, ishonch va umid yog'ib turardi.

Momo Urganchga yetib kelgunicha Madrahimxonning nabirasi, Isfandiyorxonning o'g'li, Temurg'ozi to'ra haqida hikoya qilib berdi. "Yosh ketdi bolagina", deb so'zini tamomladi.

Bekpo'lat birgina savol berdi:

— Nima uchun, ena?

Kampirning, "o'ldirishgan" deb aytishga tili bormadi. "Nabiram yosh bolani ham o'ldirishadimi?", deb savol berib qo'ymasin deb o'yladi.

¹ Bosh oshpaz.



— Ko‘z tekkan, bolam...

Bekpo‘lat boshqa savol bermadi.

Momo xudoga shukur qildi.

Momo tuni bilan yomon tushlar ko‘rib alahsirab chiqdi. Tushida kimdir nabirasiga zahar tayyorlayotganday tuyuldi. U tun yarmida o‘rnidan turib, Bekpo‘lat yotgan xona oldiga keldi. Eshikka quloq tutdi. Keyin uni sal ochdi. O‘g‘li xurrak otardi. Nabirasi yengil nafas olardi.

SO‘NGGI ILINJ

Og‘ir kasalga chalingan odamning ichikib yig‘lashi aslo yaxshilik alomati emas. Ruhiyatdagи besaranjomlik yaqinlashib kelayotgan o‘limdan darak. Qolaversa, umidlar so‘nib tugayotganidan nishona. Salkam ellik yil Xiva xonligini so‘ragan Muhammad Rahimxon soniy – Feruz bunday holatga hali tushgan emasdi.

U o‘lim haq ekanligini, hali yaqinginada o‘z amriga kiprik qoqmay bo‘ysungan xonlik endi falaj amrbardor tezroq biryoqlik bo‘lishini zerikib kutayotganligini his etdi.

Xudo uni farzanddan ham qismagan. Arslondek olti o‘g‘li bor. Asqar to‘ra, Mehdiyor to‘ra, Sayyid Abdullo to‘ra, Sayyid Isfandiyor to‘ra, Ubaydullo to‘ra, Muhammad Yusuf to‘ra... Hammasining ham xon bo‘lgisi keladi.

Ammo Feruz, o‘z o‘g‘illaridan biri xon bo‘lishini bilgan va shunday bo‘lishini istagan holda, ularning hech birini yurt so‘rashga munosib ko‘rmasdi. Har birida bir qusur, bir nokomillik nuqsi bor.

Eng yomoni-adolat bilan ish ko‘rish to‘ralarning hech biriga xos emas. O‘zi kuni bilan yurt so‘rab, kechqurunlari piyovaga¹ qanoat qilganini o‘ylaydi: “Payg‘ambarlar “mal-lakim” degan Xorazm zaminida Xiva xonligiga hukmdorlik nasib etgan ekan, nafsga qul bo‘lish o‘taketgan noinsoflikdir. Lekin to‘ralar piyovaga qanoat qilolmaydilar. Ayniqsa Isfandiyor”.

Feruzning xayollari Isfandiyoridan tezda Temurg‘oz

¹ Yovg‘on sho‘rva.

² Mulkim.

to'raga — sevimli nabirasiga boylandi. "To'lado'qligi¹, yurakliliği, o'zimga chalim beradi, — o'yladi u, — lekin zehni...".

Hali yetti yoshga to'Imagan bola payg'ambar yoshiga yetgan bobosiga qarab, "Buva, birovni nohaq jazolagan-midingiz?" — deb so'rasha bo'ladimi. Feruz juda hayron bo'lib qolgandi va beixtiyor shunday savol bergandi:

— Nega bunday savolni ixtiyor etdingiz, to'ram? Alhamdulullo, adolatning peshidan ushlab kelayotirmiz. Chunki iymon adolatdan obi hayot olg'usi.

Temurg'ozi oppoq, chig² tegmagan, ko'ylagini yechib yog'irnisini³ ko'rsatdi.

Feruz juda xavfli hisoblangan oqma kasal alomatlarini darrov payqadi. Bolaning yaralarini asta siypalab turdi.

— Al qasosul min alhaq!

Menga ushbu oyatni ustozlarim hech bir adolatsizlik jazosiz qolmagay, deb o'rgatishgan.

Feruz bu so'zlardan dahshatga tushdi... U ruhiyatiga ilohiyotdan nurlar ingan nabirasini shunchaki tinchitishni istamadi. Lekin ustuvor gaplarni ham topa olmadı. Faqat so'nggi davrda kimlarga jazo bergenligini xotirladi. Esladi. Darmonjon! Voqeа bunday bo'lgandi.

Isfandiyor bir kambag'al bechoraning g'oyat go'zal xotini Darmonjoni yo'ldan urib, o'ynashib yurbanligi butun Ichon qal'ada gap-so'z bo'ldi. Faqat Feruz o'g'lining shu darajaga borishini tasavvur qilmas, haqiqatni bilmas edi.

Baribir bu voqeadan Muhammad Rahimxon bir kunmas bir kun xabar topishi turgan gap. Lekin unda vaziridan darg'azab bo'lishi, uni chora ko'rmaganlikda ayblashi, hatto qattiq qahri kelsa, mansabidan mahrum etishi hech gap emas. Xon huzurida o'g'lini ayplash, qolaversa, bugunmi, ertagami taxtga chiqishi mumkin bo'lgan to'rani yomonlash ham aqlga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli vazir xonga shunday dedi.

— Oliy hazrat, qandaydir bir buzuqi xotin Isfandiyor to'ramizni yo'ldan urayotganmish, holi-joniga qo'ymayot-

¹ Do'ndiqligi.

² Gard.

³ Yelkasini.

ganmish. Shuni tuttirib keltirsak, bir jazo bersangiz. Toki buzuqilar uchun ibrat bo'lsa. Buzuqilar elning barakasini ochiradi.

Xon bunday xabardan xunob bo'ldi. U to'rani yo'ldan urishga qodir xotin kim ekan, deb o'yлади. Ammo har na qilsa-da, farzand, burnim sassiq deb kesib tashlab bo'lmaydi. Mayli, bilgанингизни qiling, — dedi u vaziriga yoqar yoqmas.

O'sha ayolning ismi Darmonjon ekanini va uni holi-joni-ga Ifandiyorxonning o'zi qo'ymaganligini Muhammad Rahimxon keyin eshitdi. U vaqtida vazir Darmonjonnı och pishiklar¹ qamalgan qopga solib jazolatgan edi. Odamlarning gap-so'zlariga qaraganda, hatto nasaqchi² ham shunday hushro'y ayolni pishik tirmalab o'ldiradimi, — deb dovdirab qolgan ekan.

Uning vazirdan ko'ngli qoldi. Ammo chuqurroq o'ylab ko'rsa, bosh aybdor u emas...

— Banda ishi xatolidir, to'ram. — Muhammad Rahimxon Temurg'oziga yuzlandi. — Mendan-da, adolatsizlik o'tmagan deb bo'ynimga gunoh ololmayman. Ammo yurtda birovning burni nohaq qonagan bo'lsa ko'p aziyat chekdir.

— Sizning adolatingiz ilohim mamlakatimizni yoritib tursin, — dedi Temurg'oz bobosining qoptoliga³ o'tirarkan.

Feruz nabirasining yog'irmisini yana bir bor siladi. O'zingning ko'nglida ham allaqanday dog'lar paydo bo'lganligini his etdi...

Bugun xonning ko'nglidagi yaralardan qolgan chandiq izlari o'zidan har qachongidan ham ko'proq darak berdi. Zero, u vafot etganidan keyin nimalar yuz berishini, kichkina to'ra o'zining tez yarałanuvchi va har narsani benazir tuyg'ular bilan ilg'ab oluvchi qalbi tufayli hali qancha adolatsizliklarga duchor bo'lishi yolg'iz qodir xudoga ayon.

Muhammad Rahimxon imom Husayn hikoyatini beixtiyor yodiga oldi: Muhammad Mustafo alayhi vassallam nabi-

¹Mushuklar.

²Jazo chorasiñi bajaruvchi mulozim.

³Yonboshiga.

rasining sadaf qizartirgan bo'ynini ko'rib juda iztirob chekkan. Shunda Jabroil alayhissalom shunday degan ekanlar: "Yo rasulullo, shugina narsaga ranjib turibsiz. Ammo taqdiri taolo amri ila dashti Karbaloda nabirangiz bo'yniga xanjarlar tekkanda qanday bardosh berursiz".

U sovuq bir oh chekdi. Og'ir dard xonni iztirobli o'ylaridan tobora uzoqroqqa olib qochishga shahd etgandek, karaxtlik domiga tortar edi. Muhammad Rahimxon alahsiray boshladi.

"ZIRAVOR"

Temurg'ozining tanasida oqma yaralar paydo bo'lganligi bejiz emas. U quyidagicha yuz bergen edi...

Isfandiyor to'raning yitti qizil¹ gulga mengzaydigan ulli xotini Bikajon beka o'zining uchta kundoshidan hiyla latofatliroq va jozibaliroq. To'raga ma'qul va manzur bo'ladigan asosiy jihat esa ulli bekaning ko'zlaridan dog'ulilik, hirsu alomatlarini ming izlab ham topib bo'lmasligi edi. Qolaversa, Bikajon beka vaziri akbar Islomxo'janing qizi. Bu ham yetmagandek, kundoshlarni kuydirgan asosiy narsa Bikajon beka to'raga qo'chqordek o'g'il tug'ib bergen. Bu "juvonmarg" o'ziyam yillab emas, oylab o'sayotgandek, tili chiqishi bilan butun saroya aqlaval² bo'layotgandek. Muhammad Rahimxon ham hamma nabiralaridan ko'proq shuni yaxshi ko'radi. Tizzasiga olib o'tirib yelkasiga qoqib-qoqib qo'yadi. Har holda bu hol kichik kundoshni yomon yoqdi. Uning ko'rpalarga o'rab, papalab³ o'stirgan o'g'lini chilladan chiqmay, xudo urdi. U qars qoqib yig'lab qolaverdi.

Kichkina beka, bugun yo ertaga haramdan haydalib, o'zining shafqatsizligi, necha xotinning boshini yeganligini aytib maqtanib yuradigan birorta shamxolchi yo to'nqatorga⁴, o'ngu so'liga qaramay tortiq qilinishi mumkin bo'lgan kanizakni huzuriga chorladi. Uni oldin topshiriqqa yaxshilab tayyorladi.

¹ To'q qizil.

² Aql o'rgatadigan.

³ Avaylab-asrab.

⁴ Saroy mulozimlari.

— Xon hazratlarining yovmutlar¹ bilan jangda qo'llari baland kelibdi.

— Illohim hamisha zafar yorlari bo'laversin.

— Aytganing kelsin, ammo kallangni ishlatsang, xonga ko'p ham omad tilamas erding.

— Nechun bekam? — Kanizak ko'p g'alamisliklari bilan nom chiqargan beka yana bir shumlikni boshlayotganini sezib qo'rqib ketdi.

— Nechun bo'lardi? Muzaffar jangchilar mukofot kutadilar. Ular uchun esa haram kanizaklaridan ortiq mukofot yo'q. Xondan qolgan sarqit ham tavarik.

Gapning qayoqqa burilib horayotganini fahmlagan kanizakning taniga qalтироq yugurdi.

— Amringiz bosh ustiga, bekam.

Beka shunda ham birdaniga maqsadga ko'chmadi.

— Seni o'zim oyday bir yigitga uzataman. Kanizak emas, malika bo'lib yurasan.

Kanizak hech narsa so'ramadi. Beka manfur bir ishga da'vet etmoqchi bo'lib ko'nglidagi gapni yozdira boshladimi, bas orqaga yo'l yo'q.

— Mana bu qog'ozga jinday ziravor o'ralgan. Qo'rqma, u odamni o'ldirmaydi. Ozgina...

Beka boshi uzra ko'rsatkich barmog'ini aylantira boshladidi. So'ng oraga tushgan jimlikni yana o'zi buzdi.

— Ozgina sarmast qiladi. Temurg'ozi to'ram tovuq sho'rvani yaxshi ko'radilar. Eng ulli soton' hozir shu bolaniki. Mana shu ziravor sho'rvani yana ham mazaliroq, sotonni shiraliroq qiladi.

Kanizak ikki o't orasida qoldi. Shu alpozda u bekaning yonidan qanday chiqib ketdi, kichkina to'raning sho'rvasiga o'sha "ziravor" dan qay tariqa soldi, o'zi ham bilmadi hisob. Ammo "ziravor" o'zini juda bilintirdi. Temurg'ozi qornini ushlab shunday o'xchiy boshladiki, hammaning o'takasi yorildi.

¹ Turkman urug'i.

² Tovuq soni.

TABIBIY

Ahmadjon Tabibiy ko'plarni darddan xalos qilardiyu o'zining jigar xastaligiga chora topolmasdi. Bir o'qishdayoq kuyga tushib ketadigan g'azallar yozardiyu o'zining kichikkina hujrasida yolg'iz benavo yashardi.

O'z dardiga darmon topa olmayotganligi uning o'ziga beparvoligidan edi. U bir qo'liga dori, bir qo'liga sharob to'la piyolani ushlab, ko'zini chirt yumardi. Keyin "bismillo"sinay aytib oldin dorini ichardi, so'ng piyolani sipporardi.

Uni to'satdan saroya olib ketishdi. So'ng joni qil uchida turgan Temurg'oz to'raga ro'baro' qilishdi. Tabibiyni vahima bosdi. Peshonasidan ter chiqib ketdi. U o'zini qo'lga oldi. Shoshmasa bo'lmaydi. Axir kichkina to'rani tavakkal qilib davolashdan bosh tortsa, keyin nima bo'lishini bir xudo bila-di. Undan ko'ra davolashga astoydil intilib, har balo bo'lgani yaxshi.

Tabibiy yilimji¹ suv tayyorlatdi. Unga biroj ma'jun² qo'shdi. Suv gulob rangiga kirdi. Temurg'ozini ho'piqtirib-ho'piqtirib³ o'sha suvdan ichirtirdi. So'ng bolani ikki bar-mog'ini og'ziga tiqtirib, qayt qildirdi. Suv qop-qora bo'lib otolib chiqdi...

Temurg'oz o'ziga kelib ko'zini ochdi. Ohistagina suv so'radi. Tabibiy unga suv uzatdi. Termug'oz ohista boshini ko'tarib so'radi:

— O'lmay qoldimmi?

— Inshoollo, to'ram.

Tabibiyning ko'zları namlandi. Beixtiyor xayollari parishon bo'ldi: "Bu bola mabodo Ollo taolonning mo'jizasi emasmi? O'lmay qoldimmi, deb so'raydi-ya. O'limni katta odam bilmaydiyu bu bola qayerdan bilar ekan-a?"

— Siz uxlang, to'ram. Ertaga yana suhbatlashurmiriz.

Ertasi kuni Tabibiy yana Temurg'ozining oldiga bordi.

Kichkina to'ra o'midan turib kitob mutaola qilayotgan ekan.


— Nima o'qursiz, so'radi Tabibiy.

— Ash'or, Ogahiy ash'orlari.

¹ Iliq.

² Dori.

³ Nafasi qaytib ketguncha.



- Bu ishingiz durust, men ham sizga bir ash'or olib keldim.
- Marhamat qilib o'qing, sizning tabibligingizdan ham shoirligingiz ziyoda derlar.

*Gul g'unchalig 'ida xor ilandur,
Ochildi, bir o'zga yor ilandur.*

- Ajoyib aytibsiz.
- To'ram siz bugun g'unchasiz. Hali juda ochilursiz. Sizning tengingiz bo'lmas.
- Tashakkur.
- Bobongiz Muhammad Rahimxon birla she'r borasinda ko'p hamnishin bo'lg'onmiz.
- Temurg'ozzi "otam bilanchi" deb so'ramoqchi edi. Lekin istihola qildi. Otasi ham Farruh taxallusi bilan she'r yozsada, shuarolarga rag'bat yo'qligini biladi.
- Endi uxlang, to'ram.

DUMONLI' KUN

Xo'rozlar qichqira-qichqira tolishdi. Tong allaqachon otgan. Xivaliklar subhi sodiqni payqamay, tong jilvasini ilg'amay qoldilar, chunki osmon dumon bilan qoplangan, quyosh nuri tushadigan ignadek joy yo'q. Hademay yomg'ir yog'ishi ayon. Bunday holat hamma vaqt ham bo'lavermaydi. Axir asad endigina yarmidan oqqan. Hali yozning qo'li uzun aslida. Lekin tabiat bu qo'lni qayriganday.

Bikajon beka yosh to'la ko'zlarini ipak ko'ylagining yengi bilan artib, Temurg'ozini ko'kragiga bosdi. Muchal yoshiga hali yaqindagina yetgan kichkina to'ra hammasini fahmladi. Onasining oppoq yuzlarini qo'ichalari bilan siy-palay boshladi. Keyin yig'lashdan beri bo'lib so'radi:

- Hazrat bobom...
- Ha, to'ram, sohibqiron bobongizdan ajralib qoldik.

Bikajon beka shu gaplarni aytib o'zini tutib turolmadi. Boshini chayqab-chayqab goh qo'llari bilan bekitib uvvos soldi.

¹Tumanli.

Temurg'ozı kattalarga xos shijoat ko'rsatdi. Yurak bag'ri yonib tursada, ko'zlarida aylangan yoshni orqaga qaytardi. Axir yigit kishi yig'lamaydi. Yigit kishi ahli ayoliga dalda bo'lishi kerak, deya unga shu dorilfanodan dorilbaqoga yo'il olgan hazrat bobosi o'rgatgan.

— Onajon taqdir ekan, peshonamizda bor ekan. Hazrat bobomdek yashab o'tgan odamning armoni bormi?

Bikajon beka Temurg'ozini yana bag'riga bosdi. Unga yosh to'la ko'zları bilan tikilib shunday dedi:

— Armoni yo'q, ammo uni yo'qotgan yurtning endi armonlari ko'p bo'lur.

Naqadar purma'no gap. Temurg'ozı bugungi armon to'g'risida o'ylab kelgusi armon haqida u o'ylamaganligini xayolidan o'tkazdi. Darhaqiqat, bugungi armondan ham ertangisi yomon. Onajon, xudo hohlasa armonimiz bundin ko'paymas. O'imasam o'zim bu haqda qayg'ururman. Hazrat otamga ko'makdosh bo'lurman.

— Shoyat, shunday bo'lsa. Shoyat hazrat otangiz ham chinakam armon nima ekanligini anglab yetsalar.

Temurg'ozı onasining keyingi gapini tushundi. Lekin u hali shu armonlarni dunyoga keltirayotgan hazrat otasining o'zi ekanligini bilmasdi. Unga buni bildirib ham bo'imasdi.

Temurg'ozı shitob bilan saroydan chiqdi. U Toshhovlining¹ devoriga suyandi. Qo'llari bilan yuzlarini berkitib hapriqib-hapriqib yig'lay boshladи. Osmon ham go'yo shuni kutib turganday, yomg'ir yog'a boshladи. Temurg'ozı joyidan jilmadi. Beixtiyor Mo'min Mirzoni o'yladi. Shahzoda unga o'zidan ko'ra omadliroq ko'rindi.

Bikajon beka yugurib kelib o'g'lining boshiga mo'jazgina cho'girmasini kiygizdi va yana Toshhovliga olib ketdi.

— Hozir Islomxo'ja bobong keladilar, hazrati Muhammad Rahimxon bobong bilan vidolashishga borurmiz.

Temurg'ozı hazrat otasi qayerda ekanligini surishtirmadi. Axir shunday paytda u bobosining yonida – Arkdan boshqa yana qayerda bo'lishi mumkin. Balki Said Mohi ro'y়i jahon² qabristonidadir. Shuni fahmlash qiyinmi?

¹ Xon saroyi.

² Feruz dafn etilgan Deshon qal'adagi qabriston.

Quyosh ko'rinmasa-da, uning nurlari bulutlar osha tevarak atrofni ancha yorita boshladи. Islomxo'ja kela solib Temurg'ozining peshonasidan o'pdi. Nabirasi hech narsa so'soramadi.

Muhammad Rahimhon soniy – Bobojon to'raning jasadi solingen tobut deyarli barcha xivaliklarning yelkasiga bir-bir tegib o'tdi. Uni so'nggi yo'lga kuzatishda boy bilan gado-ning, to'ra bilan bevatanning¹ farqi bo'lmadi. Faqat kam-bag'alu faqirlar va bolalar ko'proq qayg'urishdi, ko'proq ko'z yosh to'kishdi.

Ichon qal'ayu Deshon qal'a qirq kun motam tutdi. Temurg'ozi kiygan va azadorlik belgisi hisoblangan oq ko'yak qorayib ketdi.

YIG'I

Temurg'ozi to'ra onasidan o'zini olib qochdi. Katta saroy ko'ziga tor ko'riniб, kichkina hujraga bekindi. Bikajon beka bir ko'ngilsizlik sezib "bolam"lagancha qoldi. Uning ham vujudini go'yo bir alanga jizg'anak qilmoqda. Bu o'tni o'chirishning iloji yo'q.

Temurg'ozi to'ra ko'rpacha ustiga cho'zildi. Yostiqqa yuzini bosdi. Bir lahzada yostiq jiqla ho'l bo'ldi. Ulug' hazrat bobosi tirik bo'lsalar nabirasini yonlariga o'tqazib "Qani to'ram, bir gurunglashaylik" demasmidi. Boshini silab qiziq-qiziq hikoyatlar, rivoyatlar aytib bermasmidi. Axir Ibn Hojib hikoyatini ham undan eshitgan.

"Ibn Hojib Temurg'ozidan ham kichik bola bo'lgan ekan. Bola bo'lsa ham, yarim dunyoning allomalari undan asarlariga shahodat olishar ekanlar. Alloma Tusiyning kitobiga Ibn Hojib bepisandlik bilan qarabdilar va hovuzga irg'itibdilar. Alloma bundan darg'azab bo'libdilar. Shunda Ibn Hojib bir qayiqcha minib, hovuzning o'ttasiga borib, suvga qo'lini tiqib, kitobni olibdilar va changini qoqib alloma Tusiya uzatibdilar. Alloma, bu kitob meniki ermas, degan ekanlar, Ibn Hojib kitobda yozilganlarni bobma-bob yod o'qib beribdi. Alloma hayratda qolibdi. Lekin baribir Ibn Hojibni "xonang xarob bo'lgay" deb qarg'abdi".

¹ Ersiz chorikor.

Shu hikoyatni tinglab Temurg‘ozi bobosiga savol bergen edi:

- Hazrat bobo, bu ertakmu?
- Yo‘q, to‘ram, ertak emas.
- Yo‘qsa nechuk Ibn Hojib shundoq mo“jizalarga qodir bo‘lgan?
- Axir u qadr tunida insho qilingan.

Keyin bobosi Ibn Hojibni halok qilgan takabburlik balosi haqida uzoq gapirgandi. Bu balo bir vaqtlar Xorazmni ham o‘z domiga tortganligini, undan juda ehtiyyot bo‘lish lozimligini uqtirgandi. Endi ulug‘ hazrat bobosi yo‘q. U takabburlik haqida ayta boshlagan hikoyatlar oxiriga yetmay qolgan. Lekin Temurg‘ozi kibru havoning shaklu shamoyilini andak tanishga ulgurgan. Hazrat otasining harakatlarida aynan shu takabburlik ahamatlari goh-goh ko‘zga ko‘rinib ketardi. Lekin u bunga takror-takror tavba qiladi. “Nahotki ulug‘ xon takabburlikka qodir bo‘lsa” degancha xayollarini haydaydi.

Kuni kecha Temurg‘ozining ko‘p iltimoslari bilan Isfandiyorxon Tabibiyni yana saroyiga oldirmoqchi bo‘lgandi. Chopar shum xabar olib keldi... Shoir va tabib bandalikni bajo keltiribdi.

Temurg‘ozi dag‘-dag‘ titray boshladidi. Yoz kunlari bo‘lishiga qaramasdan eti uvishdi.

Bikajon beka Temurg‘ozini saroyning chekka xonasidan topib, yoniga o‘tirdi. Ko‘tarib bag‘riga bosdi.

- Onajon, nima uchun yaxshi odamlar tez o‘ladilar?
- Yaxshi xudoga ham kerak, bolam.

ERK ISTAGI

Tagida turib ming qichqirsang ham ovozing eng ustidaga qubbalarigacha yetib bormaydigan, ustakorlar faqat zangori ranglarni ravo ko‘rishgan minoralar, turli naqshlar bilan bezatilgan va tepasiga zarhal hiloq qo‘ndirilgan gumbazlarga Temurg‘ozi uzoq suqlanib boqar edi. Uning orqasida soyadek ergashib yuradigan ikki mahram aslida saroy ayonlaridan bo‘lishsa-da, kichkina to‘rani qo‘riqlab kunni qorong‘u qilardi.

Ichon qal’ada yolg‘iz, bemalol yurish Temurg‘ozi uchun

chinakam omad bo'lsa, ular uchun bu rostakam omadsizlik edi. Axir hazil gapmi, yaqindagina taxtga o'tirishiga qaramay, Ichon va Deshon qal'adagilarning tanobini qattiq tortib qo'yishga ulgurgan Isfandiryoxon ko'zining oqu qorasi-ya. Hali kichkina to'raning vaziri akbar nabirasi ekanligini aytmaganda ham.

Lekin erkinlikni har narsadan xush ko'radigan Temurg'ozi har vaqt-har vaqt mahramlarni dog'da qoldirib "yo'qolib" turardi. Shunda qiyomat qo'pordi. Kichkina to'ra tez orada topilib qolsa na xo'p, aks holda yasovulboshi hamma joyni o'zi "isqab" chiqardi. Shungacha u ikki mahramga dorga osilishni naqd qilib qo'ygan bo'lardi.

Mana, Temurg'ozi yana ular ko'zini shamg'alat qildi. Odamlar bilan gavjum karvonsaroy yonidan o'tib, Arkka burilish kerak bo'lgan paytda, chaqqonlik bilan Xo'ja minor tomonga qayrildi. Kun bo'yi odim tashlayverib charchagan mahramlar kutilmagan bu harakatdan o'zlarini o'nglab olgunlaricha minor yonboshidan aylanib, bir lahzada Pahlavon Mahmud maqbarasiga yetib bordi. Shu yerda bir to'xtab, ikki qo'lini ko'ksiga qo'ygancha ta'zim etdi-da, yana ilgarilab ketdi. U o'zini kambag'al kosib va hunarmandlar zikh yashaydigan jin ko'chaga urdi. Sal yurib boshqasiga qayrildi. Ko'cha boshidagi mo'jazgina quduqdan chelakda suv tortib olib, qumg'onga solayotgan bolaning qo'lidan ushladi.

— Jo'ra, gizla'!

Temurg'ozi bilan deyarli tengdosh, kiyimlaridagi farqlarini hisobga olmaganda yuz-ko'zi ham unga o'xshab ketadi-gan bola "Kimsan o'zi?" "Nima uchun seni gizlashim kerak?" deb so'ramadi ham. "Yur" deganicha sal nariroqdag'i uuga boshladi.

Kichkina to'ra bunday zax va tor uyni, undagi uvada das-turxonni umrida ko'rghan emas. Ammo erkinlik paytida boshpana bo'lgan uydagi hamma narsa ko'ziga ajabtovur ko'rindi. Mezon chakilmasin² deb qattiq nonni bor kuchini ishga solib sindirdi. Uni yutganda ham yuzini burishtirmadi.

¹ Yashir.

² Uyalmasin.

Qop-qora temir choynakdan siniq piyolaga hafsala bilan
choy solib ichdi.

Bola Temurg'oziga yoqib qoldi. U o'ziga juda ajabsinib,
yilt-yilt boqardi, goho qo'llari bilan ustidagi kiyimlarga,
onasi ko'z tegmasin, deb qadab qo'ygan oq-qora aralash inju-
larga qo'lini tekkazib ko'rardi. Etigiga hayron bo'lib ter-
mulib turardi.

Temurg'ozi esa bu bolaning so'zlaridan mehru samimi-
yat charaqlab turganligiga e'tiborini qaratdi.

— Oting kim, jo'ra?

— Baxtudavlat.

— Zo'r ekan oting.

Temurg'ozi o'zining beg'ubor qalbi bilan yonidagi
yupun kiyangan bolani baxtsiz va davlatsiz deb hisoblay
olmasdi.

— Otingning ma'nisini bilasanmi?

Bola yelka qisdi. U bu haqda o'ylab ko'rmagandi.

— Bo'lmasa bilib qo'y. Sen baxtu davlat sohibi
bo'lasan...

— Baxt, davlat degani nima o'zi?

Temurg'ozi kulimsiradi. Haqiqatan ham baxt, davlat
degani nima o'zi? O'zi ham bu to'g'rida jiddiy o'ylab
ko'rmagan ekan. Baxt, davlat balki erkinlikdir, ozodlikdir,
balki yuqori martabadir. U shunday javob qildi:

— Sen kelgusida ulli odam bo'lasan. Balki xon va vazir
bo'larsan.

— E, qo'ysang-chi. Zo'rg'a kuminizni ko'ryapmiz-ku!

— Hech bo'lmasa xonning o'g'liga jo'ra bo'larsan.

Jo'rang xon bo'lsa, o'zing xon bo'lganining shu.

Bola yana o'ylanib qoldi. U qo'llari bilan ko'ylagining
yirtig'ini yashirdi. Temurg'oziga qarab hadik aralash angra-
yib turdi. Temurg'ozi bolaga qo'lini uzatdi.

— Men, agar bilishni istasang, Muhammad Rahimxon
soniy hazratlarining nabirasiman, Isfandiyorxonning o'g'li.

Baxtudavlat juda qisinib qoldi. "Endi otam meni o'ldiradi"
deb o'ylab, yig'lamasdan beri bo'ldi'. Shu payt
tashqaridagi eshik taraqlab ochildi. Baxtudavlat Temur-

¹ Yig'lashga sal qoldi.

g'ozini olib ketishga kelishdi, deb o'ylab kichkina to'raning oldiga o'tib turdi. "Qo'rqma, hech kim senga qo'lini tekkiza olmaydi" dedi u. Kelgan Masharif cho'girmado'z Baxtudavlatning otasi ekan.

— Uf, — dedi u eshikdan kirishi bilan, — hech qayerga qaramay, — hamma yer poshshob², bozor qizil qiyomat. Kichkina to'ra yo'qolib qolibdi. Hali zamon bizning ko'chalarni ham ostin-ustun qilishadi.

Cho'girmado'z o'g'liga "Bor, choy qo'y" demoqchi edi. Lekin gapi og'zida qoldi. Baxtudavlatning orqasidan chiqib o'ziga odob bilan salom bergan bolani ko'rib, yuragi qinidan chiqayozdi. So'ng qo'llarini ko'ksiga qo'yanicha "Va-alaykum assalom, to'ram" dedi zo'rg'a. U to'ralarga xos libos kiygan yigitchaning Temurg'ozidan boshqa odam emasligini darrov fahmlagan edi. Temurg'oz cho'girmado'z usta va uning o'g'lini noqulay holatdan o'zi xalos etdi.

— Usta cho'girmalaringizni juda maqtashadi. Sizdan bitta cho'girma olish niyatida kelgan edim.

Cho'girmado'z o'zini sal-pal o'nglab oldi.

— Jonim bilan, to'ram. Yaqindagina surdan³ bir cho'girma tikkan edim. Shu sizning bo'y-bastingizga sadaqa bo'lzin, to'ram. Uni kiyib yursangiz men g'oyat baxtiyor bo'lar edim.

— O'zim ham baxtiyor bo'lar edim. Er kishining ko'rki — cho'girma.

Masharif cho'girmado'z o'zining tovuq katagiday keladigan ustaxonasidan mixga ilib qo'yan cho'girmasini avaylab olib chiqdi. Kumush rang bosh kiyim yalt-yalt etib, o'zidan nur taratganday bo'ldi. Usta "uf-uf"lab cho'girmani yana bir tozaladi. Keyin g'oyat xursand holda Temurg'ozining boshiga kiygizdi. Unga qarab turib ko'zlarida sevinch yoshlari paydo bo'ldi. "Avval cho'girma tik, keyin uni yarashadigan odamga kiygiz" dedi u ichki bir iftixor bilan. So'ng kamzulining cho'ntagidan kichkinagina bir oyna chiqarib, kichkina to'raning ko'ziga tutdi.

— O'zingiz ham ko'ring, to'ram.

¹ Cho'girma — bosh kiyimi tikuvchi usta.

² Xon xizmatkorlari.

³ Oliy nav teri.

— Zo'r, buni kiyib jang qilsa bo'ladi.

— To'ram, ne kiysangiz ham yaxshi kunlarda, to'ylarda kiygaysiz... kiyimlaringiz to'zaversin. Lekin o'zingiz hamisha sog'u salomat bo'ling, — dedi cho'girmado'z foti-haga ochilgan qo'llarini yuziga surtib.

Bolalar ham uning ishini takrorladilar. Temurg'ozi bel-bog'ini yechdi-da, undan bir necha oltin tanga olib dasturxonning chekkasiga qo'ydi.

— Oz bo'lsa ham ko'pday ko'rgaysiz, kamiga qarzdorman.

— To'ram, bu tangalarga bir emas, o'nta cho'girma olsangiz ham bo'ladi. Shu bois biz faqirni gunohga botirmang.

— Oluvchi rozi bo'lib neki bersa ham, sotuvchi gunohga botmagay. Men ming bora roziman. Zero, bu cho'girmangiz yuz cho'girmaga turadi.

Masharif cho'girmado'z lol bo'lib qoldi. Baxtudavlatni esa bilinar-bilinmas titroq bosdi. Tilla tangalar u yoqda tursin, hatto bir necha oddiy tanga deb onasi kun chiqqanidan kun botguncha xizmat qiladi. Akalari qayerlardadir mardikorlikda tentirab yurishibdi. O'zidan atigi bir yosh katta opasini, qarzlar evaziga, bir to'raning qaynog'asi o'rabb-chirmab olib ketdi. Xullas, sira biri ikki bo'lmayapti. Tilla tangalar esa hozir ularga yiqlayotgan imoratga bir necha joydan berilgan tirkakday gap.

— Xo'sh, bo'lmasa yo'lga chiqdim. Mahramlar meni bu yerdan topishib sizlarga azob berib yurishmasin.

Temurg'ozi kosibning kulbasidan chiqib, Arkka tezda yetib bordi. O'zining yo'qolib qolishi bilan alanga olgan olovga o'zi suv semdi.

“BALAND TOG'LAR”NI KIM AYTADI?

Saratondan birmuncha oldin havo harorati isib, tevarak-atrof juda qopriq¹ bo'lib qolganida Isfandiyorxon o'zining ahli ayoli va farzandlari bilan Toshhovli saroyidan Qibla Tozabog'ga ko'chib o'tdi. Tegrasi olmazor va o'rikzor bog'lar, anjirzorlar bilan o'ralgan bu maskanda jazirama va

¹ Dim.

quruq issiq deyarli sezilmasdi. Xon o'zini kundan kunga bolalab borguvchi davlat yumushlaridan ham olib qochdi. Axir arizago'ylarning keti uzilmaydi. Biri u deydi, biri bu deydi, lekin hech birining xayri yo'q. Isfandiyorxon ana shunday o'zining nazaridagi bexayr ishlardan bezdi. Arkka ham kamroq tashrif buyuradigan bo'ldi. Buning o'miga turli ko'ngilxushliklarni, tadbiru marosimlarni kashf eta boshladи. Mana shulardan biri — Qibla Tozabog'ga ko'chib o'tish munosabati bilan katta ziyoфat. Bog'lar og'ushidagi ulkan maydonda bazm o'tkazilmoqda. Unga hech kim quruq qo'l bilan kelmagan. To'ralar va to'razodalardan tashqari butun arkoni davlat shu yerga to'plangan. Har biri kamida bir arava, yarim aravalik sovg'a-salom keltirishgan. Ular asosan qip-qizil g'olilar', tilla buyumlaru har xil ziynatlardan iborat. Qo'ylaru ho'kizlar qo'ralarni to'ldirgan.

Bazmi jamshid qizigandan qizidi. Isfandiyorxon yonboshiga Temurg'ozini o'tqazib olib, izzat-e'tibordan, hofizlar bir birini ayamay diyrishma² qilishayotishganidan zavqlandi. Axir ularni bunga u majbur qilgan emas. Har biri o'zicha o'zimni ko'rsatay, xon buvaning bayrog'ini olay³, deydi. Bir qo'y yoki bundayroq bir chopon bilan ularning ko'ngli ko'l⁴ bo'ladi.

Hofizlarning ashulani buzib yoki quloqqa yoqmaydigan so'zlar bilan aytishga haqlari yo'q. Quvvai hofizasi kuchli bo'lgan Isfandiyorxon buni darrov anglab, jazosiz qoldirmaydi. Bir safar bir hofizning tomog'iga tuflik⁵ tiqilib, ovozi sal bejaroq chiqqanida uni hech qanday sovg'a-salom-siz qoldirib, eshakka ters mindirib yuborgan edi.

Ko'plab go'yandalar⁶ bir-bir qo'shiq aytib, davradagi-larga ta'zim qilib, xonning ko'ngli uchun egilishi mumkin qadar egilib, davradan chetga chiqishdi. Isfandiyorxon ma'qul degandek bosh chayqab o'tirdi. Temurg'ozni ikki qo'l bilan chakkalarini⁷ tutganicha rohatlanib qo'shiq eshitdi.

¹Gilam.

²Aytishuv.

³Mukofot olay.

⁴Ko'ngli ko'tariladi.

⁵Tupuk.

⁶Hofizlar.

⁷Yuzlarini.

Navbat el orasida tanilgan bo'lsa-da, xonning bazmlariga shu paytga qadar taklif etilmagan Matlatif hofizga keldi. Isfandiyorxon birov o'rgatganini va buyurtma bergenini yoqtirmaydigan bu hofizni o'zi shaxsan Bog'otdan oldirgan. Bosh mehtar¹ unga bir nima demoqchi bo'lган edi, so'zi og'zida qoldi.

Kuy yangradi. Go'yoki Amudaryo eshilib ingranib oqayotganday bo'ldi. Temurg'ozining butun vujudi qulooqqa aylandi. U bunday musiqani faqat bir marta Feruz bobosi yonboshida o'tirib eshitgandi. Undan keyin bunday imkon bo'lmadi. Bobosini ham, musiqani ham sog'inib yurdi. Mana yana shu kuy. Keyin hofiz nola etdi:

*Baland tog 'lar haybatingga mussayma,
Vaqtin kelsa qurub yerday bo 'lursan...*

Qo'shiq juda beqiyos edi. Temurg'ozи g'oyat mutassir bo'ldi. So'zlarning ma'nolaridan o'zicha nimalarnidir ilg'adi. Darhaqiqat, umuman olganda xonu beklar ham, shahzodalar ham, oddiy kambag'al kosibu ularning bolalari ham aslida xudoning biday bandasi. Hofiz shoirning shu hikmatlar bilan ziynatlangan she'rini yuqoridagi hislarini anglatadigan darajada aniq aytmoqda.

Temurg'ozи hazrat otasiga tikildi. U o'zidan farqli ravishda tobora ho'mraya boshladи. Qosh-qovog'i osildi. O'g'lining hayrati uni yanada g'azablantirdi. Temurg'ozи buning sababini tushunmadи.

Matlatif hofiz qo'shiqni tugatdi. Uning chirt yumilgan ko'zları ochildi. Bir qo'li bilan dutorini bag'riga bosib, yana bir qo'li bilan peshonasidagi terlarini artdi. Hamma jim. Odatta yo qarsak yangrardi, yoki xonning "barakalla" degan xitobi eshitilardi. Hofiz nima qilarini bilmadi. Beixtiyor xonga qaradi. Hukmdorning burishgan yuzini ko'rib battar so'zini yo'qotdi.

— Yana aytaymi?

Isfandiyorxonning qahrli g'azabi hamma narsaga aniqlik kiritdi:

— Garak amas!²

¹ Vazir.

² Kerak emas.

Matlatif hofiz ustidan bir chelak sovuq suv quyulgan kabi, egnilarini qisib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Temurg'ozi otasiga tikildi. Xon ham uning ko'zlariga tik boqdi. Baribir ko'nglidagi gapni aytmadı.

— Hofiz ko'p to'ram, hammasini eshitish kerak.

Shundan keyin bosh mehtar va qushbegi¹ zo'r berib Isfandiyorxonning kayfiyatini yaxshilashga intildilar.

Hofizlar o'rnini masxarabozlar va qiziqchilar egalladi. Ular zo'r berib fahmi-farosati kam, "kalla o'mida qovoqni" ko'tarib yurgan odamlarni masxara qilishgan bo'lishdi. Hali ham "Xon ota kechirimli, mehridan ichirimli" ekanligini takror-takror aytishdi. Isfandiyorxon bir necha bor tirjayishga harakat qilsa-da, baribir eplomadi. Qoq o'rtasidan bo'lin-gan bazmni keyin hech narsa bilan yamab bo'lmadi. Temurg'ozi aniq sababini bilmasa-da, Matlatif hofizning taqdiri uchun qisindi²...

Bir necha kundan keyin Temurg'ozi to'ra Matlatif hofiz vafot etgani to'g'ridasi xabarlar eshitdi. Onasi "bechora qirqiga ham kirmagandi, o'z qishlog'ida qo'shiq aytib, aytmasa dehqonchilik qilib yuravergani yaxshi edi" deb, hofizga achindi. Lekin hofiz vafotining sababini aniq aytmadı. "Kasal ekan" deb qo'yaqoldi. Kasal odam shunday qo'shiqlar aytib biladimi, — o'yladi o'zicha Temurg'ozi.

Aniq gapni esa u Baxtudavlatdan eshitdi. Uch-to'rtta to'ra va beklar Matlatif hofizga kun bo'yи qo'shiq ayttirishib, oxiri hovuzga itarib yuborishibdi. Uning hovuzdan chiqishiga uzoq vaqt yo'l qo'yishmabdi. Natijada Matlatif hofiz qattiq shamollabdi. Tabiblar davolay olishmabdi.

Temurg'ozi yana bir bor dunyoning ishiga hayron bo'ldi. Hammanikidan ham ko'proq va zo'rroq iste'dodi, qobiliyati bo'lgan odamlar nima uchun uzoq yashamasliklari, ko'pgina xorliklar ko'rishlari to'g'risida hayollar uning jismu jonini o'rtadi. Axir hamma yuribdiku. Nima uchun Matlatif hofiz endi yo'q. "Baland tog'lar"ni endi kim ayta oladi?

¹ Katta amaldor.

² Qayg'urdi.

XONNING O'GITLARI

Islomxo'ja o'zining Nurullaboydagi xonai xobida yolg'iz o'tirib, Xivaning taqdiri kundan-kunga hushyor tortib, ziyraklashib borayotgan nabirasi haqida xayol surardi. Aslida bir odamga ko'p narsa kerak emas, o'yldi u. Shinamgina xona, kichik bir dasturxon va mumtoz g'azallar bitilgan kulliyot bo'lsa bas. Xotirjamlik, osoyishtalik uchun shular yetarli.

Kattakon bir davlatning eng oliv martaba poyasida bo'lgan vaziri akbar har qanday holatda ham osoyishta va xotirjam bo'la olmasdi. U yolg'izlikda xudoga taqlid bor, Ollo taologa ming taqlid qilib ham, bir bora tenglashib bo'lmaydi, deb hisoblardi va shunday o'yldi: Shakkok banda qaysidir ishi bilan baribir nom qoldirishi mumkin. Ammo hargiz hukmdorga taqlid qilmaslik kerak. Chunki taqlid qilmasdan ham ko'p ishni undan yaxshiroq qilsa bo'ladi.

Islomxo'ja o'zining kuyovi xon ko'tarilishiga anchamuncha xizmatlari singgan Isfandiyorga taqlid qilishni hayoliga ham keltirmasdi. U faqat o'zining tashabbuslari, tad-birkorliklari, xonlikka ko'proq naf keltirishi mumkin ekanligini his etardi. Shu sababli u Arkda anjumanlarda, yig'lnlarda xonning o'zi kabi tikroq gapirardi. Xon yo'q yerda esa, uning nomidan amr etardi.

Ammo ko'pgina g'alamislar, devonbegi va boshqa to'ralar uning harakatlarini xonga taqlid, deb tushunardilar, yo bo'lmasa shunday tushunishni istashardi. Har holda xonning qulog'iga shu tahlitdagi gap-so'zlar tez yetib borardi.

Bugun uning fikri-o'yi o'zidan ham ko'proq Temurg'ozida, Isfandiyor, shubhasiz uning janglari va hukmdorga xos ravishda ho'q' bo'lishini istaydi. Bolaning qo'liga qilich ushlasmagan kuni yo'q. Islomxo'ja kechagi voqeani xayolidan o'tkazdi.

Isfandiyor vaziri akbar bilan davlat ishlari haqida suhbatlashib o'tirishgan paytda Temurg'ozining topilib qolganini suyunchilashdi.

¹ Qo'pol.

Xon to'nini teskari kiyib oldi. Bu axir o'g'lining birinchi beboshligi emas. Davlat ishlari orqaga surildi. U Temurg'ozini saroyga keltirishni buyurdi.

Devonbegi kichkina to'rani qo'lidan ushlab olib keldi va jahl otiga minib olgan amrbardorga yuzlandi.

— Oliy hazrat, men qulingizga shafqat qiling to'ramni avf eting. Tanida buyuk bobosining qoni jo'sh urgan ko'rinaldi. O'zini tanitmay qal'a fuqarolari holidan xabar olmoqchi bo'lgan. Avvallari ham shahzodalar shunday qilib turishgan.

Xon yuzini o'girib o'g'liga qaradi, lekin uning ko'zlarida tavba tazarru yoki xijolat alomatlarini sezmadidi. Yana g'azablandi.

— To'ram, siz endi yosh emassiz, sizning yoshingizda davlatni idora etganlar ko'p, siz esa o'ynab yuribsiz.

— Avf eting, hazrat. Mudom qo'riqlab yurishlari og'ir botadi. Axir sizday ulug' zotning o'g'li bo'lsm-u erkin yurolmasam.

Isfandiyorxon uning gapini bo'ldi:

— To'ram, shuni bilib qo'yingki, biz hech qachon erkin bo'la olmaymiz. Har kuni bizni ming-minglagan ko'zlar o'ziga bog'lab turadi. Ularning ichida, bajonidil chopib tashlar edim, deguvchilar ham oz emas. Shu sababli hammadan ham ko'proq soqchiga biz muhtojmiz. Hali o'sib-ulg'ayib hammasini o'zingiz tushunib yetasiz.

So'nggi gaplar Islomxo'jaga qattiq botdi. Xon o'zi nima demoqchi. Hozirgi zamonda hech kimga ishonib bo'lmaydi, degan gapni pardalab aytayotgani yo'qmi o'zi? Kichkina to'ra ham bo'sh kelmadidi.

— Hazrat ota, unday bo'lsa xon yoki to'ra bo'lishdan murod nadur?

Isfandiyorxon o'zini tutib turolmadi, xoxolab kulib yubordi.

— Bir kun xon bo'lishga odamlar butun umrini tikishadi. Erkin bo'imasangiz ham misli ko'rilmagan darajada to'kin bo'lasiz. O'zingizning bo'limasa-da, o'zgalarning erki sizning qo'lingizda qafasga solingan qushlarday chirqiraydi. Xohlasangiz ularni qo'yib yuboring, xohlasangiz bir umr qafasda saqlang.

Xon o'g'lining javobini eshitishni ham istamadi. Tezda jiddiy tus olib gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

— Bu na cho'girma? Qolipi¹ temirdan yasalganmi?
Buncha beso'naqay. Oling boshingizdan, sizga Ovrupacha
bosh kiyim yarashadi.

Xon qars urib mulozimni chaqirdi. Mulozim ta'zim qil-
gancha kirib keldi.

— Sandiqchi² popoqni keltirsun.

Oqposhsho sovg'alari ichida kelgan popoq tezda xonning
qo'liga tegdi.

Isfandiyor popoqni kiygizishga chog'langan paytida
Temurg'ozi cho'girmani olib turdi.

— Mana bu boshqa gap. Endi haqiqiy sarkarda yigitga
mengzadingiz. Cho'girmani esa yo'qoting.

Temurg'ozi qulluq qilib saroydan chiqib ketdi.

Isfandiyor Islomxo'jaga bir tarafdan yaqin qarindoshligi-
ni ta'kidlab andak erkinlik bergandek, shu bilan birga biroz
ta'na qilgandek bo'ldi.

— Nabirangiz harb ilmidan ko'ra almi adabni afzal bila-
di. Ammo bo'lg'usi hukmdor birinchi navbatda dovyurak
sarkarda bo'lmosg'i lozim. Keyin har vaqt-har vaqt boshqa
narsalarga ko'ngil bersa ham joizdir.

— Xudo xohlasa o'g'lingizda barcha ilmlar uyg'un,
komillik ustuvor bo'lur, — dedi Islomxo'ja gap nishabini
to'g'rilib.

Keyin xon Rusiyaga safar xususida ilmoqli qilib so'z
boshladi. Islomxo'ja bir necha muddat ilgari xonga arqonni
uzun tashlab qilgan maslahati o'zidan darak berayotganligi-
ni fahmladi.

— Qutlug' safar ishini kechiktirmaslik joiz. Ham-
mamizning umrimiz o'lchovli. Bas, shunday ekan, dunyo
ko'rish diydani to'yintiradi. Yurgan-daryo, deb beziz aytish-
magan.

Islomxo'ja gapni shunchaki aytgan bo'lsa-da, xonning
asosiy maqsadi o'z mavqeini mustahkamlash ekanligini
yaxshi bilardi. Ammo buni ochiqdan-ochiq aytish yoki shun-
ga ishora qilish xonning ko'ngil tubidagi mudrab yotgan
ilonni uyg'otish bilan barobar. Vaziri akbarning bir niyati, u

¹ Taxta uskuna.

² Xonning kiyimlariga mas'ul amaldor.

ham bo'lsa, kichkina to'rani Rusiya safariga olib ketish. Otasi qirqdan oshib ko'rgan dunyoni bolasi o'n ikkida ko'tsa ne ajab.

U shu niyatning uchini chiqarib qo'ydi.

— Rusiya safari faqat o'zimiz uchun emas, avlodlarimiz uchun ham katta naf bergen bo'lur edi.

Islomxo'ja xon albatta bu gapning tagiga yetadi, deb o'yladi. Faqat devonbegi bilan maslahatlashmasa bo'lgani...

Islomxo'ja xonai xobida ko'p o'tirolmadi. Xayoli quyilib kelayotgan fikru o'ylar bugun negadir tinchlik berishmasdi. Shu sababli u uzlatdan voz kechdi...

Kechga yaqin u Isfandiyorxon Temurg'ozini Rusiyaga olib ketishni ma'qul ko'rmaganidan xabar topdi.

KURASH MAYDONIDA

To'razodalar harbiy o'yinlar, turli jismoniy mashqlar o'tkazadigan maydon Deshon qal'ada. Bu yer bir necha qismga bo'lingan. Ulli mahram kattagina maydonni kovlatib, umr-umr birikib, qotib qolmaydigan ko'k chaga' tashlattir-gan. Ustidagi turkman g'olilarning qalinligi ham salkam bir qarich keladi.

Baxtudavlat umrida ko'zi tushmagan cho'g'day g'olini bosib o'tolmadi. Temurg'ozining qo'lidan ushlab gilamning o'rtasiga — bolalar to'planib turgan joyga boshladi.

Temurg'ozini ulli mahramga goh amr qilib, goh tavallo etib toptirib kelgan cho'girmado¹ zning o'g'liga ko'zi tushgan to'razodalarning hafsalasi pir bo'ldi. Ular, agar qo'yib bersa kambag'al-kosibning bolasini Ichon qal'aning o'sha gadoylar makoniga yuzini odam tanimaydigan qilib qaytarib yuborishdan boshlari osmonga yetardi. Ammo Temurg'ozini xonning o'g'li. U boshlagan ishning so'ngini kutib turish kerak.

Temurg'ozining do'sti Deshon qal'aga keltirilishidan oldin yuvintirildi va yangi kiyim kiyintirildi. Bu mashq kiyimlari bolaga biroz torroq edi. Balki sandiqchi bilib turib, ichki noroziligini ifodalash uchun shunday bo'lishini lozim topgandir.

¹ Ko'k qum.

Bolalar kiyimidan ham ko'proq Baxtudavlatning qo'liga hayron qolishdi. Axir ular dag'al va qattiq edi. To'razodalar bu qo'l astagina qisganda ham ancha og'ritishiga e'tibor berishdi.

— Bu mening jo'ram, — deb qo'ydi Temurg'ozi.

Bosh mehtarning o'g'li Matkarim unga "Endi kelib-kelib jo'rang shu bo'ldimi" degandek tikildi.

Temurg'ozi ham "Xo'sh, jo'ram shu bo'lsa, nima bo'libdi?" degan ma'noda undan ko'zini uzmadi. Oxiri Matkarim ko'zini olib qochdi.

Baxtudavlat Temurg'oziiga juda o'xshab ketadi, lekin qo'llari hammanikidan nozik, yuzlari artilgan tuxum kab'i silliq, labining ustidagi kichkina xoli o'ziga juda yarashgan bola bilan salomlashdi.

— Bu mening singlim — Kishjonbika, — dedi Temurg'ozi Baxtudavlatning bir kun ichidagi hayratlarini cho'qqisiga chiqarib. — Lekin o'g'il bolalardan kam joyi yo'q. Hali kurash tushganda ko'rasan.

Erkakcha kiyangan Kishjonbika orqa sochini kiyimi orasiga yashirib qo'ygan. Lekin sin' solib qarasa, qiz bola ekanini sezsa bo'ladi. Hech bo'lmasa jilmayishidan ham biliш mumkin. Qiz bolaning tabassumi baribir bo'lak. Unda mehr-e'tibor ko'proq. Baxtudavlat buni ozmi-ko'pmi his etdi. Ko'ngliga ko'kdan allaqanday yog'dular yog'ayotganday bo'ldi.

Temurg'ozi bilan bellashgan Matkarim har qancha chiransa-da, baribir bo'lmasdi, yerga gursillab tushdi. U o'midan turgach, alamini Kishjonbikadan oldi. Qiz bola demasdan oyog'idan chalib yuborib, yerga bosdi.

Ulli mahram hakam atalsa-da, uning asl vazifasi bolalarni muhofaza qilish, bir-birlari bilan urishishlariga yo'l qo'ymaslik edi. Har vaqtida "barakallo" deb turadi xalos. U qip-qizarib ketgan yosh bekani qo'lidan ushlab turg'izib, ust boshini qoqib qo'ydi. Matkarim esa hisob tenglashdi, degandek ikki qo'l bilan belini ushladi.

Baxtudavlat beg'ubor osmondan yana o'sha-o'sha o'ziga ma'lum zerikarli dunyoga qulab tushgandek bo'ldi. U Temurg'oziiga yuzlandi.

¹ Razm solib.

— Rost, men kurash tushishni bilmayman hisob. Ammo, izojat eting, to'ram, bir kuch sinashsam...

— Matkarim juda kuchli bola, ko'p amallarni biladi. Tag'in biror joyingiz lat yeb o'tirmasin.

— Inshoollo, u darajaga yetmas. Qolaversa, loqayd va ojiz do'stni ne qilursiz, to'ram.

Matkarim qo'yning o'lgsi kelsa, cho'ponning tayog'iga suyanadi, deya hayolidan o'tkazib qo'ydi. Ammo u mehnat va mashaqqatlar bilan suyagi qotgan, yo'qchilikda bor bo'lgan bola o'zini hali qanday ahvolga solishini tasavvur qila olmasdi.

Kurash boshlandi Matkarim bir necha marta ustalik qilib uni oyog'idan chalib ko'rdi. Raqibi shiddatli hujumdan oldin dovdiragan, bir-ikki marta gandiraklab ketgan bo'lsa-da, baribir yiqilmadi.

Olishuv uchun hammadan ham ko'proq quyuq qoshlarini chimirib olgan Kishjonbeka kuyunib o'tirardi... Agar shu bola Matkarimni yiqitsami!... Kichkina beka o'zicha shu bolaning chakkasidan o'pishga ham rozi bo'ldi. Lekin u "o'pib olar edim" deya o'ylar ekan, "baribir yiqitolmaydi" degan ishonchda edi.

Matkarim raqibini yelkasidan oshirib urishga, dast ko'tarib olishga ham harakat qildi, lekin uddasidan chiqmadi. Baxtudavlat urinib-urinib charchagan va bajo harakat qilib o'ng'ayga kelgan Matkarimni qayirib yerga bosdi. U ancha tipirchilab, yelkasini gilamdan olib qochishga intildi. Ammo uzoq bardosh bera olmadidi.

Hech kimdan sado chiqmadi. Ulli mahram Matkarimga turishga yordamlashdi. Kishjonbeka battar qizarib ketdi. U ahdini bajara olmasdi. Ammo ahdini buzish ham Kishjonbekaga xos emas. Shu sababli Baxtudavlatning chakkasidan xayolan o'pib oldi va unga mehr bilan termulib minnatdorchilik bildirdi.

Qandaydir bir yalangoqning bolasidan yiqilgani qattiq botgan Matkarim Baxtudavlatning yelkasiga bir musht tushirdi. U o'grilib qaraganda esa duch kelgan joyiga ketma-ket tepa boshladi.

Temurg'ozining g'azabi qaynadi. Bir zarb bilan Matkarimni yiqitdi-da, ustiga minib oldi.

— Siz nomardlik va adolatsizlik qildingiz. Kurash

yuzma-yuz va halol bo'lishi kerak. Hoziroq kechirim so'rang.

Matkarim kichkina to'radan kechirim so'rashga og'iz juftlagan edi. Temurg'ozi uni to'xtatdi.

— Kechirimni mendan emas, undan so'rang. Hammamiz ham xudoning bandasimiz.

Matkarim noiloj uzr so'radi.

Keyin ular no'xatdekkina o'q solinadigan miltiqdan nishonga otishdi. Bu o'q nari borsa chumchuqni o'ldirardi. Ammo haqiqiy miltiqqa o'xshar "chaq" etgan ovoz chiqarar va nishonda o'z izini qoldirar, kichkina shishalarni sindira olar edi. So'ng qilichbozlik boshlandi. Bolalarga moslab yasalgan qilichlarning tig'lari ham hali o'tkir emasdi. Ammo baribir u ham quroq edi va avvalambor bolalarning ko'zini chiniqtirar edi.

Arqonni uzun tashlab kuzatib turadigan harb ilmi muallimlari har vaqt-har vaqt to'razodalarning harakatlarini to'g'rilashib, maslahatlar berishib turishardi.

Baxtudavlat miltiqda otishda ham, qilichbozlikda ham mutlaqo "savodsiz"ligini ko'rsatdi. Bu borada tashabbuskorlardan biri bo'lgan Matkarim uning biror joyini qilich bilan tilishdan o'zini zo'rg'a tiydi.

* * *

Temurg'ozi Kishjonbeka va Baxtudavlat haqida o'yladi. Ular juda sadoqatli do'st va yo'ldosh bo'lishlari mumkin. Ammo negadir o'g'il bola bilan qiz bolaning do'stligi mumkin bo'limgan narsadek. Ayniqsa, to'raning qizi va cho'girmado'zning o'g'li sirdosh, dildosh bo'lishni hech kim tasavvur qila olmaydi. Bu do'stlik oxiri fojea bilan tugashi aniq. Yaxshisi bu haqda o'ylamagan ma'qul.

Temurg'ozi endi o'zi haqida xayol surdi. Unga osonroq. Istagan odami bilan bir yo'lini qilib do'stlashishi mumkin. Mana Baxtudavlat bilan do'stlashdi ketdi. Ammo shu istagan odam qiz bola, biror kambag'al bechoraning qizi bo'lsa-chi? Unda o'ziga ham oson bo'lmaydi. U bilan qayerda qanday uchrashadi, qanday gaplashadi.

Bir necha kun burun, Deshon qal'adan qaytishda, u uzun bo'yli, cho'zinchoq yuzli, qop-qora ko'zları serma'no boquvchi bir qizdan suv olib ichgandi.

— Biroz dampingizni oling to'ram, — degandi qiz, — uzoq yo'l yurib charchagan ko'rinasiz. Sovuq suv qizigan badanga marg!

Shunda biroz dam olishdi. Yarim piyoladan choy ichishdi. Keyin qiz chog'roq bir piyolada o'rik sharbati olib chiqdi.

— Chanqoqni yaxshi bosadi, yurakka quvvat bag'ishlaydi.

Haqiqatan ham saroyga charchog'i yozilib, kayfiyat ko'tarilib qaytdi. Shu-shu qizni unutmadi. Uning "biroz dampingizni oling to'ram... charchagan ko'rinasiz" degan so'zlar xayolida aylanaverdi. Ammo Ichon qal'adan ancha olisdagi qishloqqa borishga iloj topolmadi. Iloj topilganda esa vabo do'ragan qishloqda jon asari qolmagan edi. Qiz omon qoldimi, yo'qmi, tirik bo'lsa u qayerda, bu Temurg'oziga qorong'u. Ammo uning ko'nglida g'ayrioddiy bir ilohiy mehru muhabbat egasiz qolaverdi.

ISFANDIYORXON

Isfandiyorxon o'zi qurdirgan Nurullaboy saroyida muhtasham kamin¹ oldida, o'rislarning baland va bejirim kursisida o'tirib, qo'llarini olovga tutdi. Bir lahma joni rohatlandi. Keyin bu rohat asta-asta og'riqqa aylana boshladi va u qo'llarini olib qochdi. O'rnidan yoshlarga xos chaqqonlik bilan turmoqchi bo'ldi. Shunda u mutlaqo kutmagan ikki holat yuz berdi. Birinchidan, kursidan g'irchillagan ovoz chiqdi. Undan keyin eski bel og'rig'i o'zini eslatdi.

— Manglayi qoro!

Bu so'zlar uning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi. Bu bilan kursinimi yoki belinimi so'kkanini o'zi ham aniq tushunmadi. Aslida ikkalasi ham xonning jahlini birday chiqargandi.

Bel og'rig'i yozdirgach², u bir qo'li bilan kursini ko'tarmoqchi bo'ldi, kuchi yetmadi, bu ishni ikki qo'li bilan zo'rg'a amalladi. Kursining burgut shaklidagi taxta oyoqlaridan biri og'irlikka dosh berolmay ikkiga ayrilib ketibdi.

¹Zararli.

²Pech.

³Ta'xtagach.

— O'risniki ham o'zimiznikidan battarga o'xshaydi, — po'ng' illadi u o'zicha.

Aslida bu kursilarni otasiga Rusiyadan izi uzilmay kelib turgan harbiylaru turli boshqa maqsadlarda tashrif buyurgan kishilar oqposhsho tuhfasi sifatida taqdim etishgan. Otasi bu kursilarni xursandlik bilan qabul qilardiyu, ularda iloji boricha o'tirmaslikka harakat qilardi. Unga shu kursilardan birida o'tirib suratga tushishni iltimos qilganlarida rad etdi. Peterburgga borganda tushgan surati bundan mustasno.

Isfandiyorxon esa otasidan farqli ravishda o'ris kursilarni yoqtirardi. Hatto taxtda ham undagidek qomatingni tik tutib o'tirib bo'lmaydi, deb hisoblardi.

U kuni kechagi voqeani esladi. Xuddi shu Nurullaboyda u o'ris elchilarini qabul qildi. Marosim tugagach, bir o'ris suratkash uni holi joniga qo'ymadidi. Siz janobning odam bo'yi suratingiz Iskandarmonand bo'ladi dedi. Bu so'zdan Isfandiyorxon iyib ketdi. "Qanday bo'lar ekan" dedi u yana ham mulozamat kutib. Har holda hazrat otamiznikidan kam bo'lmas.

— Yo'q, — dedi o'ris, — sizda ovro' poliklarga xos ulug' vorlik ziyoda.

Isfandiyorxon bunga ishonmadi, lekin bu so'zlardan xafa ham bo'lmadidi.

— Siz suratkash emas, elchi bo'lsangiz ham bo'lur ekan.

Xonning lutfidan xursand bo'lgan, lekin qulfi dilini ochmagan suratkash maqtovni yana bir pog'ona ko'tardi. Bu endi hech bir qolipga sig'madi.

— Siz kabi qaddi qomati kelishgan baland bo'yli erkakdan o'ris jononlari jonini ham ayashmaydi.

Aftidan suratkash Isfandiyorxonning Peterburgdag'i ishqiy sarguzashtlaridan xabardor. Ularning oqibatlari xonni dard iztirobga olganligini ham biladi. Shu sababli ham o'ris jononlарини о'rtaga solganda o'z izzat nafsinı o'ylab ham o'tirmadi. Aslida u xonning qoqsuyak chakkasidan va oqargan yuzidagi siyrak soqolidan sira ham zavqda emasdi. Surat ming qilsa ham ko'ngildagidek tus olmasligini bilardi. Lekin xonga albatta til yog'lamalik qilish kerak, aks holda u ququruq qaytadi. Eng muhimi esa Isfandiyorxonning sihat-salomatligi va xonlikni boshqarish iqtidoriyu imkoniyatlari

xususidagi xufyona ma'lumotlar to'laqonli bo'lmaydi. Uni buning uchun kechirishmaydi...

Isfandiyorxon boshqa kursiga o'tirdi. Bosh mehtar uning amrini kutdi.

— Aslida taxtda o'tirganimiz durust edi.

Tikka turgan bosh mehtardan sado chiqmadi. U hozir qanday maslahat berilsa ham baloga qolishini yaxshi tushnardi. Axir xonning o'z ko'ngli o'ziga yoqmayaptiyu birovnikni yoqarmidi.

— Yo g'oli ustiga ko'rpačha solib bog'dosh¹ qurib o'tiramizmi?

Bosh mehtarning javob bermaslik imkonи qolmadi. U astagina pichirladi:

— Xon hazratlari, siz qayerda o'tirsangiz ham, hatto tikka tursangiz ham, farishta yuzingizda. Menga qolsa, shu kursi yaxshi. Oqposhsho ham ko'rsa xursand bo'ladi.

Isfandiyorxonga bu gap ma'qul tushdi. O'zicha bir taxt haqida ham, ko'rpačhaga to'shalgan g'oli haqida ham o'ylab ko'rdi, taxtda kim o'tirmagan? Xivada ellikka yaqin xon o'tgan. G'olidagi ko'rpačhada o'tirganlardan biri esa kallakesar Junaidmi?² Kursida o'tirib suratga tushgan kamdan-kam, qolaversa, bunda o'zincha bir madaniyat bor. Axir Ovro'pada hamma shu kursida o'tiradi.

Suratkash ishini tez bitirdi. Oldindan, orqadan, yonboshdan xullas hamma tarafdan suratga oldi. Isfandiyorxon bundan oldin zavqlandi, keyin rangini buzdi. Suratkash buni tushundiyu lekin ketishga shoshilmadi.

— Xon hazratlari, — dedi u. Sizning devorlariga qimmatbaho toshlar qadalgan ajoyib xonangiz bor ekan. Shu yerda bir suratga olaylik.

Xon kulimsiradi. Suratkash unda shubha tug'dira boshladi. Lekin sir boy bermadi. Bosh mehtar uning ishorasi bilan tilla laganda kichkina bir yoqut tosh olib kelib suratkashga uzatdi.

— Shu suratni men o'g'lim Temurg'oziga baxsh etdim. Harbiy kiyimda boshda dubulg'asi bilan Ichon qal'ada oling.

Gap-so'zga o'rin qolmagandi. Suratkash xonga minnat-

¹ Chardona.

² Junaidxon.

dorchilik bildirib saroydan chiqmoqqa shoshildi. Harbiy-chasiga chest berishiga sal qoldi...

Isfandiyorxon saroyning mo'jazgina xonasiga o'tdi. U bu yerda yolg'iz dam olishni xush ko'rardi. Baland devorlarning har joy har joyiga qimmatbaho toshlar qadalgan bu xona uning qonini jo'sh urdirardi. Na bir dilbar qizlarning visoli-ga ham u shu yerda yetgan. Juda shavqi oshib ketsa, u mastlikda devordagi toshlardan birini pichoq bilan kovlab olardida, tunni o'zi bilan o'tkazgan qizning qo'liga tutqazardi. Qiz bechora olishni ham, olmaslikni ham, bu tushmi o'ngmi anglamay turishidan huzur qilardi. Axir bu o'zi uchun hech ham tush emasdi.

Shu devordagi toshlarning bir nechta bilan ham xondan kam yashamaslik mumkin deb o'yladi u. Axir suratkash ham bekorga yaldoqlangani yo'q. Endi jonini kuydirib, Peterburgda turib Isfandiyorxon uchun xizmat qiladi. O'zidan ham bo'yи baland surat yuz yillardan keyin ham yashaydi.

U eng tansiq taomlar, meva-maston to'lib toshgan das-turxondagi qush go'shtidan olib uzoq chaynadi. Sharobdan bir ho'plab, yana tovoqqa qo'l uzatdi. Lekin ovqatdan laz-zatlanmadı. Jahl bilan, "hoy" deb qichqirdi. Bosh mehtar hozir bo'ldi.

- Bu nimaning go'shti?
- O'zingiz yaxshi ko'rgan sulgunniki¹.
- O'xshamaydiku.

Aslida ovqatda sira gap yo'q edi. Peterburgdan orttirib kelgan qon kasalligi xonning ishtahasini bo'g'gan, majolini qochirgandi. U har qancha xushvaqt ko'rinishga harakat qilsa ham, baribir xastalik alomatlari o'zidan darak berardi. Bosh mehtar gapni boshqa yoqqa olib qochib qutuldi.

— Bu harob bo'lgur sulgun cho'vdir yo takani² donini yegan bo'lmasin.

Isfandiyorxon kulib yubordi. So'ng jiddiy tortib bosh mehtarga "ketaver" ishorasini qildi.

Bir yonda o'ris kulib-kulib, o'rab-chirmab joningni ola-

¹Tustovuq.

²Turkman urug'lari.

man deydi, bir yonda cho'vdir bilan taka rangini buzib kallangni kesaman, deydi. Hali ham Xivaning xalqi yaxshi, bopingga boradi', — xayolidan o'tkazdi Isfandiyorxon. — Ularning ikkalasidan ham qutulib ketib bo'lmaydi. Qani endi ilonning boshini dushman qo'li bilan yanchib tashlasa. Lekin xon ko'tarilishiga yordam bergen, hayrihohlik qilgan ham aslida shular. Qaynotasi vaziri akbar Islomxo'janing jonbozliklarini ham unutib bo'lmaydi. Lekin...

Islomxo'janing xayollari o'g'li Temurg'ozi to'raga ko'chdi. O'lmasa shu bolam o'zim qilolmagan ishlarni ham qilar, dushmanlardan ham, ilonlardan ham xalos bo'lib yashar deb o'yladi. Bugun uning ham suratini olishadi. Oq poshsho xiva xonining o'g'lini ham bir ko'rib qo'yisin.

GULJAHON

Bir kuni Isfandiyorxon To'rtko'lga borganida Ullibog' qishlog'ida to'xtadi. Qishloq kadxudolari xon hazratlari tashrifi munosabati bilan katta tayyorgarlik ko'rishgan ekan. Isfandiyorxon otdan tushishi bilan bahaybat bir oq qo'chqor so'yishdi.

Qishloq noibi Beyimmat qora tilla qumg'onda xonning qo'lini yuvdirdi. Keyin ikki bukilib yumshoq sochiq uzatdi. Temurg'oziغا bu ish g'alati tuyuldi. Rahmatlik bobosi tengi kishi bolasiday odamga nega shuncha mulozamat ko'rsatadi? Qulluq qilgani qilgan.

Qishloq noibi juda qattiqqo'l va berahm odam ekanligi uning ham qulog'iga chalingan. Bir safar onasi shunga o'xhash gap qilgan axir Ullibog'da onasining urug'-aymog'i ko'p, shulardan xabar kelib turadi.

Bazmi jamshid qizidi. Xon ancha mast bo'ldi. Hatto, Beyimmat qorani bir nimalar deb so'kdi. U esa iljayib turaverdi. Bir gap Temurg'ozening qulog'ida qoldi.

— San manglayi qora, oltindan pishik quyojoqmisan?

— Yo'q, oliv hazrat.

Xon uning so'zini bo'ldi:

¹ Itotkor.

² Oltindan mushuk qo'ydirmoqchimisan?

— O'zi bor yo'g'i bir qizing bor... Uni ham birov olar-ketar...

— Yo'q, oliy hazrat, man juhudmanmi, oltin pishik quydirub...

Xon uning gapidan kului.

— Pes, shu gaplaring bor-da... Hamma vaqt qutulib qolasan. Har baloni ham bilasan. Juhud bo'lmasang ham, shaytonlikda juhuddan qolishmaysan...

Beyimmat noib tortiqlarni topshirish vaqt yetganini tushundi. Bir zum g'oyib bo'lib ketdi-da, boqqa tutash hovlisidan bir nima ko'tarib keldi. Xon sal pastga engashib, ko'zlarini yirtib qaradi. Katta lagan ustida qumg'on-oltindan!

— Oliy hazrat, sizga shularni o'z qo'llarim bilan topshiradigan kunni kutib yurgandim.

Isfandiyorxon hushyor tortdi. Kayfi biroz tarqaldi.

— Pishik quydirsang ham bo'lardi, qizing o'ynab yurardi.

— Qiz bola birovnniki. Na o'ynasa tushgan joyida o'ynar. Xon Beyimmat qorani erkalab qo'ydi.

— Bu ham juhud, lekin bizning juhud.

Hamma xonning topqirligidan zavqlanib kului.

— Biz kichkina to'ramni ham unutganimiz yo'q.

— Temurg'ozinimi?

— Hovvo, oliy hazrat.

Noib kichkina haltachadan mushtdek bir buyum oldi. U tilladan yasalgan qushcha edi. Dastlab bu qushchani Isfandiyorxon qo'liga oldi.

— Bu qanday qush?

— Bulbul...

— Burgut yo qarchig'ay bo'lgani durust edi.

Xon shu beqiyos narsaga ham gap topdi. Bundan Beyimmat qora hijil bo'lmasdi. Aksincha, tilla bo'lganidan keyin, qarchig'ay bo'ldi nimayu bulbul bo'ldi nima, hali turib-turib buning ma'nisini bilasiz, deb ichidan o'tkazdi u.

Tilla qush Temurg'oziga tegdi. U juda xursand bo'ldi.

— Hazrat ota bulbul sayraydi, burgut sayramaydida, — dedi u biyron tillari bilan.

— To'g'ri, lekin bulbul mana bu noib sayra, desa sayraydi, sayra demasa, lol bo'ladi.

Yana kulgi ko'tarildi. Bu endi Temurg'oziga zarracha ham ta'sir qilmadi. U otasining yonidan nari ketdi. Isfandiyorxon ham shuni istab turgan ekan shekilli, yostiqqa yonboshladi. Sal o'tmay xurtak ota boshladi. Har vaqt-har vaqt sayrab turgan bedanalarning ham ovozi tindi. Beyimmat qora Temurg'ozini bog' aylantirdi. O'riklar gullab turibdi. Sal nariroqda qizil gullar g'uncha tukkan. Shu mahal bulbul sayray boshladi. Temurg'ozি bir gullab turgan o'rikka, bir qo'lidagi tilla qushga tikildi.

— Endi, to'ram, o'zingiz bog' aylaning, hozir Guljahon ham kelib qoladi, — dedi noyib.

Ko'z ochib yumguncha qo'g'irchoqday bir qizcha paydo bo'ldi. U juda nozik edi. Saroyda ham, boshqa joyda ham Temurg'ozи bunday nazokatli qizni uchratmagan. Labining ustidagi kichkina bir xol uning husniga husn qo'shardi. Qizcha salom berdi. Temurg'ozи alik oldi.

- Siz Guljahonmisiz?
- Ha, to'ram.
- Necha yoshdasiz?
- Navro'zda o'n ikkiga to'ldim.
- Men esa o'n uchga...
- Bulbul sayraganini eshitdingizmi?
- Eshitdim. Men uning tilini tushunaman.
- Rostdanmi? U hozir nima dedi?
- Eh, bechora odamlar. Uchay desangiz qanotingiz, kuylay desangiz yoniq yuragingiz yo'q, dedi.

Temurg'ozи hayratga tushdi. O'zi ham xuddi shuni o'layotgandi. Lekin shu qizchalik aniq va tiniq fikrlovchi tengdoshini uchratmagandi. Qolaversa, u haqiqatdan ham ko'proq, xayollarini, orzu umidlarini aytdi, shekilli.

— Hazillashdim, — dedi shunda qizcha. — Qushning tilini kim bilardi? O'zimcha xayol surdim. Ko'p vaqtim yolg'iz o'tadi. Ota-onam hech qayerga chiqarishmaydi. Shu sababli xayol surganim surgan.

Temurg'ozи qo'lida mahkam ushlab turgan tilla qushchani Guljahonga uzatdi.

- Bu mendan sovg'a.
- Yo'q, yo'q, otam meni o'ldiradi. Uni siz uchun tuzat-tirgan.
- Men bulbulchani sizga saqlab qo'yish uchun bermoq-

chiman. Xudo xohlasa yana bir kelib olib ketaman. Temurg'ozni niyat qildi. Guljahon bilan yana uchrashishni istadi. Qiz ham buni tushundi shekilli qushchani oldi.

Bir necha marta u otasiga Ullibog' haqida so'z ochdi. Lekin xon qulq solmadi. Nihoyat oradan bir yil o'tib ular yana Beyimmat qoraning qarorgohida mehmon bo'lishdi. Temurg'ozni Guljahonni izladi. Lekin topolmadi. Uni xon hazratning ruxsati bilan bir savdogar boyning o'g'liga uza-tishibdi. Otasi bu haqda Temurg'oziga aytib o'tirarmidi? Temurg'ozni nima qilarini bilmadi. Shunda ohista yana bir o'zi bog' aylandi. Qaytib kelayotsa oldidan Guljahonning onasi chiqdi. U egilgancha Temurg'ozining peshonasidan o'pdi. So'ng ko'zlariga yosh olib tilla qushchani uzatdi. Temurg'ozni hammasini tushundi. Yana bulbul sayradi. Lekin u zavqlantirmadi. Shunda Temurg'ozni qo'lidagi tilla qushchani uzoqlarga otib yubordi. Daraxtdagi bulbul hurkib uchib ketdi.

NASIBA

Ro'ska xotin bitta o'zi, yarmi yiqilgan va shumshayib qolgan kulbada yashaydi. Agar bu yolg'onchi dunyoning jabri-jafolari bo'g'ziga kelib, hamma narsaga beparvo bo'lib qolmaganida, bunday tanholikda yashamagan bo'larmidi. Odamlarga qo'shilgan, gap-so'z, bir piyola choy va bir kosa obi yovg'on bilan so'nggi kunlarini hamma keksalardek o'tkazarmidi. Uzun tunlar, "tiq" etsa eshikka tikilaverish va "birov keldimikan" degan xayolning sarob bo'lib chiqishi bir kunmas bir kun kishini jonidan to'ydiradi.

U hamon ilmi g'oyibdan bir mo''jiza sodir bo'lib, eshik-dan o'zining qadrini biladigan va odam qatoriga qo'shib yur-gan eri hamda har xil baloyu qazolarga, kasallarga qalqon bo'lguvchi o'g'lining ruhlari ko'chgan qanotli farishtalar uchib kirib kelishlaridan umidvor edi. Ammo mo''jiza sodir bo'lavermas, hatto avvallari uning uyi oldidan tez-tez o'tib turishadigan itlar ham yaqin yo'lamay qo'yishgandi.

Ro'ska xotinning eri Muhammad Rahimxon qo'shinida sarboz edi. O'tislari bilan Pishkanik atrofida bo'lgan jangda ko'kragidan yaralandi. Bir o'q bilan o'limgan, murtini bolta chopmas xivalikni oqposhsho askari qilich bilan chopib tash-

ladi. Uning jasadi Deshon qal'ada qoldi. Qayerga ko'milganini, o'zi ko'mildimi-yo'qmi hech kim bilmaydi. Yakkayu yolg'iz o'g'lini esa allaqanday she'rlar to'qib, oq poshshoni yomonotliq qilmoqchi bo'lgani, xon va to'ralar o'rislarga banda bo'lishdi, deb jar solgani uchun Isfandiyorxon dorga ostirdi. Ammo o'g'lining she'rlari o'lindi. Har vaqt-har vaqt jonidan to'ygan xivaliklar yodlab turishadi, qo'shiq qilib aytishadi. Mana shu she'r:

*Bahoringda sayrab bog'da bulbullar,
Bo'stonda ochilib qirmizi gullar,
Xazon fasli yetib savsan bulbullar.
Ochilgan gul eding, so'lding Xorazm.*

*O'russ kelib sening yurtingni oldi,
Musulmon yurtingga qo'zg'olon soldi.
Diningni olurg'a emdi ne qoldi.
O'rusga qaradi kuning Xorazm.*

Bosh mahram Temurg'ozining injiqliklariga oxiri ko'nib, to'ram uzoq ketmang, ko'zingizga qarang, meni ham o'ylang, deb ming iltijolar qilib, bir necha daqiqa ozod qo'ygan kunlarning birida Temurg'ozi o'sha ko'pchilikning og'ziga tushgan xotinni borib ko'rmoqchi bo'ldi. Baxtudavlatning ko'p o'tinishiga qaramasdan, kechagi yomg'irdan so'ng loy tizza bo'yi keladigan ko'chaga burildi.

Ro'ska xotin ta'riflashganidan ham qo'rqinchliroq qiyofada edi. Oppoq, lekin ancha qalin sochi yelkasini qoplagan, har xil rang va kattalikdagi ayqash-uyqash o'ralgan ro'mollari yuzlarini bekitgan. Faqat mung va hasrat to'la ko'zları yiltillab turardi. U har safar charx dastasini to'la bir aylantirib olarkan, "Har kim etsa — o'ziga" deb pichirlardi.

U bolalarning baravar bergen salomiga alik olmadi. Ularni "Ollo taolo o'ziga madadga yuborgan" farishtalar xayol qilib uzoq tikildi. U qolgan umrini shunday o'tkazishga ham rozi edi. Ammo juda ozoda kiyangan, dumaloq yuzli "farishta" tilga kirib, bir nima, deb so'radi. Ro'ska xotin qulog'ini bir qo'li bilan engashtirib, uning og'ziga yaqin olib bordi.

— Ena, — dedi o'sha "farishta", — noningiz bormi?
"Ajabo, farishta ham non yeydimi?!", o'yladi u.

Aftidan ayolning dasturxoni ham yo'q edi. U qo'ltig'ida saqlab o'tirgan kulchani olib uzatdi. Temurg'ozi undan bir tishlab, qolganini sherigiga berdi. Baxtudavlat kulchani tishi bilan chakalab-chakalab, bir amalladi. Do'sti qanday qilib darrov uzib olganiga hayron bo'ldi.

Ro'ska xotin mo''jiza ustiga mo''jiza bo'layotganidan tamom hayratda qoldi. Uning yonib deyarli ado bo'lган ko'ngil shamini qandaydir bir yoqimli shabada puflab alanga oldirmoqchi bo'layotgandek edi. Ammo endi uning ro'barasida farishta emas, xuddi o'ziniki singari, bir vaqt yugurib-yugurib charchamagan, odamzod bolalari turishardi.

— Ena, nega "har kim etsa — o'ziga!" deyapsiz.

Temurg'ozining savoliga ayol shunday javob qildi:

— Ko'nglimga xudo solgani shu.

Temurg'ozi taqdir ushbu ayolni naqadar katta fojealarga duchor etganligini, bunda o'z otasining ham qo'li borligini, ona o'z o'g'lining qotilini hech vaqt kechira olmasligini bilmas edi. Ammo Ro'ska xotin hushyor tortdi. "Agar ro'paramda turgan bola Isfandiyorxonning o'g'li bo'lmanida ham, unga hamtovoq biror to'raning farzandidir", — deb o'yladi u ko'rinishidan o'ktam va kiyimlari o'ziga ko'proq yarashgan Temurg'ozini nazarda tutib.

— Ena, non shirin ekan. Rahmat. Rozi bo'lsangiz qolganini o'zimiz bilan opketamiz.

Ro'ska xotin avvalo eridan, keyin o'g'lidan ayirgan odamlarning bolalari endi kelib o'zining so'nggi nonini olib ketishganidan ham sira xafa bo'lmasdi. Yaratgan egam dargohiga hech bo'lmasa savob bilan boradigan bo'ldim, deb o'zini ovutdi. U sabr-bardoshga, bu dunyoda ham ozmi-ko'pmi mukofot bo'lishi haqida o'yladi. Charxini aylantirib yana "Har kim etsa — o'ziga!" sini takrorlay boshladi.

ARZIRLI SAVOL

1910-yil may oyida Isfandiyorxon Peterburgga safar qilib, oqposhsho Nikolay II hazratlari bilan uchrashib, qaytganidan buyon ikki yilcha vaqt o'tdi. Bu orada Xivada ancha-muncha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, pochta, telegraf, kasalxona qurildi. Bu ko'pchilikning oyog'i yetmaydigan joylar bo'lsa-da, har holda yangilanishlar

shabadasi edi. Faqat chuqurroq o'ylab, mulohaza qiladigan kishilargina, oqposhsho Xiva hukmdoriga bu yangilanishlar imkonini bergen holda, undan nariga odim' ottirmaydigan temir to'rlarini juda uzoq-uzoqlardan turib kengroq yoyayotganligini ilg'ab olishardi. Axir yangi qurilishlarning ko'pchiligi shahzoda Aleksey nomi bilan bog'landi.

Xonlikning birinchi odami qolib, ikkinchisi — vaziri akbar Islomxo'ja "Xivada shahzodaga atab shifoxona tiklaymiz" deganida, Nikolay II gapni cho'zib o'tirmaganligining sababi ham ana shunda edi. Islomxo'ja buni his etar va o'ziga o'zi hisob berardi. Ammo boshqa iloj yo'q. To'rdan chiqib olish uchun ham odamlarning ko'zini ochish, onglantirish lozim.

Xon va vaziri akbar o'rtasidagi munosabatlar juda yomonlashdi. Isfandiyor Peterburgda «ustidan hatlab o'tganligi» uchun Islomxo'jani kechira olmadи. Bu voqeani endi biroz yoddan chiqardim deganda, saroydagи g'alamislar unga yangicha tus berib esiga solib qo'yishardi.

Xon vaziri akbarni majlis va mashvaratlarda gap ostiga zahar qo'yib chaqib-chaqib olayotgani yetmayotgandek, Bikajon bekani xo'rashni avjiga chiqardi. Uning xonai xobi ustidan har kuni haramga qiz olib o'tilardi.

Hali Peterburgdagi o'zgacha kayfu safo nash'asini unutmagan xon hech narsani tanasiga o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoldi. U sal narsadan hayajonga tushardi.

Islomxo'jani eng o'rtagan narsa — Temurg'ozini o'zidan begonalashtirishga urinish edi. Har xil usullar bilan bolaning ko'nglini sovutish yo'llarini izlashardi.

Mana kechagina xon bilan birga, o'zi sira chiqisha olmaydigan devonbegini ham olib, to'razodalar harbiy mashqlar o'tkazadigan maydonga borishdi. Temurg'oz ularni uzoqdan ko'rib, istiqboliga shoshildi. Hatto qo'lidagi nayzasini yerga qo'yishga ham vaqt yo'qotmadi.

U kela sola bobosini quchoqladi. Ehtiros va hayajon bilan, ko'zları pirpirab turgancha ko'rishdi. Otasi va devonbegiga kelganda esa o'zini ancha qo'lga olib, ta'zim qildi.

Isfandiyorxon kutgan ishning mutlaqo teskarisi bo'ldi. Ammo buni u ochiq aytta olmasdi.

¹Qadam.

— Jangchiga ehtiros yarashmaydi. U sovuqqon bo‘lmog‘i kerak. Mehrni ham to‘ralarga xos izhor qilishga o‘rganing.

Xon Temurg‘ozining qo‘lidagi nayzani olib, zarb bilan irg‘itdi. U borib ancha olisga — kurash maydonining bir burchagiga ko‘k chaga va toshdek qotib yotgan tuproqning o‘rtasiga borib qadaldi.

Islomxo‘ja chidab turolmadi.

— Xon hazratlari, hammamiz mehru oqibatni, ehtiroslikni ulug‘ Madrahimxonidan o‘rganganmiz. Illohim u kishining go‘riga nurlar yog‘sin.

— Hazrat ota, mening ko‘ngil qoldirib, orttirgan sovuqqonligim, yo‘qotgan mehri-muhabbatimga arzirmikan?

Xon boshqa gap aytmadni. Tezda orqasiga qaytib ketdi.

ISLOMxo‘JA

Islomxo‘ja nabirasining boshini siladi. So‘ng asta-sekin oldinga boshladni. Yurib borishar ekan u muhim bir gapning uchini chiqardi.

— Bolam, boshingiz toshdan bo‘lsin.

— Sizning ham, hazrat bobo.

Islomxo‘ja vaziri akbarning boshi toshdan bo‘lmasa kimniki bo‘ladi, demoqchi edi. Lekin darrov qanday qilib boshim toshdan bo‘lishi mumkin, degan xayolga hordi. Axir har kun xavf ostida. Bosh mehtar ham, to‘ralar ham uni xondan uzoqlashtirishmoqchi, tosh boshini maydalab yanchishmoqchi. Go‘yo shu kichkinagina bola ham buni anglayotgandek. Men-ku boshim goh toshdan, goh suvdan bo‘lib shuncha umr yashadim. Xudo bergen martabalarga erishdim. Lekin bu juvonmard o‘g‘lonni oldinda nimalar kutayapti? O‘zim sog‘-omon tursamku hech kim dahl qilolmas, lekin bizni bog‘lab qo‘yanmi?

— To‘ram, endi madrasa borursiz, ilm o‘rganursiz. Ko‘nglingizda sabot va matonat, e’tiqod hosil bo‘lur. Bular musulmonni razolatdan, qabohatdan omon saqlovchi zirhlardir. Ko‘nglingizga sanchilmoxchi bo‘lgan ko‘p narsalardan xalos qilur.

Vaziri akbar nabirasini qori qur'on¹ Asadulla eshonning qo'liga topshirdi.

— To'ram salohiyatli, qobiliyatli yigit. Sizdan saboq olsa kam bo'lmas.

— Bo'lmasa bu yigitchani bir sinab ko'rarmiz, — dedi Asadulla eshon.

Islomxo'ja buni kutmagan edi. Axir xonning o'g'li-ya. Lekin eshonning shijoati unda Temurg'ozining ilmnii puxta egallashiga ishonch hosil qildi. Axir xonning o'g'lini ham imtihon qilaman deb turgan odam xudodan boshqa yana kimdan qo'rqardi.

— Ilm o'rganmoqda nimaga tayanursiz, to'ram.

— Olloh bergen sabotga.

— Savodsiz odam ham ilmli bo'la olurmi?

— Bo'la olur. Agar ilmi xol g'alobati² muyassar ersa.

— Bale...

Olloqulixon madrasasi chinakam mo''jiza go'yo. Uzunasiga qator ketgan hujralarda yuzlaridan nur yog'ilib turgan xotirjam talabalar mutoala bilan band. Oq soqollari ko'rak, bejirim sallalari salobat bag'ishlab turuvchi mudarrislar ularga saboq berishadi.

Madrasa o'tasidagi quduq zitol suv bilan to'lgan. Talabalar undan chelakni to'ldirib olishadiyu bir sarhum³ suvni sipqirib tashlashadi. Aksariyat talabalar o'zidan katta.

Temurg'oz xat savodini erta chiqargan. Ko'pgina diniy asarlarni, allomalarining risolalarini o'zicha o'rgangan. Shu sababli uning madrasada tahsil olishiga xon hazratlari mone lik qilmadi.

SURATKASH

— Mana bu qora qutidan ko'zingizni uzmang, to'ram, — dedi suratkash to'rtta yog'och oyoq ustida turgan katta fotoapparatga qo'li bilan ishora qilib. Shu vaqtida Temurg'oz alohida hurmat va mehr qo'ygan odamning chirroyli yuzi va ko'rakm soqoli quti ortidagi ro'molga o'xshab mato ortiga yashirindi.

¹ Qur'oni yod biladigan.

² Xudo bergen, ruh orqali hosil bo'ladigan ilm.

³ Suv ichadigan idish.

Keyin quti ichida o't chaqnagandek bo'ldi. Yuqoriga o'ralgan tutun ko'zga tashlandi.

— Bo'ldi, to'ram. Hali bu suratingiz bilan dunyoni zabit etasiz.

— Og'a, surat emas, odam zabit etsa hisob.

Suratkash juda nozik gap qilgan edi. Agar Isfandiyor ana shunaqa ustiga sal-pal maqtov surkalgan gapni eshitsa, darriv "hazm qilib" yuborar, qilni qirq yorib o'tirmasdi. Kichkina to'ra ustidagi harbiy kiyim-katta xonlikdagi boshqa biror bolaning tushiga ham kirmagan kapitanlik mundiri, chiroylı etikchayu bejirim kamarcha, boshidagi dubulg'a, qo'lidagi miltiq suratga ta'sirchan tus baxsh etishini his etdi. Lekin libos libos-da. Uning ostidagi qalbda nimalar borligi baribir aks etmay qoladi. Qolaversa, shu kiyimlarni kiyib yurish uchun ham odamga avvalo sog'lik, umr kerak.

Kichik to'ra harbiy kiyimsiz, ust boshda ham suratga tushdi.

O't chaqnatib surat olib hammaning og'ziga tushgan suratkash Temurg'oziga o'zi bilgan narsalar haqida hikoya qilib berdi. Suratga olish shayton madad bergen ish emas, balki oddiy haqiqat ekanligini, fatoapparatning tuzilishini tushuntirdi.

Bir kuni u "To'ramni gullar yonida ham suratga olsak, xon hazrat ko'rib xursand bo'lardi..." degan bahona bilan Temurg'ozini uyiga olib keldi. Kichkina to'ra bilan kichik yarim qorong'u dahlizdan o'tib, gulxonaga kirishdi. Devoriga ikki tomondan bir nechta derazalar o'rnatilgan bu joyga quyosh nurlari bermalol tushib turardi. Katta-katta tuvaklardagi rang-barang gullarning ko'plari ochilgan. Ko'plari g'uncha tukkan.

Temurg'oz Xorazmda gulning shuncha turi bor ekanligini bilmaganiga ajablandi.

— Bu yerda faqat Xorazm gullari emas, dedi suratkash buni payqagandek, — iqlim sharoiti biznikiga mos keladigan barcha joydan keltirilgan gullar bor. Ularni birma-bir, tuxumidan¹, qalamchadan o'stirganman.

Temurg'oz ochilib turgan gullar yonida suratga tushdi.

¹ Urug'idan.

— Xonani nishatib' bu darajada mo'tadil saqlaysiz, — so'radi u.

Suratkash xonaning to'rida turgan qora rangdagi, lekin turli burama naqshlar o'yib ishlangan va hali bitmagan minoraga o'xshab ketadigan qong'iltir² qurilmaning yoniga olib bordi.

— Buni pech deyishadi. Bizningcha, bir o't yoqsang uyni butun kun davomida qizdirib turadigan o'choq.

Suratkash pechning qopqog¹ini ochdi. Pechning ichida sozoq³ o'tinlar qip-qizil cho'g⁴ bo'lib yonib turardi. Temurg'ozzi o'tga tikildi. O'tin alanga olgani ham, o'chib qolgani ham yo'q. Suratkash kichik bir sozoq bo'lagini olib o'tni astagina kovladi. Keyin uni pechning ichiga tashladi. Alanga gurilladi.

Suratkash pechning qopqog¹ini yopdi.

— Pechni Otto buva qurib berdi. Men ham yordamlashib, o'rghanib turdim. Hozir o'zim ham qong'iltirdan pech yasab, uni istagan joyga qurishim mumkin. Biroz karvich⁵, qum va yaxshi qopqoq kerak.

Keyin ular Otto buva va Oqmachitdagi nemislar haqida suhbatlashdilar.

Suratkash keyinchalik o'zbek kinosining otasi bo'lib tanilgan Xudoybergan Devonov edi.

OQMACHITDA

Kichkina to'rani tabiat qo'ynida kinoga olish istagini bildirmaganida Xudoybergan suratkash Temurg'ozini Oqmachitdagи nemislar qishlog⁶iga olib borishi qiyin edi. Bunday ajoyib bahonani esa nemislar to'g'risida qiziqib qolgan Temurg'ozining o'zi o'ylab topdi. U bosh mahram "kinoga olish" degan gapni tarixda qolish deb tushinishini ham yaxshi bilardi. Demak, u Temurg'ozining tarixda qolishiga monelik qilolmaydi. Unga qo'shilib o'zi ham balki kinoga tushar.

¹Qanday qilib.

²Tunuka.

³Saksovul.

⁴G'isht.

Oqposhsho XIX asming yetmishinchı yillari boshlarida o'z tobelligidagi nemislarni uzoq o'lkalarga badarg'a qilgan va ular Xiva xonligiga ham kelib qolishgandi. Xon o'ziga yo'llangan nomaga amal qilib, ularga shahar va qishloqlardan uzoqdagи dashtda joy ajratib berdi. Xivadan chog'roq o'ttiz chaqirimcha uzoqda bo'lgan Oqmachit qishlog'i shu tariqa ularning makoniga aylandi.

Gullar hidi anqib turgan sof havo, qushlarning basma-bas sayrashlari kishini mast etadi. Temurg'ozi va Xudoybergan suratkash yo'l olis va ancha mashaqqatli bo'lsa-da, toliqish-madi. Ammo, otliq sheriklari terlab ketishganidan hadeb yuzlarini qozoqi ro'mol¹ bilan artishardi. Foytun katta yo'l bo'yiga yetib keldi. Temurg'ozi undan sakrab tushdi-da, tip-tiniq suvga yuzlarini yuvdi. Ko'l o'rtaсидagi qamishzor ichidan bir gala o'rdak osmonga ko'tarildi.

Mahram beixtiyor o'q uzmoqchi bo'lib, miltig'ini osmonga qaratdi. Buni ko'rgan Temurg'ozi uni to'xtatdi.

— Biz ovga keldukmi? — Qolaversa, borayotgan jomimizga ilk salomimizmi bu?

Xudoybergan suratkash kichkina to'raning Isfandiyorxonga emas, Muhammad Rahimxonga juda o'xshab ketayotganligiga tan berdi. Axir u hamma vaqt "Ollo taoloning bandalari singari qushlar ham tamom hisob o'lechovsiz emas, qush ovlasangiz faqat bahorda ovlang", — deguvchi edi. Qushlar qirilsa, odam qirilgani shu, deb hisoblardi. O'zi qush oviga kamdan-kam chiqardi. Bo'ri, qorauloq ovlashni yaxshi ko'rardi.

Suv zumraddek tiniq va toza. Bu ko'l emas, Xivaning buyragi, — o'yladi Temurg'ozi. — Qancha zax va oqava suvlarni tozalab o'zi yana toza turibdi. Suvni toza saqlash an'analarini nemislarni bizdan ham yaxshiroq tutisharkan.

Baland mevali daraxtlar bilan o'rab olingan bog'lar izidan atrofi qal'a bilan qurshalgan qo'rg'on ko'rindi. O'z an'analariga muvofiq nemislarning yetakchisi Otto buva va uning yordamchilari aziz mehmonlarni darvoza oldida quyuq ta'zim bajo qilib kutib olishdi.

Temurg'ozi qop-qora va qattiq yerdan ancha yurib, oyog'iga zarracha chang va gard yuqmaganiga taajjublandi.

¹ Katta ro'mol.

Temurg'ozи hamrohiga yuzlandi. U asfaltning nima ekanligini tushuntirib berdi.

Temurg'ozи baribir hammasini tushunmadi. Axir nega Deshon qal'a ko'chalarining to'piri¹ tizzadan keladi. Asfalt degan narsa esa hech kimning xayoliga kelmaydi?

Xudoybergan suratkash nemischani biroz bilar, Otto buva esa xorazmchani andak yushunardi. Har holda dastlabki uchrashuvdanoq nemis deb aytiladigan, baland bo'yli, soch-soqollari sarg'ish qo'ng'ir, ko'rinishlaridan juda samimiy va bir qadar sovuqqon kishilarning juda mehmondo'stligi ma'lum bo'ldi. Ular mehmonlarni ichkarida katta xonaga taklif etishdi. Bu xona saroyga qaraganda bejirim va mahobatsiz edi. Unda o'zingni xotirjam va qulay sezish uchun imkon ko'pdek tuyulardи.

Temurg'ozи devorlarning suvoqlariga, atrofi ko'kimdir chiziq bilan o'rab olingan g'ishtlarga e'tibor qaratdi. Ular ham go'yo boshqa dunyodan keltirilgандай.

Silliq oynavand romlardan atrofnı kaftdagidek ko'rish mumkin. Oyoq ostiga esa taxtalar shunday zich qoqliganki, go'yo butun bir xonaga bir daraxt taxtasi joylangandek. Temurg'oziga yog'ochdan yasalgan kir yuvish mashinasini, sovutgich asboblarni, vino zavodini ko'rsatishdi.

Billur qadahni lim-lim to'ldirib tutar ekan, Otto buva shunday iltimos qildi:

— Lablaringizni bir tekkizing, to'ram.

— Ma'zur tutasiz, men katta bo'lganimda ham sharob ichmoqchi emasman.

— Bu sharob emas, to'ram. Bu obi hayot. Uni uzum suvi va Xorazmda bor giyohlarning sharbatidan tayyorlaymiz. Kishiga kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Temurg'ozи qadahni labiga tekkizdi. Xushbo'y hid dimog'iga urildi. Qandaydir bir lazzat undan ichga kirishga izn so'raganday bo'ldi. Ammo lazzatda ham me'yor yaxshi. U sharbatdan ozgina totdi. Ko'p o'tmay, taniga bir iliqlik yugurdi. Ruhi ko'tarildi. U boshqa millat vakillarini ham o'zining uzoqdagi qarindoshlariday his eta boshladi.

¹ Changi.

— Yurtni yurt qiladigan ham, dashtga aylantiradigan ham suv, — dedi Otto buva. — Ammo suvdan ham o'lcab, tejab-tergab foydalanish kerak.

— Bizda miroblar hammadan keyin suv oладilar. Agar suv taqsimotidaadolatsizlik bo'lsa ularning o'zlari suvsiz qoladi, — dedi Temurg'ozi.

— Ammo hammasi emasdир, — suhabatga aralashdi suratkash.

— Agar hamma hamadolatli vatadbirkor bo'lganida har bir uyning bo'sag'asigacha oltin bo'lardi.

Temurg'ozi va suratkash Otto buvaning serma'no so'zlariga, buning ustiga xuddi xivaliklardek osoyishta gapirishiga qoyil qoldilar.

Mehmonlar xonning saroyidagi taxtga o'xshab ketadigan, lekin unga qaraganda ancha yumshoq bo'lgan o'rindiqlarga o'tirishdi. Odatda bir qasrda bir taxt bo'lardi. Ularnikida esa har bir mehmonga yetadigan darajada.

Otto buva yana osoyishtalik bilan gapida davom etdi:

— Suv Xorazmnинг kelajagi... Ammo men har yerda obi hayot isrofini ko'rurman.

Nemislar yo'lboshchisining maqsadi sira ham xonlikning ichki ishlariiga aralashish, unga o'z munosabatini bildirish emas edi. Shu sababli u to'radan uzr so'radi. Keyin esa maqsadga ko'chdi.

— Men suv haqidagi gapni to'ramga, suv inshootlarini tiklash, yerlami sug'orish vaqtida nafi tegishi mumkin bo'lgan qurilmalar va asboblarni ko'rsatish ilinjida boshladim. Agar to'ram marhamat qilsalar.

Temurg'ozi va Xudoybergan suratkash qurilmalar hamda asboblarni diqqat bilan kuzatishdi. Otto buva ularni ishlatish, joylashtirish yo'llarini tushuntirib berdi.

— Biz xon hazratlariga, agar lozim deb topsalar, istaganlaricha xizmat qilishimiz mumkin.

— Yordam berishimiz, deyavering, — dedi Temurg'ozi Otto buvaga javoban.

Temurg'ozi Oqmachit qishlog'idan qushdek yengil bo'lib qaytdi. U kimniki bo'lishidan qat'i nazar, bilmaganni o'rganish, bilganini esa o'rgatish faqat yaxshiroq yashashga yordam beradi, degan xulosaga keldi. Ammo

Isfandiyorxon mutlaqo bunday o'ylamasdi. Kelib-kelib shu vatangadolardan yordam olish unga o'limdan battar edi. Shu sababli u Temurg'ozining kuyinib aytgan gaplariiga parvo ham qilmadi.

ARZ SO'RASH

Isfandiyorxon Arkning arzxonasi dagi taxtdan kun bo'yi tushmadi hisob. U arizago'ylarni qabul qildi.

Bobokaloni Muhammad Rahimxon I zamonasidan qolgan gujum yog'ochidan ishlanib, sirti kumush bilan qoplan-gan va islimiy naqshlar bilan sayqallangan taxt mutlaqo benazir. Unda Xiva mamlakatida va unga tobe' barcha muzofotlarda o'suvchi barcha gul va o'simliklar ramzini bir yo'la ko'rish mumkin. Taxtning orqa suyanchig'i madoxil — uchburchak shaklida ishlanib, zardushtiylikning asosiy uch g'oyasi-ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal ustuvorligini anglatardi.

Arizago'ylar ham ko'p bo'ldi. Biri bek va amaldorlar azob berayotganidan nolidi. Yana biri mallak yeriga suv chiqmayotganidan shikoyat qildi. Yana biri xon amri bilan bekor qilingan begor solig'i — davlat uchun 12 kun bepul ishlab berish davom etayotganligini ma'lum etdi. Xon bularning barini diqqat bilan eshitdi. Qozikalonga kerakli topshiriqlarni berdi.

U nihoyat taxtdan tushishga majbur bo'ldi. Hatto boshi qizib ketib, jig'ali telpagini qo'liga olib, qaytadan kiydi. Mang'itdan kelgan bir zargar va o'g'li uni shu kuya ga solishdi.

Yoshi ellikdan oshgan bo'lishiga qaramasdan, soch-soqoli batamom oqarib ketgan ota xonga qarab iltijo qildi:

— Xon hazratlari, yordam bering... O'g'limni qutqaring!
— Ne gap??

Zargar javob o'miga piqillab bir yig'lab oldi-da, o'g'lining yaktagini yechdi.

Ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan manzara paydo bo'ldi. Bolaning qo'llari yo'q. Ularning o'mi sip-silliq.

Isfandiyorxon o'ylanib qoldi. Ko'zlariga ishonmadi.
— Qo'lsiz tug'ilganmi?

— Hovvo. Shuncha yil yashirib yashadim. Endi chiday olmayman, onasi qisini o'lib ketdi.

Isfandiyorxon nima deyarini bilmadi. Axir nima deb bo'ladi. Bunday mo"jizani ko'z ko'rib, qulog eshitmagan.

Xudoning jazosi bo'lsa kerak deya sukunatni buzdi zargar.

— Nega bunday deysiz?

— Axir oltin bilan ish yuritaman, ozmi-ko'pmi gunohga botgan bo'lsam kerak.

Bu gap xonga andak tegib ketdi. Lekin zargarning samimiyligini, uning boshqa birovga ilashgidek holi yo'qligini sezib indamadi. Faqat gapni boshqa yoqqa burdi.

— Sharobga tobining qalay.

— Andin ham andak bor.

— Bu ish faqat yaratganning irodasi ila bo'lur. Bandai ojiz bunday holatlarda yana ham ojizroqdur.

— Sizni xudo yarlaqasin hazratim. O'g'limni o'ris do'xtirlarga ko'rsataylik. Ular o'likni ham tiriltirishadi deyishadi.

Isfandiyorxon o'midan qo'zg'aldi. Endi bu gap haddan oshiqcha bo'ldi. Yo'jni kim bor qila oladi. O'risning shoxi bormi?

— Xudoning yoqasiga yopishmang. Taqdirga tan bering. Xudo shu o'g'ilni ham bermasa nima qilar edingiz?

Zargar bermagani yaxshi deb aytolmadi. Noiloj arzxonadan chiqdi. Isfandiyorxon o'z qo'li bilan yasagan qilichni shu bugun Temurg'oz to'raka topshirmoqchi edi. Kayfiyatib buzilib bu ishdan voz kechdi.

UCHRASHUV

Turkiston general-gubernatori Samsonov Xivaga yo'llagan Sirdaryo muzofoti gubernatori general Galkin boshliq oliy martabali mehmonlarni Chorjo'da kutib olish uchun hazrat xonning o'zi, vaziri akbar Islomxo'ja hamda Temurg'oz to'ra bu yerga ancha barvaqt yetib kelishdi. Ularning uchalasi ham harbiy kiyimda. Polkovnik mundiri Isfandiyorni bir qadar salobatli ko'rsatsa-da, xonning kichkina boshi, salqigan yuzlari, xavotir va hadik to'la ko'zları,

har qanday libos va unvon ham hamma ishni qila olmasligidan, imkon darajasidan yuqori bo'lolmaslikdan darak berib turardi.

Islomxo'janing ham aslida harbiy odam emasligi ko'rinib tursa-da, baribir, unda ulug'vorlik va sipolik, farosat, zakovat, har qanday masalaning turli jihatlari yuzasidan bellasha oladigan vajohati ko'zga tashlanib turardi. Har holda u o'zidan bir necha qadam oldinda, bir qo'lidagi qamchining dastasini otning yog'irnisiga botirib, yana bir qo'li bilan iyagining har yer, har yerida usib turgan juda ingichka va sarg'ich tuklarni tutamlab turgan kuyoviga o'xshamaydi. U qop-qora quyuq soqolini deyarli ushlamasdi. Ammo gohida musht qilib tugilgan qo'lini yuziga tekkizib xayol surib olardi.

Temurg'ozi kapitanlik kiyimida. Bu kiyimni Isfandiyorxon Peterburg safaridan, oqposhsho inoyati bilan unvon olgan o'g'liga olib kelgan. Grenayder polki mundiri kichkina to'raga juda yarashib tushgan. Boshidagi o'tkir uchli dubulg'a go'yo uning yaqin kelajakda butun xonlik ufqlariga nihoyasiz shitoblarda singib ketishidan darak berayotganday. Yonboshida yerga tegay-tegay deb turgan zarhal qinli qilichi quyosh nurida tovlandi.

Temurg'ozi Chorjo'dagi sarkash turkman urug'larining boshliqlariga o'zini ko'rsatish uchun kelmagan, albatta. Qolaversa, takas yovmutlar uchun vahima degan narsaning o'zi yo'q. Uni shunday kiyinishga otasi da'vat etgan. Chunki xonga general Galkin o'zi bilan o'g'li Eduardni ham olib kelayotgan mish, unga Xivani ko'rsatarmish, degan xabar kelgan. Isfandiyor "bir shu kamlik qilayotgan edi" deya qahr otiga minsada, tezda qo'ydek yuvoshib qoldi. Axir Galkin-Oqposhsho vakili.

Shu o'rinda Galkin tashrifining boisi haqida biroz to'xtalib o'tish o'rinli ko'rindi. Isfandiyorxon bir yilcha ilgari Peterburgda Oqposhsho bilan uchrashganida o'z yurtini uzoq ta'rif-tavsif etdi. Oliy hazratning marhamat qilib Xivaga tashrif buyurishlarini ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib so'radi. Janub havosi, Xorazmning shirin-shakar ne'matlari, shahzoda Aleksey dardiga shifo bo'lishni qayta-qayta ta'kidladi. Oqposhsho bu taklifdan mamnun

ko'rinib va minnatdorchilik bildirib "o'ylab ko'ramiz" dan nariga o'tmadı.

Isfandiyorxon esa, Oqposhsho o'ylab ko'rib, Xivada shahzoda Aleksey nomiga kasalxona qurilganini ham hisobga olib, hech bo'lmasa o'g'lini bir yuborib olar, deb umid qildi. Shunda g'animlarim bag'riga o'q qadaldi, deb o'yladi. Ammo hamma narsa boshqacha tus oldi. Oqposhsho ham, shahzoda ham, hech bo'lmasa Turkiston hokimi Samsonov ham kelmaydigan bo'ldi.

Buning ustiga xonlikning ichida, saroy hayotida ixtilof va adovatlar avj nuqtasiga ko'tarildi. Bir tomonda vaziri akbar Islomxo'ja, bir tomonda butun mamlakat bo'ylab ildiz yozgan, hatto Turkiston hokimi bilan bog'langan Matmurod devonbegining o'g'illari... Xon ikki o't orasida qolib, "oyog'ini kuydirdi". U safarda bo'lganida isyon chiqishiga oz qoldi. Vaziri akbar nobakorlarga qaqshatqich zarba berdi. Isfandiyor Matmurod devonbegining uch o'g'lini ham qamoqqa tashlatdi.

Xonlikda Islomxo'ja ta'siri tufayli yuz berayotgan "uyg'onish" alomatlaridan sarosimaga tushgan Turkiston hokimi o'z vakiliga aynan shu "Xivani tinchitish" vazifasini topshirgan edi.

Temurg'ozni Eduardni tanimasdi. Ammo shahzoda Alekseyning otasi Peterburgdan olib kelgan suratlarini ko'rGAN. Issiqliqligi, juda farishtali bolaning dilkash va samimiy ekanligini sezish qiyin emas. Uning ko'zlarida kibr va shumlik alomatları yo'q. Aksincha, qandaydir mung va anduh belgilari seziladi. Kimsan Mag'ribu Mashriqqacha behudud kengliklar bo'ylab cho'zilib ketgan Rusiyani va unga tobe Xiva kabi necha-necha xonliklarni o'zining kichkina barmog'ida aylantirib, boshqarib o'tirgan Oqposhsho ko'zining oqu qorasini bo'lgan bolaga nima yetishmas ekan?! Balki uning ham o'zinikiga o'xshash dardu g'amlari bordur. Balki uni ham zaharlab, dorilbaqoga safarini tezlashtirishga orzumand oqbilaklar topilib qolar. Ehtimol shu tufayli u go'dak yoshidan kasalga mubtalo bo'lgandir. Temurg'ozni generalning o'g'li ham shahzodaga o'xshasa kerak deb o'yladi.

Poezd kutib oluvchilar oldida to'xtadi. Dastlab undan

salobatli harbiy kiyimdag'i bir necha odamlar tushishdi. Keyin sariq rangdagi har xil asboblarni ko'targanlaricha oddiy askarlik kiyimidagi kishilar tushib chekkaroqda saf tortishdi. Ko'p o'tmay, ular o'sha sariq asboblarini og'ziga olib borib puflay boshlashdi. Tevarak-atrofnı larzaga keltir-guvchi sadolar yangradi.

— E, bular musiqachilar, musiqa dastasi ekan-ku, — o'yadi Temurg'ozi, — hoynahoy o'zlarining "Xon chiqari"ni chalishayotgan bo'lishsa kerak.

Kuy tingach, poezdning o'rtasidagi, chiroyli bezatilgan, o'ris alifbosida yozuvlar bitilgan va ikki boshli burgut surati aks ettirilgan vagondan harbiyi hamrohligida general Galkin, keyin Temurg'ozi singari kapitan kiyimidagi Eduard tushdi. Isfandiyorxon general bilan qo'l olishib, quyuq so'rashib bo'lgach, martabali yosh mehmonni bag'riga bosdi, peshonasidan o'pdi.

Eduard haqiqatan ham suratdagi shahzodaga o'xshardi. Unda ham dard asoratlari o'zidan darak berib turardi. Oq yuzlari kasalligi tufayli battar oqargan, qoni qochgan. Agar egnidagi qimmatbaho kiyimlari bo'l maganida, u shu vagon-da kelmaganida, Ichon qal'adagi bolalardan ko'p ham farq qilmasdi. Qora soch, qora ko'z. U farishtali va samimiyl edi. Ko'zlaridagi mung ham o'sha-o'sha.

Eduard xonlikdagi boshqa amaldorlar bilan ham ko'rashib hol-ahvol so'rashsa-da, baribir ko'zining bir qiri bilan kimnidir izlagandek edi. U Temurg'oziiga ko'zi tushishi bilan quvnab ketdi.

— Salom, tengdosh do'stim, — dedi u to'raga qo'l uzat-gancha. Aftidan, u Temurg'ozi haqida eshitgan. Balki suratini ko'rgandir. Axir otasi uning suratini Peterburgga olib bor-gan.

Eduard xorazmchani bilmasdi. Ammo Temurg'ozi ruschani Islomxo'jadan bir-ikki saboq olganligi tufayli, ozmi-ko'pmi tushunardi. Bir amallab u ruscha javob qaytardi.

— Salom, shtabs kapitan. Xush kelibsiz!

Rus generalining o'g'li va kichkina to'ra Chorjo'ydan Xivagacha Isfandiyorxonga Oqposhsho sovg'a qilgan kare-tada yonma-yon o'tirib kelishdi. Ro'paradan ko'zoynak taqqan tarjimon ham joy oldi.

QO'CHQOR URISHTIRISH

Kun osha Temurg'ozi bejirim va shinam kasalxonaga borib turardi. Shahzoda Aleksey nomiga qurilgan bu shifoxonada Eduard dam olayotgan edi.

Eduard yotgan palata juda katta bo'lmasa-da, orasta va ko'r kam. Unda ikki rang oqlik va yashillik hukmron. Gullarning yashilligiyu divanlardagi choyshablarning qorday oppoqligi ko'zga cho'g'day bosiladi. Ko'ngilni ochishga chog'langan qandaydir bir uyg'unlik kasb etadi.

Temurg'ozi Xivada ham hech narsadan mutlaqo kamchiligi bo'lmasa-da, baribir yurtini, ota-onasini, o'zining yaqinlarini sog'inayotgan Eduardga ozmi-ko'pmi qadrdonlari o'miga o'rinni bo'lib turishga harakat qildi.

— Bilasizmi, — dedi u bir safar yuzlarida janub quyoshining tafti o'z aksini ko'rsatayotgan Eduardga qarab, — men sizga masxarabozlik o'yinlarini, qo'chqor va it urishtirishlarni ko'rsataman.

Eduard bu gapga qiziqib qoldi.

— Ular maxsus urishtiriladimi? — so'radi u Xiva qo'chqorlari haqida ma'lumot olgach.

— Ha-da. Oldin ular yaxshilab boqib semirtiriladi. Keyin mashq qildiriladi. Qo'lga kalla tashlaydigan bo'lishadi.

— Undan keyin-chi?

— Keyin to'y va sayllarga, katta maydonlarga qo'yib yuboriladi. Shunday urishishadiki, birisining shoxi sinib yiqilgan vaqtida, egasi olishuvni to'xtatib qo'yishmasa, o'lib qutulishadi.

Kasalxona mutasaddisi kichkina to'raning iltimosi bilan Eduardga darrov ruxsat bera qolmadi. Har xil bahona-boislarni shunday yumshoqlik bilan aytdiki, Temurg'ozi ilojsiz qoldi. Aslida u kattaroq odamdan — xonning o'zidan iltifot va marhamat kutardi. Shunday bo'ldi ham. Oqposhsho generalining o'g'lini yoniga olib o'tirishni, bu bilan sarkarda hazratlari bilan naqadar yaqinligini ko'z-ko'z qilishni istab qolgan Isfandiyorxon Matjon to'raga o'g'lining sunnat to'yini tezlatishni maslahat berdi. Shifoxona mutasaddisi ham xonning marhamatiga sazovor bo'ldi.

Eduard shaxsan xonning general otasining o'rtasida

o'tirib, o'zini ancha behuzur sezdi. Chunki son-sanoqsiz odamlar to'plangan katta to'yda o'rtaga tortilgan yuz xildan ziyod taomning hididan ham bo'kib o'lish mumkin edi. Buning ustiga uchi-qiri ko'rinmaydigan mulozomatlar, takalluflar ham bora-bora masxarabozlikka o'xshab tuyulardi.

— Hazratlar, — dedi Eduard dastlab otasiga, so'ng xonga yuzlanib, — menga ruxsat bersangiz Temurg'ozi yonida bo'lsam.

— Bu yer yomonmi, janobi kapitan, — so'radi xon mayin takalluf bilan.

— Yo'q, aslo. Ammo Temurg'ozi menga qo'chqor urishtirishni ko'rsatmoqchi edilar.

Shunda Islomxo'ja gapga aralashdi:

— Oliy martabali kichik mehmonimiz kattalar oldida o'zining zavq-shavq va quvonchlarini oshkora izhor etishga istihola qilmoqdalar.

Vaziri akbarning gapga suqlishidan xon andak g'azablandi. Ammo buni bilintirmadi. Eduard va general Galkin esa Islomxo'janing vaziyatni yumshatish uchun qilgan harakatidan mammun bo'ldilar.

— Janob kapitanning istaklari biz uchun qonun. Ko'ngillari qayerni tusasa shu yer ularga muntazir, — dedi xon avvalgidan ham yumshoq ohangda.

Masxarabozlik tomoshalari tugab, qo'chqor urishtirish boshlangan edi. Eduardning kutilmagan tashrifidan dovdirab qolgan to'ravachchalar qo'chqorlar bir-biriga har kalla urishtirganda qichqirib turishini ham unutishdi. Temurg'ozi esa hayrat va zavq-shavqini beg'ubor kulgusi bilan yanada kuchliroq izhor eta boshladи. Eduard ham unga qo'shildi. Go'yo ikki jilg'a qo'shilib katta irmoq hosil bo'lgan-u u sharqirab oqayotgandek edi.

Xayrlashish oldidan Eduard Temurg'ozining qo'lini qat-tiq qisib minnatdorchilik bildirdi:

— Bugungi kun ajoyib bo'ldi, rahmat. Qo'chqor urishtirish haqiqatan ham qiziqarli ekan. Anovi oq qo'chqorchi? Ko'k qo'chqorni qanday yiqitdi-a. O'midan qo'zg'ololmay qoldi bechora.

— Kelgusi safar balki ko'k qo'chqor g'olib kelar.

Qo'chqorlar urishaverishsin. Ammo hech vaqt odamlar urishishmasin. Bizning harb ilmidan o'rganganlarimiz hech vaqt kerak bo'lmay qolsin.

Eduard jim qoldi.

Unga ham Temurg'ozi singari, katta odamlar o'rtasidagi ko'p nosamimiy munosabatlar, mustamlaka siyosati xaqida-gi o'yuu hayollar ham yot edi.

MUROSAI MADORA

General Galkin Nurullaboy saroyini ancha maqtadi. Uning aytishicha, bunday hashamatli imorat O'rta Osiyo hududida kamdan-kam. Ichon qal'ani inobatga olmaganda albatta. Unga ayniqla kaminlar ma'qul bo'ldi.

— Saroy har qancha salobatli bo'lmasin, — dedi u ohista kabob chaynar ekan, — Agar uni qizdiradigan, rangini ochib turadigan kamin bo'lmasa saroy saroy emas.

O'ris mehmon katta kaminlarni ko'p ko'rgan. Lekin Nurullaboy unga ancha bejirim va sodda tuyuldi. "Xuddi o'zları kabi, — xayolidan o'tkazdi u, — hamma narsa ochiq va oydin".

General ortiqcha xayollardan voz kechdi va asta-sekin maqsadga ko'chdi.

— Siz janobi oliylari hamma tan bergulik bir ish qildingiz, — dedi u Isfandiyorxonga qarab. Ota-bobongiz bor kuchini Ichon qal'aga sarflashdi. Siz Deshon qal'adan ham deshonda...

General shu joyda to'g'ri aytdimmi degandek jilmayib mezbonlarga tikildi.

Uning haq rost, degan gapini bosh mehtar va qozikalon ma'qulladi.

— Aynan deshonda qasr bunyod etib kuch-qudratingiz chegara bilmasligini namoyish etdingiz.

Aslida bu tili boshqayu dili boshqalikdan boshqa narsa emasdi. Galkin xonlikdagi parokandalikni bartaraf qilish zarurligini Isfandiyorxonga yakkama yakka suhabatda xo'p tushuntirdi. Lekin ziyofatda u avval kuch-qudrat chegara bilmasligidan so'z yuritdi. Bu generalning eng sevimli yurishlaridan biri edi.

Isfandiyorxon yakkama yakka suhbatdagi andak betakalluflikni yoddan chiqarishga, mehmonning lutfini xushnudlik bilan qabul qilishga intildi.

Islomxo‘janing esa ichidan zil ketdi. O‘ris mehmonining niyati yaxshi emas. U xonlikdagi vaziyatni battar chigal-lashtirib, faqat tizginini qo‘ldan chiqarmay ketish istagida eganligini yaxshi anglatdi.

General so‘z asnosida shunchaki bir aniqlik kiritdi.

— Beayb parvardigor. Xato har kimdan ham o‘tur.

— Ha, hammamiz ham xom sut emgan bandalarmiz.

— Ha, aynan shu xom sut qilmaydigan ishingni ham qildiradi, — Isfandiyorxonning gapini kulgiga burdi general.

— Sizda dushman yo‘q hisobi janobi Isfandiyorxon. —

O‘ylaymanki, siz yaqinda hibsga olgan amaldorlarni ozod etasiz. Bu murosasiz do‘stlarni murosaga keltirish o‘z qo‘lingizda.

— Isfandiyorxon gap Matmurod devonbegining sarkash o‘g‘illari haqida ketayotganligini tushundi. Ular xonga qarshi chinakam isyon ko‘tarishgandi. Davlat to‘ntarishi qilishlariga oz qoldi. Xon ularni qatl qildirib yuborishi hech gap emasdi. Lekin buning oqibatidan qo‘rqdi. Aslida shunday qilgani ham durust ekan. Bugun o‘ris to‘raning yarim yashirin taz‘yiqi ostida ularni ozod qilishga majbur bo‘lib o‘tirmasdi. Aftidan, devonbegining odamlari vaqtini bekor ketkazishmagan. Ular mamlakat ichkarisida hech ish qila olishmagach, Oqposhsho noiblariga yuzlanishgan. Natija esa endi ma‘lum. Oqposhsho tarozining xonning foydasiga o‘ynab ketgan pallasini biroz, yerga tushirib qo‘ydi.

AMUDARYODAN POEZDDA

General Galkin va uning o‘g‘li qanday izzat-ikrom bilan kutib olingen bo‘lsa, shunday hurmat bilan kuzatib qo‘yildi. Isfandiyorxon hatto Temurg‘ozining aziz mehmonlarga hamroh bo‘lib Farobgacha borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘yladi.

Xususan, Oqposhsho vakiliga bu ishning sira ahamiyati bo‘lmasa ham qolaversa, u bu xonning fikri ojizi mahsuli emasligini bilsa ham, e’tibor uchun o‘zi va o‘g‘li nomidan

yo'liga minnatdorchilik bildirdi. Lekin janub quyoshi, yaxshi parvarish va sidqidildan qilingan muolajalar yuzlariga toza qon yogurtirgan Eduard xonning marhamatidan xursand bo'ldi.

Temurg'ozi "o't aravani"¹ ilgari bir marta, otasini Peterburgga kuzatish vaqtida ko'rgan. Ammo ichiga minib ko'rmagan. Bugun unga kapitanlik libosi ham kichik boladek quvnashga halal berolmadi. U Eduardning ro'barasida, taxta o'rindiqda o'tirib derazadan ko'zini uzmasdi. Axir o't arava shuncha odamni mindirib, qancha-qancha yukni ko'tarib, har vaqt-har vaqt g'alati hayvonnikiga o'xshatib bo'kirganicha, yo'lni ko'rdim demay bosib bormoqda. Daraxtlar, simyog'ochlar lip-lip o'tib turadi.

— Hozir daryodan o'tamiz! — xitob qildi Eduard.

Temurg'ozining yuragi jiz etib ketdi.

U Amudaryoni hech vaqt shunchaki "daryo" deb aytolmagan bo'lardi. Uning to'lqinlarida goho "Lazgi", goho "Segoh" dagi singari ko'ngil ilg'ab oladigan, lekin til so'zga aylantira olmaydigan qandaydir sirlar bor. Mana hozir ham u sho'x va mayin. Ammo bir lahzada mungli va hazin ohangaga do'nishi² mumkin. Har holda Amuning ohanglari Temurg'ozining ko'ngliga yaqin.

Eduard daryoning ikki qirg'og'ini mahkam ushlab, sira yubormayman deb turgan temir ko'priq haqida gapira boshladi.

— Temurg'ozi, buni o'n yilcha ilgari qurishgan.

Ko'priq kim qanday maqsadda qurilganidan qat'i nazar, juda ajoyib edi. U go'yo yaxlit po'latdan qo'yilgandek. Biror joyida tayanib turadigan ustunlari ham yo'q.

Temurg'ozi ham juda hayratlandi.

— Qurganning — dedi u, — umrlari ziyoda bo'lsin. Bobom rahmatlik, ko'priq qurish eng savoh ishlardan biri, derdilar.

Temurg'ozi Xivaga bir kundan keyin qaytib keldi.

¹Poezd.

²Aylanishi.

XIVANING BOZORI

Xivaning bozorida savdogarlar, baqqollaru bazzozlar, mevafurushlar molni sizga maqtab-maqtab sotishadi. Shunday joningizga kirib ketishadiki, olganingizni bilmay qolasiz.

Ammo molni aytilgan bahoga darrov sotib olib ketaversangiz ular qattiq xafa bo'lishadi. Bu xaridor qanday odam o'zi, bir og'iz gaplashmadi ham, nima balo soqovmi, deyishadi. Ko'ngli nozikroqlari esa shunday paytda, baribir olib ketaman degan narsangizni qo'lingizdan tortib olib, "Senga sotmayman" deyishadiyu sababini tushtuntirishmaydi.

Xivaning bozorida avvalambor savdogar bilan hol-ahvol so'rashib olish kerak. Shunday qilinganda, oluvchi va sotuvchi qarindosh chiqib qolmagan hollar kam bo'ladi.

Bu bozorda nima yo'q deysiz, odamning jonidan boshqa hamma narsa topiladi. Yangina ovlab kelingan sulgunu qashqaldoqdan¹ tortib, qafasga solib qo'yilgan yashil va qizil rangli, mushtdekkina to'tiqushgacha bor.

G'ij-g'ij olomonni shu yerda uchratasiz. Go'yo hamma bozorga ko'chib kelganday.

Temurg'ozi ikki mahram kuzatuvida bozorga bordi. Unga aslida hech narsa zarur emas. Xonning o'g'li nima ham sotib olardi. Ammo bu "qaynab turgan qozon"da o'ziga xos shovqin-suron, shiddatni yoqtirardi. Xalq degan so'zning oddiy so'z emasligini u shu yerda his qilardi.

U qovun-u zamcha sotayotgan ayolning yonidan beparvo o'tib ketolmadi. Ayol norasta go'dagini bag'riga bosib, xo'rsinib o'tirardi.

— Assalomu alaykum, xola! Qovunlaringiz nerniki?²

Ayl bolaning qo'ng'iroqday ovozidan hushyor tortdi. Unga bir tikilib, o'midan qo'zg'almoqchi bo'ldi. Axir buncha o'ktam bola to'ralarda bo'lmasa yana kimda bo'ladi? Yonboshida qorovullari ham bor.

— Qo'zg'almang.

— Raponikniki.

¹ Handalak (zomga).

² Qayerniki.

— Shu qishloqning qovunlari mazali bo‘ladi, deb eshitganman. Kam sug‘orib o‘stirishadi. Nadan¹ deysiz?

— Nadan bo‘lardi, bolam, ko‘nglingizga tushganidan.

— Yaxshi. Raponikda onamning qarindoshlari bor.

Ayol Isfandiyorning fe’lu atvori o‘zinikiga o‘xshamagan to‘lato‘qdan kelgan o‘g‘li bor deb eshitgandi. Bu bola tag‘in o‘sha bo‘lmasin deb o‘ylab “falon puldan” deb yubormaganiga suyundi.

— Xola, hammasini olamiz.

Mahram ayolning oldiga bir nechta oltin tanga tashladi. Ayol bunday tangalarni hech ko‘rmagandi. Ikki soqchi o‘nga yaqin qovunni ayolning eski qoplariga solib orqalab ketma-guncha, u sholchadagi tangalarni olishga ham jur‘at etolmay turdi.

Temurg‘ozi yo‘lni qush bozoriga burdi. Mahramlar uning izida orqalarida xalta bilan halloslab borishdi. Xon ham ularni kunda bir necha marta o‘lib-tirilishiga majbur qilardi-yu, lekin bunday ahvolga solmasdi.

U kaptarfurush bilan hol-ahvol so‘rashib, adi-badi aytishib o‘tirmadi. Ko‘zları miltillab turgan oppoq qushni hech narsa demay uning qo‘lidan oldi. Puli ham shu zahoti to‘landi.

U kaptarlarni qafasga soladigan yoki uning qanotlarini mahkam qisib xaridor qidiradigan kishilarni yoqtirmasdi. Onasi unga “kaptarda pari bo‘ladi, uni tutqunlikda saqlash gunoh” deb aytgan.

Bozordan chiqar-chiqmas u qo‘lidagi qushni qo‘yib yubordi.

ISLOMxo‘JANING O‘LIMI

Temurg‘ozi to‘ra hazrat bobosi Muhammad Rahimxon Feruzning vafotiga endigina ko‘nikkan, taqdir ekan, o‘lganning izidan o‘lish yo‘q, degan gaplarning ma’nisini tushuna boshlagan edi. Darhaqiqat, o‘lim hammaning boshida bor. Marhumning ruhi chirqiramasligi uchun, uning yaqinlari sog‘-salomat bo‘lishlari kerak. Ammo bir

¹ Bahosi qanchadan.

shum xabar, bir soat ichida yuz bergen voqea, uning butun hayotini ostin-ustin qilib yubordi. Hamma ma'nili gaplarni bema'ni qilib qo'ydi. Unga hayot hech qanday qonun-qoidaga bo'ysunmaydiganday tuyuldi. Bu voqea vaziri akbar bobosi Islomxo'janing o'limi bo'ldi. Bu oddiy o'lim emasdi. Bu uzoq yillar qayerlardadir berkinib yotgan o'lim ajdarhosining nogohoni hamlesi bo'ldi. Shu bir hamla nafaqat Temurg'ozini, butun Xivani larzaga soldi. Go'yo bir zilzila yuz berib bir insonni u bilan birga xonlikdagi ma'naviyat va ma'rifatni yer yutib ketganday tuyuldi. Boshqacha qilib yoki to'g'risini aytganda vaziri akbarni kuppa-kunduz kuni nobakor kimsalar chavaqlab, qonini chag'ir toshlarga oqizib ketishibdi. Buni qanday baholab, qanday ta'riflab bo'ladi. Axir butun arkoni davlatning aksariyat erk ixtiyori o'zida bo'lgan ulug' amaldorni kim shunday kuyga solishi mumkin? Bu savol o'z javobini tez topdi. Xonning o'zi qaynotasini bir yoqli qilganligini ko'pchilik tushundi. Temurg'oziga bu haqda kim oshkor aytaladi. U busiz ham ulug' bobosining o'limidan keyin bir o'lib tirilgan. Kichkina to'raning faryodi butun Ichon qal'ani tutdi. U Toshhovli saroyida u yoqdan bu yoqqa zir yugurat ekan. Xudoga iltijo qilardi. «Parvardigori egam mening jonimni olsang bo'lmasmi-di?!»

Temurg'oz to'ra saroydan yugurgancha chiqib, Deshon qal'adagi kambag'al kosiblar mavzesi tomon intildi. U Baxtudavlatni, uning otasini ko'rishni istadi. Cho'girmado'z uni ko'zida yosh bilan qarshi oldi, bag'riga bosib ho'ng-ho'ng yig'ladi. Ularga Baxtudavlat ham kelib qo'shildi. Yig'i yanada kuchaydi.

— Siz nega yig'larsiz? — dedi Temurg'oz ko'z yoshlarini artar ekan cho'girmado'zga qarab.

— Islomxo'ja hazratlari sizning bobongiz bo'lsalar, elning otasi erdilar. Biz xivaliklar endi hammamiz yetim goldik.

Oraga sukunat cho'kdi. Ko'zlarda yosh ko'rinsasa-da, ko'ngillar faryod chekardi.

— To'ram, endi sizga umr bersin. Yolg'iz umid sizzdan. Otangiz xon hazratlari yo'lidan ozdilar.

— Nahotki siz ham otamni aybdor desangiz.
— Men hech kimni aybdor sanamayman. Lekin ulli yurt-da shunday qotillik yuz bersa buni xondin so'ramay kimdan so'raydilar.

Temurg'ozi to'ra chuqur nafas oldi. U ikki o't ichida yonardi. Bir o't jizg'anak qilsa, yana biri kulga aylantirardi.

Baxtudavlat jo'rasini bag'riga bosdi.

— Yuring, Ro'ska onamiznikiga boraylik. Uning dardi biznikidan ziyoda. Hikoyatlarini eshitamiz.

— To'g'ri aytasiz, biz shu ayolni unutdik hisob.

Ular Deshon qal'adan ham deshonga yo'l oldilar.

IZTIROB

Temurg'ozi Baxtudavlat bilan Ro'ska xotinnikiga yana bordi. Uning uyi endi ancha-muncha odam yashaydigan joyga o'xshab qolgandi. Kichkina qumg'onda choy qaynab turar, dasturxonda esa zirali non, qand-qurs bor. Bularning hammasi bosh mahramning ishi. Temurg'ozi unga hech bir yaxshilik mukofotsiz qolmasligini, bola-chaqasiz benavo kampirga yordam berish katta savob bo'lishini astagina ship-shigandi.

U, xon hazrat o'g'lini ostirib yuborgan, Ro'ska xotin nomini eshitishi bilan yuragi qinidan chiqayozdi. Ammo Temurg'ozi shunday bo'lishini oldindan o'ylab, gapni hozirlab qo'ygandi.

— Xon hazrat agar xabar topsalar Sizning bu ayolga emas, balki menga ko'rsatgan iltifotu sadoqatlaringizdan xabar topadilar.

Bosh mahramning ko'zi joyiga tushdi. Ammo bu ko'z juda och edi. Uning nafsi oldiga yana bir luqma tashlash sira ham zarar qilmasdi.

— Axir qachongacha meni qorovullab umringiz o'tadi? Siz saroya munosibsiz. — Temurg'ozi shu gap bilan bosh mahramning kallasini oldi. Bu kallani yana joyiga qo'ygan-dek qilib, bir gap aytdi.

— Qolaversa, siz kampirga yordamni ham to'g'ridan-to'g'ri o'z qo'lingiz bilan qilmaysiz-ku. Kim ko'p, sizning xotin qavmingiz ko'p.

Bosh mahram “Shu bola o‘lmasa xon bo‘ladi, men o‘lmasam, vazir bo‘laman” deb o‘yladi o‘zida yo‘q quvonib. Keyin u ishni ko‘ngildagidek qildi. Faqat kampirning endi ko‘rmay qolgan ko‘zlariga chora topolmadidi.

Ro‘ska xotin bolalar — o‘sha farishtalar, degan xayolga qaytgan va bu xayoldan ayrilmaydigan bo‘lib qoldi. Axir bir kelib-ketishdi-yu hamma narsa o‘zgardi qoldi. Odamlar holidan xabar olishadigan, umrida og‘zi ko‘rmagan taomlardan tatiyidigan bo‘ldi. Kampirning tishiga qoyim¹ edi, deb bir yerdarda go‘mma-barak² ham pishirilib keltiriladigan bo‘ldi. Axir farishta shundan ortiq bo‘ladimi? Lekin u ko‘p yillar davomida aytib kelgan va tili o‘rganib qolgan o‘sha xirgo-yisini qo‘ymas edi.

Ammo voqealar kichkina to‘ra “bashorat” qilganidan sal boshqacharoq tus oldi. El og‘ziga elak tutib bo‘lmas ekan, isyonkor shoirning onasiga iltifot bosh mahram tomonidan qilinayotgani baribir ma’lum bo‘ldi. Lekin hech kim Temurg‘ozidan gumonsiramadi. Balki bosh mahramning xonda xusumati bo‘lsa kerak, deb shubhalana boshlashdi.

“Eh, xomkalla, xon saroy xodimini shuncha aqlavvallari turib, shu ona suti og‘zidan ketmagan bolaning maslahati bilan tayinlarmidi? Axir kimni bo‘shatib o‘rniga meni qo‘yadi. Shu bo‘shatiladigan odam oldin mening surobimni to‘g‘rilab qo‘ymaydimi?” Bosh mahramning peshonasidan potirlab ter chiqib ketdi.

Temurg‘izi bosh mahramni xon oldida maqtab qo‘yishga qulay bir imkon topolmagandi. Imkon topganda, Isfandiyorxon kayfiyati yaxshi bo‘lsa, xizmatkorini yorliqashi ham mumkin edi.

Dahshatga tushgan bosh mahram yomon shumlik o‘yladi: “Shu kampirni oradan daf etsa nima qiladi? U “go‘mma tishiga qoyim emish” degan gapni xayolida biroz tutib turdi. Keyin manglayidagi yig‘iriqlari³ yozildi. U osh-paz cho‘risiga kampirga har qachongidan ham yumshoq xamirdan tayyorlangan so‘lli⁴ go‘mma olib borishni qattiq tayinladi. Keyin qo‘liga bir nima berdi.

¹ Mos.

² Chuchvara.

³ Ajinlari.

⁴ Saryog‘.

GO'MMADAGI ZAHAR

Temurg'oz Ro'ska xotinga gul sharbatidan olib keldi. Buni saroyda kunda ichishadi va quvvatni oshiruvchi hamda ko'zni ravshanlantruvchi yaxshi vosita deb hisoblashadi.

Ro'ska xotin "farishta" — bolalarni bu safar osoyishta qarshi oldi. Ko'zlar deyarli ko'rmay qolganidan ularning boshlarini, yuzlarini qo'llari bilan siladi.

— Iloho, omin, — dedi u sharbatdan bir xo'plam yutarkan. — Hamisha pirlar yoringiz bo'lsin. Iloho, jannatiy bo'Igaysiz...

— Jannatga hali erta, enajon, — dedi Temurg'oz kulim-siragancha.

— Hech kim o'lish vaqtini oldindan bilmaydi. Men bundan ko'p vaqt burun endi o'ldim degandim, ammo hali yashayotirman. O'lim shunday yonboshimdan o'tib turardi-yu, menga tegmaydi. Ammo yaqinda chindan ham o'lsam kerak. Xudo sizlarning umringizni uzun qilsin.

Temurg'oz va Baxtudavlat kampirning fikri ancha tiniqlashib qolganiga suyunishdi.

— Menga yaqinda go'mma keltirishdi. Issiq vaqtida sizlar yeb olsangiz... men keyin yerman.

Ro'ska xotin dasturxon chetidagi tovoq ustidan sochiqni¹ ko'tardi. Kichkina-kichkina qilib bukilgan va ichidagi ijoni² ko'pligidan shishib turgan go'mma bolalarning ko'zini qizdirdi. Ular bir-birdan olishdi.

Ikki buklab og'ziga tiqilgan go'mmalarni chaynab yutishlari bilan bolalarning taniga olov kirganday bo'ldi. Keksa xotinni bir lahzada sillasini quritish kerak bo'lган zahar, ular asta-asta o'z domiga ola boshladi.

Temurg'oz ajali yaqinligini his etdi. Baxtudavlat esa hech o'yaydigan holatda emasdi.

Temurg'oz bugunmi ertaga dargohi oliya borish ilinjida o'tirgan ayol o'ziga zahar bera olmasligini idrok etdi. Axir go'mmani u pishirmagan-ku. Lekin hamma narsani o'ylab olishga fursat yo'q edi. "Tezroq bu yerdan ketish kerak!".

¹ Gazlama bo'lagi.

² Qiymasi.

U bor kuchini to'plab, do'stining qo'lidan ushlagancha yugurishga intildi. Baxtudavlat mast odamday gandiraklab uning yonida borardi.

Bir amallab "Ota darvoza" qoshidagi hovuzga yetib kelishdi. So'ngra bir necha qadamcha keladigan masofani Temurg'oz emaklab bosib o'tdi. Baxtudavlat esa hovuzga yetmay jon berdi.

Temurg'oz hovuzga labini bosdi. Lekin suvni ichiga tortishga kuchi yetmadi. Og'zidan qon oqa boshladi.

* * *

Butun Ichon qal'ayu Deshon qal'ada qiyomat qoyim bo'ldi. Yomud bostirib kirganda ham bunday vahima bo'lgan emas. Hammaning og'zida shu gap: Isfandiyorxonning o'g'li Temurg'oz to'raga zahar berishibdi.

Haqiqat aniqlandi. Bosh mahram tiriklay yerga ko'mildi. Uning oshpaz va cho'rilari zindonga tashlandi. Mol-mulki musodara qilindi. Ro'ska momo birlinchi so'roqdayoq yuragi yorilib "farishtalar" yoniga ketdi.

Isfandiyor xudoning bu qahri-g'azabidan gangib, uzoq vaqt o'zini o'nglay olmadidi. Ichon qal'ada qirq kechayu qirq kunduz hech kim to'yu tomosha, kulgu degan narsani bilmadi. Xon shunday amr etmaganda ham, baribir musulmon fuqaro norasta yoshida nobud bo'lgan to'raning xotirasini tutardi. Uning fazilatlarini, xalqqa qayishishini, yaxshi sarkarda bo'lishini aytib ko'p armon etdilar.

Hammadan ham cho'girmado'zga qiyin bo'ldi. O'g'li ning nomi bora-bora qumga singan bir hovuch suvdek hech kim tomonidan aytilmaydigan, yodlanmaydigan bo'ldi. Uni faqat ota-onasi, og'a-inilari unutishmadidi.

Rusiyadan xushxabar olib xon huzuriga shoshgan karvonboshining ham gapi og'zida qoldi. Oqposhsho Temurg'ozini polkovnik unvoni bilan taqdirlagan, shahzoda Aleksey esa unga ko'p duoi salomlar aytib, Peterburgga tashrif qilishni so'ragan edi.

Isfandiyor o'g'li uchun mo'ljallab Xivadan ko'p uzoqda tikilgan harbiy kiyimni ko'ziga bosib ich-ichidan yig'ladi. Uni oldinda Temurg'ozisiz bir necha yil kutib turgandi. Bu

kunlarda garchi rohat-farog'at, ayshu-ishrat ham ko'p bo'lsada, ularning barchasi o'g'li bilan birga o'tkazilgan bir kunga ham arzimas edi. Har holda Xivaning keksa kishilar shunday o'ylashdi.

XOTIMA

Bekpo'lat momosining hikoyalalaridan juda ta'sirlandi. Ko'nglida allaqanday o'zi tushunolmaydigan hislar – bir yondan faxr, bir yondan armon tuyg'ulari bir-biriga chir-mashib ketdi. U o'midan turib, keng xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Televizorda g'aroyib multfilm namoyish qilinayotgandi. U ilgarigidek qiziqarli tuyulmadi. Ancha vaqt multfilmga ham ko'zi qiymay turdi. Lekin baribir televizorni o'chirdi.

Temurg'ozi erta o'lib ketmasa hozir necha yoshga kirgan bo'lur edi? U shu savolga javob izladi. Nihoyat javob topildi: yuz yoshga yaqinlashgan bo'lar edi. Yuzdan o'tib yashab yurganlar hali ham bor. Mana, momosi ham hademay yuzga kiradi.

Bekpo'lat o'zining mo''jazgina darsxonasiga o'tdi. Stol ustidagi kitob daftarlарini, ruchka-qalamlarini tartibga soldi. Ilgari bunga ko'p e'tibor bermasdi. Bugun negadir batartiblikka ehtiyoj sezdi. Qolaversa, radioning qo'shiqlaridan ham voz kechdi. Axir ular diqqatni bo'lishadi.

U Jaloliddin Manguberdi haqidagi qissani qo'liga oldi. Tarix o'qituvchisi uni qo'shimcha adabiyot sifatida o'qish uchun tavsiya etgan.

Asarga juda qiziqb ketdi. U nimasi bilandur momosi aytib bergen hikoyalarga hamohangday edi. Balki ikkalasi ham shahzoda, tarixiy shaxs bo'lganligidan shunday tuyulgandir. Qolaversa, Jaloliddin ham uzoq umr ko'rмаган, lekin eng uzoq umr ko'rgan odamnikidan ham ko'proq jasorat ko'rsatishga ulgurgan.

Balki Temurg'ozi ham erta o'lib ketmaganida Jaloliddin kabi mardliklar ko'rsatgan bo'larmidi. Balki uning ham nomi tillarda doston bo'larmidi?

Bekpo'lat keyingi bir necha kun ichida ancha ulg'aydi. U hayot kurashlardan, g'alabalaru yo'qotishlar-

dan iborat ekanligini bir qadar anglatdi. O'zi uzoq yashashi kerakligini, barcha eldoshlari, ota-onasi, qarindoshlari unga umid ko'zini tikishayotganligini tushunganday bo'ldi. Uning imkoniyatlari yuz yil oldingi tengdoshinikidan, garchi u xonning o'g'li bo'lsa ham yuz marta, ming marta ziyod ekanligini his etdi.

Bekpo'lat ertasi kuni barvaqt uyg'ondi. Maktabga ham hammadan erta bordi. U darslar boshlanguncha Jaloliddin Manguberdi haqidagi asarni o'qiy boshladidi. O'zicha chizgan Temurg'ozi to'raning surati kitobdag'i kecha to'xtalgan joyni ko'rsatuvchi belgi bo'ldi.

HIKOYA VA NOVELLALAR





TO'G'RI CHIZIQ

Unga qon quyish markazi oldida duch keldim. Boshini biroz qimirlatib salom berdi, xasta ovozi zo'rg'a eshitildi. E'tibor bermay o'tib ketish hech gap emasdi. Bu kim bo'ldi, deb o'ylab, tikilib qaradim. Yuzlari so'lg'in, soqollari o'sib ketgan, ko'zлari kirtaygan, tanimadim. Yonidan yoqar-yoqmas bosh qimirlatib o'tib ketdim. Lekin negadir xayolimda uning ko'zлari aylanaverdi. Birdan miyamda chaqmoq chaq-nagandek bo'ldi. Axir u sinfdoshim Sa'dulla-ku!

Ishimni tez bitkazib chiqdim. Qo'limda kasalxonada yotgan xotinim uchun mo'ljallangan qon plazmasi, lekin xayolim Sa'dullada. Uni hamma yerdan axtaraman, lekin hech topolmayman. Uni tanimay, u bilan so'rashmay o'tib ketganim uchun ichimni it tirmaydi. Axir men uni necha yillar ko'rmadim. Ko'rishni istab yurgandim. Ko'rganda esa tanimay qolibman. Shunday ham bo'ladimi?

Noiloj mashinamga o'tirdim. Markaz bosh shifokoriga hamshira qizni viloyat shifoxonasiga eltilb qo'yishga so'z bergandim. U ham mashinaga mindi. Yo'l-yo'lakay gaplashib bordik.

— Necha yillardan beri ko'rmagan sinfdoshimni tanimay qolibman, — dedim unga shunchaki gap yo'sinida.

Hamshira qiziqib qoldi.

— Kimni aytayapsiz?

— U ishxonangiz oldida turgan ekan. Soch-soqoli o'sib ketgan...

— E, Sa'dullani aytayapsizmi?

Hamshira yosh edi. Biroz ko'nglim og'rindi.

— Uni hamma shunday ataydi, — dedi hamshira jim bo'lib qolganligim sababli. — Kunda bo'lmasayam har hafta qon topshiradi. Biroz pul olib, tinchib ketadi, keyin shu pulga aroq olib ichadi.

Yana jim bo'lib qoldim. Axir nima ham deya olardim, yetti uxlab tushimga kirmagan gap.

- Bugun ham qon topshirdimi?
- Yo‘q, negadir bugun ichonga’ kirmadi.
- Bo‘lmasa nega ketib qoldi ekan?
- Bilmadim, balki o‘zini yomon his qilgandir. Qon topshirishga ham kuch kerak. Lekin ilgari hamma vaqt topshirib ketardi.

Nahotki Sa’dulla mendan xafa yoki xijolat bo‘lib ketib qolgan bo‘lsa?!

Mashina radiosidan taralayotgan quvnoq kuy holatimga hech jihatdan mos kelmadidi. Radioni o‘chirdim. Hamshira qiz ajablanib labini cho‘chaytirgani ro‘baramdagisi oynadan aniq ko‘rinib turibdi. Yarim yo‘lda mashinani to‘xtatib, uni tushirib yubormoqchi bo‘ldimu lekin unda nima ayb? Uni manziliga yetkazdim. Hamshira xayrashmay tushib ketdi.

Boshimni rul ustiga qo‘ygancha biroz o‘tirdim. Ko‘nglim bo‘m-bo‘sh, boshimga bir narsa tiqilganday Sa’dullanining holati ko‘z o‘ngimda. Nechun u bunday ahvolga tushgan ekan? Nega uni tanimay qoldim?

* * *

Sa’dulla bilan ikkimiz bir sinfda o‘qirdik va yana bir sinfdoshimiz Zarinani sevardik. Zarina esa maktabni bitkazguncha, bizni o‘zidan uzoqlashtirmadi ham, o‘ziga ko‘p yaqinlashtirmadi ham. Biz garang bo‘lib, hech narsani tushunmay, oshiqu beqaror bo‘lib yuraverdik. Goh bir-birimizga xalaqit berib Zarinani qizg‘andik.

Sinfimizda yigirma to‘qqiz o‘quvchi o‘qirdi. Lekin nazarimda shu birgina Zarina barchani o‘z atrofiga bir-lashtirib turardi. Faqat o‘g‘il bolalar xususida emas, qizlar to‘g‘risida ham shunday fikr aytish mumkin. Bizning Zarinasiz ko‘nglimiz to‘lmasa, ularning Zarinasiz ishlari bitmasdi. Sinfni bezatishdan tortib, bayram tadbirilarini o‘tkazishgacha u qizlarga bosh bo‘lardi.

Zarinani goho men uyigacha kuzatib borardim. Yo‘l madaniyat va istirohat bog‘i ichidan o‘tardi. Shunda chekkaroqdagi skameykalarning birida o‘tirib, undan-bundan suhbatlashardik. Qaysi o‘qituvchidan qo‘rqishimiz, qaysi birini yoqitirishimiz to‘g‘risida bahslashardik. Hamma

¹ Ichkariga.

vaqt ham fikrimiz bir yerdan chiqavermasdi, lekin ikkimiz ham xursand bo'lardik.

Ertasi kuni Zarinani Sa'dulla kuzatib ketayotganini ko'rib xunob bo'lardim. Ikkalasi kulishib turganini ko'rsam-ku yonib ketardim. Lekin g'ururim ularning oldiga borishga yo'l qo'ymasdi. Zarina nima uchun uni quvib yubormaydi deb xunob bo'lardim. U esa buni xayoliga ham keltirmasdi.

Bir kuni Sa'dulla bilan qattiq urishib qoldik.

— Hoy bola, — dedi u menga qarab, — Zarinadan uzoq-roq yur.

— Nechun?

— Zarina meniki.

— Joning kerak bo'lsa o'zing uzoq yur. Zarinaning o'zi biladi kimniki ekanligini.

Shundan keyin gapimiz qovushmadı. G'arra mushtlashib ketdik. Sinfdag'i boshqa bolalar ham qayerdandır atrofimizda hozir bo'lishdi. Ular bizni ajratish o'miga o'zları ham mushtlashisha boshlashdi. Birov mening tarafimni oldi, birov Sa'dullaning.

Mening ko'zim ko'kardi, Sa'dullaning burni qonadi. Urishgan bolalarning hammasi ozmi-ko'pmi jarohat olishdi. O'qituvchilar oldida ham, direktor oldida ham, sinf rahbarimizning taz'yiqi ostida ham, urish Zarina uchun bo'lganligi haqida og'iz ochmadik.

Bir mushtlashuv bilan ora ochiq bo'larmidi? Nodo'stlik ochiqdan-ochiq dushmanlikka aylandi.

Zarina hech birimizga ko'nglini ochmay, o'zi ochilib-sochilib yurardi. "O'l-a" degan dugonalariga "kallasi yo'q odam urishaveradi", deb hazillashardi. Juda o'tkazib yuborganlariga esa "yomonmi sening uchun urishib, ko'z ko'kartirib yurishsa" derdi. Bu uning yuragidan chiqqan gaplar emasligini, boshqani bilmadimu, men bilardim.

Baribir Zarinaning menda ko'ngli ko'proq edi. Mening esa ko'nglim faqat unda. Bir kuni hammaning ko'zini shamg'alat qilib "Mehnat" darsidan qochib ketdik va o'zimizga qadrdon boqqa bordik. Zarinani bunga ko'ndirish qiyin bo'lmadi. Yur, bir zamon bog'da o'tiramiz, degan gapimga bir so'z bilan "yaxshi" dedi. Balki tayoq yeganim uchun menga ichi achishgandir.

* * *

Kuppa-kunduz kuni. Odamlar u yoqdan bu yoqqa o'tib-qaytib turishibdi. Hech kimning ko'ziga ko'rinxmay, faqat Zarinani ko'rib, qayerda emin-orqayin o'tirish mumkin? Shu savol meni yomon qiyndi. Nihoyat Zarinaning o'zi ma'qul joyni topdi.

— Yur, "samolyot"ning tagiga kiramiz.

"Samolyot" chamasi uch metrcha keladigan temir ustunga mustahkamlangan ikkita katta qaychi shaklidagi temir moslama. Ularga samolyotga o'xshatib yasalgan o'rindiqlar band etilgan. Elektr toki ta'sirida po'lat "qaychi" katta tezlikda aylanadi. Shu tariqa o'rindiqlarda joylashib olgan kishilar uchun aylanma uchish yuz beradi. Bunday uchishga hamma ham jur'at qilolmaydi. Jumladan, o'zim hech vaqt unda uchmaganman. Bir oycha burun shu "samolyot" bir kishining boshiga tegib ketib, u halok bo'lgandi. Shundan so'ng uning harakati to'xtatildi. Hech kim yoniga bormaydigan bo'ldi.

"Samolyot"ning ost qismi-motor joylashgan joy taxta bilan o'rab olingan. Kichkinagina qopidan u yerga kirsa bo'lardi. Zarina bilan shu joyga kirdik Ichiga ikki odam sig'ishi mumkin ekan. Bir-birimizga suyanib bir necha daqiqa jim o'tirdik. Keyin beixtiyor men uning yelkasiga qo'limni qo'yib, astagina labidan o'pdim.

— Zokir, sen yaxshi bola eding-ku.

— Zarina bu gapni shu qadar ohista va mayin aytdiki, yuragimda yonib turgan o't guvillab ketdi.

— Sen yomon etding.

Shunda men Zarinaning negadir o'zgarib qolganligini sezdim. Uning ranglari oqarib ketdi. So'ng shoshilgancha "samolyot" tagidan chiqdik. Butun yo'l bo'yisi u ham indamadi, men ham. O'zi nima yuz berdi, men tushunmadim.

* * *

Zarinaning onasi uy bekasi, otasi sozanda edi, qo'shiq ham aytardi. Hali yosh bo'lsak ham artistning puli ko'p bo'lishini bilamiz. Uylari ham katta ko'chada, hammanikidan ziyoda. Ertal bilan "Gaz — 21" avtomashinasini kimdir yuvib turgan bo'ladi. Aftidan xizmatkorlari ham bor. Shu sababli Zarina erka qiz, deb o'ylardim.

Bir kuni Sa'dulla unga ko'nglini yoribdi.

— Zarina, seni yaxshi ko'raman.

— Men ham seni yaxshi ko'rib turibman, — debdi Zarina.

— O'ynama, — deb yalinibdi Sa'dulla.

— O'ynayotganim yo'q, — debdi Zarina.

— Balki uni yaxshi ko'rarsan.

— Kimni?

— Uni-da.

Sa'dulla nazarda tutgan odam menman albatta. Shu sababli u yana bir marta, shunimi, deb so'rabdi. Zarina esa beparvo javob beribdi.

— Ha.

Shundan so'ng Sa'dulla qizarib ketibdi.

Men juda suyundim. Zarina meniki, deb o'yladim. Qachon tong otadi, qachon darslar boshlanadi, qachon ular tamom bo'lib, Zarina bilan gaplashib olaman, deb sabrsizlik bilan kutdim.

Tong ham otdi, kutilgan vaqt ham keldi Zarinaning izidan soyadek ergashdim.

— Ha, bormisan Zokir. O'li-tiring yo'q, — dedi u o'ziga juda yaqin olib. Men ahmoq esa seni yaxshi ko'raman deyish o'rniga, Sa'dullani hoplabsan, debman.

— Sen ham eshitdingmi?

— Hovo.

— Eshitgan bo'lsang bilib yuraversang o'lasanmi?

— Buni kutmagandim. Shu sababli dovdirab qoldim.

— Axir men ham seni...

— Nima meni...

— Yaxshi ko'raman.

— Seni boshimga uramanmi, Sa'dulladan nerig ortiq?

Turgan joyimda qotib qoldim. Ko'zimning oldida yulduzchalar chaqnadi. O'zimga kelib ham hech narsani tushunmadim. Zarinadan ham darak yo'q edi.

Zarinaning o'zi kimda ko'ngli bor ekan? Sa'dulla bilan ikkimizni ham yer bilan teng qildi. Mening oshiqu shaydoligim avval maktabda ovoza, keyin kulgi bo'ldi. Lekin Sa'dulla bilan beixtiyor yaqinlashdik.

— Ko'rasan, dedi u, — hali biz kutmagan bir bola

osmondan po'stin tushganday paydo bo'ladi. Uni ko'rsam o'ldiraman.

Sa'dulla valiy ekan. Maktabimiz atrofida "Yava" motosikl mingan uzun bo'yli bir yigit aylanadigan odat chiqardi. Zarinani qayerdadir ko'rib qolib, yaxshilab tanishmoqchi bo'libdi. Tanaffusda uyalmay-netmay Zarinaga suykanadi.

Zarina uning so'zlariga sabr-bardosh bilan chidab turadiyu keyin shartta teskari qarab ketadi.

U bola oddiy bola emas ekan aslida. U sportchi ekan. Unga kuchimiz yetmasligini sezdir. Ayniqsa Sa'dulla uni o'ldirib qo'yish fikridan allaqachon qaytgan. Yoniga ham borolmadi. Oxiri biz g'ururimiz qiyinayvergach, ittifoq tuzdik. Chaqirilmagan mehmonning adabini beradigan bo'ldik. Maktabdan sal chetroqda, hech kim ko'rmaydigan ovloqroq bir joyda "Yava"ning oldini to'sdik. Yo'l torroq edi, u to'xtashdan boshqa iloj topolmadi, mototsikldan tushib, kalitini o'ynatib kelaverdi. Ko'zoynakni olishni ham xayoliga keltirmadi. Shunda xudo kuch berdimi, yo jonjahdimiz bilan yopishdikmi, bilmadim, ikkimiz birdaniga yopishib uni yerga tappa bosdik. So'ng yuzi-ko'ziga, yelkasiga musht tushiraverdik. U haqiqatan ham kuchli ekan, kutilmagan zarbadan o'zini o'nglab olib ikki qo'li bilan ikkimizni ikki tomonga irg'itib tashladi, qochib ketdik.

Shundan keyin uni ko'rmadik. Zarina oldida o'zimizni qahramon his etib sal gerdayibroq yurdik. Lekin bir narsani tushuna olmadik. Nega o'sha sportchi yigit maktabga kelib bizning adabimizni bermadi? Keyin bilsak, buni Zarina hal qilgan ekan. U sinf rahbarimizga bir yigit qo'shni maktabdan kelib suykalayotganligini aytibdi. Sinf rahbarimiz esa jismoniy tarbiya o'qituvchisi-sport ustasi edi. U o'sha yigitning yuragini bir yorib qo'ygan ekan, keyin maktabga yaqinlashmabdi.

* * *

O'qituvchilarimiz, ayniqsa adabiyot o'qituvchimiz juda qiziq ayol. U shu bolalarga adabiyotni o'tgatmasam, o'zim ham o'lib qolaman, bolalar ham o'lib qolishadi, deganday jahd bilan dars beradi. Biz esa bizdan oldin ham adabiyot o'qib, keyin turli kasblarni egallagan, masalan, shofyor, etikchi bo'lgan maktabdoshlarimiz ham hech biri o'lib qol-

maganligini, o'qituvchimiz ham sog'-omon yurganini yaxshi bilamiz. O'zimizga ham hech xavf-xatar yo'qligini tushunamiz. Lekin o'qituvchimiz baribir shunday o'qitaveradi. "Qani bir she'r ayt-chi" deya jonga tegib ketganligini aytaymi, yoki bo'lmasa "bir monolog o'qichi" deb kutib turishlaridan so'zlaymi? She'r yodlash oson gapmi? Lekin baribir yodlar edik, yodlamaganimizga qo'ymasdi.

Bir kuni o'qituvchimiz "Layli Majnun"ni o'rgatdi. "Biringiz Majnun, biringiz Layli bo'lib o'qiysizlar, shunda yaxshi tushunasizlar, holatga kirasizlar", degan gap topdi. Menga Majnunni, Zarinaga Laylini topshirdi. Men kitobga qaraymanu ko'zim tinadi. Majnunni hech o'xshatolmayman. Zarina esa Layli bo'ldi-qo'ydi. Kitobga qarasa qaraydi, qaramasa yo'q. O'qituvchimiz Zarinani maqtab, boshini silab qo'ydi, meni esa boshimga bir niqib yuborib, Qorabotirga o'xhab o'qiding, juda ham ezib yubording, dedi. Bo'lganim shu bo'lsa, men nima qilay? Layli Zarinadan boshqa birov bo'lganda ham bir gap edi.

Adabiyot o'qituvchimizning ilmiga tan beraman. Lekin shu safar farosatiga qoyil qolmadim. Shunda ham Sa'dulla Majnunni o'qimaganiga shukur qildim. Bo'lmasa u jon deb Majnun bo'lardi.

Endi rus tili muallimimizni ko'ring. Ustingda naq ot o'ynatadi. Dars tayyorlamay kelgan qiz bola bo'lsa, seni allaqachon erga berish kerak edi, deb jonini oladi. O'g'il bola bo'lsa, seni joying armiyada deb dashnom beradi. Qo'rqtadigan narsasini qarang, qizlar erga tegishdan qo'rqedamni, yigitlar armiyaga borishdan. Faqat uyalganimizdan o'zimizni qo'rqqanga solib o'tiramiz. Rus tili muallimimiz, o'ris ayoli, Zarinani maqtagan paytda ko'zimga olijanob bo'lib ko'rindi.

U deyman, bu deyman, shu rus tilini juda zo'r o'rgangan ekanmiz. O'zimiz yaxshi ko'radigan o'qituvchilar o'rgatgan fanlarni esa negadir yaxshi o'zlashtirmay qolibmiz.

Bir kuni Zarina darsga kech qolib keldi. O'qituvchimiz unga hech narsa demadi. "Proxodi, proxodi", dedi xolos. Ertasiga Sa'dulla kechga qolgandi, qulog'ini biroz tovlab qo'ydi.

— Mening Zarinadan qayerim kam, — dedi Sa'dulla nima deyarini bilmay. Hamma kulib yubordi.

O'qituvchimiz ham kula boshladi. Faqat men kulmadim. Axir uning o'mida men bo'lsam ham shunday deb yuborarmidim, xudo biladi.

Endi yana bir o'qituvchimiz haqida to'xtalmay bo'lmaydi. U bir oyog'i oqsoq, lablari oldiga bo'rtib chiqqan, urush faxriysi. O'zi dars berishiga gap yo'q. Matematikani suvdek ichadi, lekin bir kamchiligi bor, dars berayotganida sinfda hech qanday sas-samar bo'lmasligi kerak. Pashsha uchsa ham bo'lmaydi. Agar birov sal qimirlasa, yoki ortiqcha harakat qilsa, shivirlab qo'ysa, darrov jahli chiqadi. Tartibni buzgan o'quvchining oldiga borib, unga ko'zlarini, teshib yuborgudek qilib, qadaydi. Agar tartibsizlik, uning nazarida, haddidan ziyod bo'lgan bo'lsa, yana ham yomon jazo beradi. Ya'ni shu o'quvchining oldidagi o'quv qurollaridan birini oladi-da, derazadan irg'itadi. O'tib borayotgan bitta-yarim-taning biror yeriga tegadi ham demaydi.

Shu o'qituvchimiz taxtaga formulalarni chiroyli qilib, erinmay yozayotgandi. Men uning qo'li hali-veri bo'shamas, dedimu oldimizdag'i partada o'tirgan Zarinaga tegajoqlik qildim. Uzun sochining bir tolasini ajratib olib, asta-sekin torta boshladim. Zarina indamadi. Keyin menga Sa'dulla ham qo'shildi. Oxiri sabr toqati tugagan Zarina orqasiga o'grilib qo'limni itarib yubordi. Bu harakatlar natijasida sinfdagi tinchlik ozgina buzildi. O'qituvchimiz ham yozishdan to'xtadi. Asta-asta yurib Zarinaning oldiga keldi. Parta ustidagi bir nechta rangda yozuvchi sharikli avtoruchkalar solingan qutichani oldi-da, deraza tarafga qarab ketdi. Nahotki tashlab yuborsa, deb qisinib o'tirdik. U qutichani irg'itib yubordi. So'ng yana taxta oldiga borish uchun qadam tashlagan edi Sa'dulla ikkimiz yugurgancha deraza oldiga bordik. Avval Sa'dulla, keyin men tarnovdan tushib qutichani olib kelmoqchi bo'ldik. O'qituvchimiz qo'rqib ketdi. Bizni joyimizga o'tqazdi. Bir necha rangda yozuvchi, jamlangan paytda kamalakni eslatuvchi bu noyob ruchkalar faqat Zarinada bor. Quticha ham qip-qizil, juda bejirim edi. Ular ham endi yo'q. Darsni bir amallab o'tkazdik. Tanaffusda pastga tushib qarasak quticha singan, uning ichidagi ruchkalar har tarafga sachrab ketgan ekan. Zarina unsiz yig'ladi.

"Tavba" deyman, nima uchun tarnovdan sirg'alib

tushishni istadik? Zinadan tushsa bo'lmaydimi. Har kuni ming bora chiqib-tushib yuribmiz-ku. Lekin o'sha qizg'in paytda butun bir sinf uchun qutichani olib kelishning yo'li faqat deraza orqali o'tgan edi.

Algebra o'qituvchimizdan farqli ravishda geometriya muallimimiz shoortabiat odam edi. U murakkab qoidalarni juda oddiy qilib tushuntirishga intilardi. Shuni ham ko'pimiz tushunardik, ko'pimiz tushunmasdik. Zarina esa geometriyanı yaxshi o'zlashtirardi.

Bir kuni o'qituvchimiz qiziq tushuntirish berdi.

— Bolalar, yaxshilab bilib oling, dedi u taxtaga chiziq tortar ekan. — Bu oddiy to'g'ri chiziq! Lekin u hali tugal shakl emas. Shakl, ya'ni mazmun-mohiyat kasb etish uchun kamida uch chiziq kerak.

U taxtaga uchburchak shaklini chizdi.

— Tushundingizmi.

— Hovvo, dedik bir ovozdan. Lekin nimani tushunganizni tushunmadik. Har holda yangiroq gap eshitgandek bo'ldik.

— Endi yana boshqa chiziqlar tortib to'rtburchak, ko'pburchak yasash mumkin.

Taxtada turli shakllar paydo bo'ldi. O'qituvchimiz keyin geometrik formulalarga o'tdi.

Men ham ko'p qatori tushundim dedimu uyga borib o'tirib o'ylandim. "Shu chiziqlar aslida nima uchun kerak. Uchburchak bo'ldi nimayu, to'g'ri chiziq bo'ldi nima?"

* * *

Bitiruv imtihonlari yaqin. Biz Sa'dulla bilan sulh tuzdik. Baribir ichimizda g'ayrlik yashardi.

— Hozir may oyi, — dedi bir kuni Sa'dulla, — bemalol suvga tushsa bo'ladi. Shovot ko'prigi ustiga chiqib kalla tashlaymiz. Kim ko'p kalla tashlasa yutib chiqadi. Zarina bilan ham shu so'zlashadi.

Bu ishimiz bilan biror o'zgarish yuz bermasligini bilsakda, hech o'ziga kelolmayotgan g'ururimizga yupanch axtarardik.

Kuppa-kunduz kuni kalta ishtonda Shovot ko'prigining panjarasi ustiga chiqib o'zimizni suvga tashlaymiz. Bir marta tashlab ham qo'yamymiz. Yaxshiyam suv juda chuqr emas,

to'lqin ham yo'q. Ko'rgan-kechgan "bu ne jinni" deb qaraydi. Ba'zilar, sho'x bolalar ekan, deydi. Lekin hech kim bu oshiqlar musobaqasi ekanini anglamaydi.

Oxiri horidik. Har birimiz o'n martadan ko'proq sakrabmiz. Keyin musobaqa yakunini ham chiqarmay tarqalishdik. Shu kuni maktabga ham bormadik. Ertasi kuni ko'p gap eshitdik. Eng og'ir gapni Zarina aytdi.

— Nima balo, o'g'irlilik qildingizlarmi?

— Hovva, — dedik ikkimiz ham, — hali seni ham o'g'irlab ketamiz.

"Ey ahmoq qiz, nimani ham o'g'irlar edik. Qani endi seni rostdan ham o'g'irlab ketishning iloji bo'lsa" deyman ichimdan.

* * *

Maktabni tugatgach, hayotimiz ostin-ustun bo'lib ketdi. Uchalamiz uch tomonga tarqaldik. Men Toshkentga o'qishga ketdim. Zarina esa undan ham uzoqroqqa — Frunze shahriga yo'l oldi. Buni hech kim o'ylamagandi. Shu paytda bir necha institutlarga talabalar Urganchda tanlandi. Zarina ham muhandis bo'lishni istab imtihon topshirdi. O'qishga kirdi. Sa'dulla Urganchda qoldi. U o'zini qiy nab institutga kiraman, demadi. U yer bu yerda ishlab yurdi. Shu-shu, asta-asta bir-birovimizdan uzoqlashdik. Mehr ko'zda, deganlari rost ekan. Biz bir-birimizni unutmasak-da baribir bir birimizsiz yashashga o'rgandik. Har vaqt-har vaqt Zarinani juda sog'inardim. Lekin u juda olisda edi.

Bir yil o'tib Zarina qirg'iz yigitga tur mushga chiqqanini va farzandli bo'lganligini eshitdim. Bu ko'nglimdag'i so'nggi umid rishtalarini ham uzganday bo'ldi. O'z hayotimga tamoman berilib ketdim. Zarina eski dardday ko'nglimni o'rtagan paytda xayolimdan quvib yuborishga intildim.

Ko'p yillar o'tdi. Hamma narsa o'z qonun-qoidasi, tartib intizomi bilan aylanib, o'mni-joyini topdi. Yaxshi ish, yaxshi oila, yangi mashina. Menga yana nima kerak o'zi? Lekin nimadir kerak edi.

Yangi uy qurdim, suvoqchi usta kerak bo'lib qoldi. So'rab-surishtirib shunday ustani ham topdim. Juda batartib ishlar ekan. Nafsi ham oldiga chiqqanlardan emas. Bir hafta

mobaynida usta bilan yaqin bo'lib qoldik. Undan-bundan gaplashib oxiri so'z oilalarimizga borib taqaldi. Men xotinim bog'chada ishlashini, har vaqt-har vaqt kamqonlikdan qiynalishini gapirib berdim.

U, o'zim Xazoraspdanman, xotinim Urganchdan, ismi Zarina, dedi. Keyin usta asbobni hafslala bilan aylantirib suvoqlarni tekislay boshladи.

Hayratga tushdim, Naqotki Zarina shu ustaning xotini bo'lsa? Gap chuvalashib ketmasin, usta biror narsadan hadiksiramasin, deb Zarina haqida hech narsa so'ramadim. Faqat bolalarini surishtirdim. Ikkita o'g'li, bir qizchasi bor ekan.

Ertasiga usta ishga kelmadi. Men undan Zarina haqida bilib olmoqchi edim, bo'Imadi. Bezovtalandim. Indinga usta kelishi bilan "tinchlikmi" deb so'radim.

- Qaynonam qaytish bo'ldi, — dedi usta.
- Bandachilik.
- Ha, nima ham qilardik.
- Qaynotangiz hayotmi?
- Ha, bor, qamoqda.
- Nima uchun qamalgan?
- Bangichilik uchun. Biroz tirkak ham sotganga o'xshaydi.
- Qaynotangiz sozanda emasmidi?
- Ha, siz taniysizmi?
- Oz-moz eshitganman.

"Tavba, — o'ylovdim o'zimcha, — bir vaqtleri hamma havas qiladigan odamning baxti qaytgan ekan-da".

Usta ohista so'z boshladи.

- Qaynotam Zarinaga o'gay, o'zining otasi yoshlikda o'lgan. Qaynonam u bilan yaxshi turmas edi.

Ship-shiydam xonaning o'rtasidagi yagona stulga o'zimni tashladim. Buni bilmagan ekanman.

Keyin o'mimdan turib ustaning oldiga bordim. Undan nimanidir so'ramoqchi bo'ldimu tilim hech aylanmadи. U esa so'zida davom etdi.

- Qaynonam oltmishta yetmay qazo qilganligi ham bejiz emas. Davleniyasi bor edi. Har kun uyda urush-janjal bo'lavergandan so'ng davleniya bo'ladi-da. Zarina ham ko'p ezilgan. Shu sababli uzoqqa o'qishga ketgan.

— Qanaqasiga ezilgan?

— O'gay ota kun bermagan. Seni yoshingdagi odam pul topishi kerak. To'ylarg'a chiq der ekan. Onasi ham, Zarina ham bunga rozi bo'lishmagan.

Odam degan ham shunaqa go'l bo'ladimi? Zarinani sira tushunmagan ekanman. Bir terlab sovidim. Keyin ustaga bazo'r shunday savol berdim:

— Xotingiz chiroyli bo'lsa kerak?

U bu savolimdan xafa bo'lmadi, balki yana jonlanib, ochilib ketdi.

— Dim, bolalarimiz ham unga o'xshaydi, bundan sevinaman.

— Baxtingiz bor ekan.

— Dim.

Unga havasim keldi. Usta tushuntirish berdi.

— Bu kunlarga yetib kelguncha ikkimiz ne kunlarni ko'rmaganmiz. Zarina mendan oldingi eridan ko'p azob ko'rgan, zo'rg'a qutilishib kelgan.

— Hm...

— Qisqasi bizni hech kim tushunmagan. U bilan tasodifan uchrashib qolib tanishdik. Keyin bir-birimizni sevib qoldik.

Gap shu yerga kelganda ehtiyojkorlikdan naf yo'qligini sezib, "qaltis" savol berdim. Shunga asosim bor deb o'yladim.

— Nahotki u avval hech kimni yaxshi ko'rmagan bo'lsa? Usta kuldii.

— Yaxshi ko'rgan. Lekin ular yosh bolalar bo'lgan. Zarinaning darajasiga ko'tarilib bilmaganlar.

Gap-so'zga o'rinn qolmadi. Men beixtiyor devorga tilidim. Keyin noiloj ustani zo'rligi uchun maqtadim.

Ustaga gaplashganimizdan ham ko'proq haq berdim. U ortiqchasini olmadi. Xotinim ziyod olmang, baxt ko'pdami, ozdami, xudo biladi deb aytgan, dedi.

Zarina, Zarina! Nima bu, taqdirming o'yinimi, tarsakisi-mi? Hech narsani oxirigacha anglab yetolmadim. Lekin Zarinaning baxtidan baribir suyundim.

* * *

Sa'dullani axtarib qon quyish stansiyasi oldiga bir necha marta bordim. Lekin u ko'rinish bermadi. Hamshira ham keyingi bir hafta mobaynida kelmaganligini aytdi. Oxiri Sa'dullaning turar joyini aniqlab oldim. Uning uyiga borsam, eshik qulflog'liq. Qo'ni-qo'shnilaridan surishtirdim. Hech kim hech narsa bilmaydi.

Nihoyat bir keksa ayol menga kalavaning uchini topib berdi. Sa'dullaning qishloqda singlisi bor, shu anig'ini bila-di, dedi.

Sa'dullaning singlisini ham topdim. U menga hamma gapni aytib berdi.

— Ikki yil burun og'amning xotini qon kasalidan vafot etdi. Shundan keyin u cho'kdi.

— Aroqni ham ko'p ichadigan bo'pti.

Kim aytdi.

— Bir hamshira qiz..

Ayol uh tortdi.

— Og'am aroq ichmaydi. Bir-ikki so'm pul topaman, deb qon topshirib yurgan ekan, yomon urishdim. O'zi ham uyal-di.

Ayol, Zokir, Zarina, deb chaqirdi. Bog'dosh qurib o'tir-gan edim, beixtiyor oyoqlarimni yig'ishtirdim.

Xonaga Zokir va Zarina kirib kelib, salom berishdi.

— Tanishinglar, akangni jo'rasi ekan.

Bolalar menga mehr bilan termulishdi. Ular kimligimni bilishmaydi-da. Agar bilishganda, balkim bunday qarash-masmidi. Ko'zimga yosh kela boshladi. Lekin uni qaytarishga kuch topdim.

— Og'am o'ris yurtiga ketdi. Biroz ishlab kelmoqchi. U o'tday svarkachi ekanini bilarsiz.

Bilmayman, deyaolmadim.

— Qachon keladi?

— Navro'zga yaqin kelar.

Navro'zgacha hali uch-to'rt oy bor.

Keyin bolalarni bir-bir o'pib, xonadan chiqdim. Mashinaga o'tirib, ro'baro'dagi ko'zguga qaradim va qotib qoldim. Menga bir to'g'ri chiziq boqib turganday edi.

HAMSUHBAT

Ko'p tirajli gazetaning mas'ul kotibi Otabek Yangiboyev chog'roqqina kitob do'koniga kunda bo'lmasa ham, kun ora kirib turadi. Gohida ishdan so'ng, ko'pincha tushlik paytida unga bir bosh urib chiqadi. Yangi kitob ko'ziga ko'rinsa, erinmay varaqlaydi. Bir-ikki jumla o'qib, xulosa chiqaradi. Ma'qul bo'lsa, kitobni sotib oladi. Ma'qul bo'lmasa, avaylabgina javonga qo'yadi va undan nari ketadi. U hech narsa sotib olmasa ham, do'konga kirganiga achinmaydi. Shu joyda ko'ngli biroz tozalanganday bo'ladi.

Bugun ham u do'konga yangi kitob ilinji bilan kirdi. Sotuvchi qiz "Sizga kerak tarixiy kitob ertaga keladi, olib qo'yaman" dedi. U bundan xursand bo'ldi. Shu sababli quruq qo'l bilan chiqayotganini o'ylamadi ham.

Otabek do'kondan chiqib yonboshidagi oziq-ovqat supermarketiga nazar tashladi. Uch qavatlari ko'rkam binoning ko'kintir yaltiroq shishalari ko'zini qamashtirdi, xayolini o'g'irladi. Uning eshididan bir odam kirib, bir odam chiqib turibdi. Otabek shu supermarketga u ochilgan paytda bir kigan, keyin qadam bosgan emas.

U katta do'konga termulib turar ekan, shundoq yonidan ikki qo'lida ikki sumka ko'tarib o'tgan ayolni payqamadi. Keyin birdan unga ko'zi tushib, ko'ngli achishib ketdi. Tezez odimlab, ayolga yaqinlashdi. "Nima desam ekan?" deb o'ylab borayotganida, ayol to'satdan to'xtab, sumkalarini beixtiyor asfaltga qo'ydi. Otabekka yaxshi imkon tug'ildi.

— Kechirasiz, yordam berishim mumkin. Ayol yonboshida nogahon paydo bo'lgan yigitga o'grilib qaradi. Otabekning ko'ngli to'lqinlanib ketdi. O'ttiz besh-qirq yoshlaridagi bu ayol behad go'zal edi. Oppoq yuzlarida bir zarra gard yo'q. Lekin labining ustida kichkinagina xoli bor. Ko'zları juda ham serma'no. Go'yoki hind filmidagi juvonnинг o'zi.

Ayol hech narsa demadi. Otabek o'zida uni ko'ndirishga kuchli ehtiyoj sezdi. Lekin mulozamat bilan bu maqsadga erisha olmasligini ham tushundi.

— Bir kun axir mening opam yo singlim ham yordamga muhtoj bo'lib qolishi mumkin-ku.

— Uyimiz uzoq emas, — dedi ayol.

— Agar bir qadam bo‘lsa ham...

Ayol ilojsiz qoldi. Nihoyat “mayli” dedi. Otabek ikkala sumkani ham ayolning qo‘lidan oldi. “Birisi qolsin” degan gapga ko‘nmadi.

Ayolning uyi u aytgandek yaqin emas ekan. Ancha yo‘l bosishdi. Yo‘l-yo‘lakay gaplashib borishdi.

Ayol katta bir korxonada bosh hisobchi ekan. Otabek o‘zining ismini aytdi. Lekin ayoldan ismini so‘ramadi, lozim topsa o‘zi aytar dedi. Ammo ayol shu ishni lozim topmadi. Buning nima ahamiyati bor?! Eng muhimi shunday go‘zal ayolning mushkulini oson qilyapti. Ajab emas, mutlaqo kutilmagan voqealar yuz bersa... Bir so‘z bilan aytganda, Otabekning ko‘nglida oxiri ko‘rinmaydigan tuyg‘ular g‘ujg‘on ura boshladi. U juda hayajonda edi. Shu sababli hech kimga yormagan ko‘nglini yordi.

— Men bor-yo‘g‘i bir omadsiz qalamkashman.

— Nega endi omadsiz?

— O‘zim ham bilmayman. Yozganimni hech qayerda bosishmaydi. Ko‘proq kitob o‘qi, deyishadi.

— O‘qiyapsizmi endi kitob?

— Har kuni emas, lekin kitob yig‘ishni yaxshi ko‘raman.

— Pul yig‘ishni yaxshi ko‘rsangiz yaxshiroq edi, — hazillashdi ayol.

— Shuni hech eplolmayman. Pul topsam qo‘limdan sirg‘alib tushib ketaveradi.

Ayol ochilib kuldi. Bu uning yangi hamrohiga ishona boshlagani edi. Otabek yana ham ochilib ketdi.

— “200 tomlikni” olaman deb pul yig‘ib qo‘ygan edim, bir do‘stim olib ketdi. Qaytarib berishni o‘ylamayapti. Endi umidimni uzdim.

— Nima u “200 tomlik”.

— Yangi zo‘r kitoblar-da, jahon adabiyoti.

Ayol unga bir tikilib qaradi.

Otabek bu uning tushunganimi, tushunmaganimi, tushun-madi.

— Qolaversa, xotinim ham ketib qolgan.

— Nega?

— Qaynonam, bu ering bilan noning butun bo‘lmaydi, deb olib ketgan. Nima deb bo‘ladi bunday holda?

Lekin ayol gap topdi.

— Men omad yoki omadsizlik haqida o'ylab ham o'tirmayman.

— Qanaqasiga?

— Shunaqasiga!

Ayol og'zini to'ldirib kulib yubordi.

Bu biroz Otabek kutmagan tarzda yuz bergen bo'lsa-da, baribir ayolning go'zalligiga soya tashlolmadi.

Bir oz pasaygan hislar to'lqini ko'p o'tmay yana yuqoriga o'rladi. Chunki ayol uni o'ziga el tuta boshlagani aniq ko'rini turardi.

Nihoyat ayol yashaydigan uyga yetib kelishdi. Nahotki hir xayrashish bilan hammasi tamom bo'lsa deb o'ylab borarkan, birdan Otabek hushyor tortdi.

— Xayr etsangiz butun qiling, — dedi ayol kutilmaganda.

— Yo'q, yo'q albatta eshicingiz bo'sag'asiga olib bora-man.

Aksiga olib, lift ham ishlamayotgan ekan. Har biri o'n kilodan kam bo'limgan sumkalarni to'qqizinchi qavatga chiqarishga to'g'ri keldi. Boshqa vaqt bo'lganda, Otabek o'la qolsa ham shuncha yuk bilan salkam yuz ellikta zina bosib, yuqoriga chiqmagan bo'lardi. Lekin bu safar shu ish unga juda yoqimli tuyoldi.

Ayol xonadon qo'ng'iroq'ini bosdi. Keyin yana ikki-uch marta bu ishni takrorladi. Eshikni o'n yetti-o'n sakkiz yosh-lardagi qiz ochdi. U ayolga juda o'xshardi. Lekin Otabekka ayol chiroyliroq ko'rindi.

U o'z vazifasini bajarib bo'lganligini tushundi. Keyin ayolga xayr endi, balki endi ismingizni aytarsiz, deganday jovdirab tikildi, ko'zlarida beg'uborlik aks etdi. Ayol buni uqib oldi.

— Endi ketib bo'psiz, bir piyola choy ichmay.

Otabek buni orzu ham qilmagandi. Lekin shunga o'xshash bir hol yuz bersa, nima bo'ladi deb o'ylayotgandi.

Ayol uning bir qo'lidan ushlab ichkariga tortdi. Mo''jiza yuz bergandi. Otabek "bo'lari bo'ldi, o'lim, o'lim, bir o'lim" deb xayolidan o'tkazgancha ichkariga kirdi.

Zal nihoyatda bejirim va batartib, hammayoq chinniday top-toza, yog' tushsa yalagudek. Otabek tuflisini, bog'ichlarini ham yechmasdan, oyog'idan chiqardi. So'ng katta oynaga bir tikilib, o'sib ketgan soch-soqolidan hijolat bo'ldi.

Buning qasdiga qo'llarini sovunlab yuvdi. Keyin katta zalda-gi kresloga omonatgina o'tirdi. Ro'baro'dagi javonda jimir-lab turgan billur idishlar ko'zlarini o'ynatdi. Ular orasidagi kichkina bo'l machada kitoblar tiqib qo'yilgan. U ayol zalda yo'qligidan foydalanib, kitoblarni bir ko'rib keldi. Yap-yangi, qo'l tekkizilmagan kitoblar. Lekin amerikalik yozuv-chilarniki ekan. Otabekka ular uncha ma'qul emas. Chunki ularda his-tuyg'u kamroq, ruhiyat ko'rinnmaydi. U baribir shularni ham o'qishim kerak ekan, degan qarorga keldi.

Qisqa fursat ichida o'ziga oro berib, ochilishgan, ustida-gi chiroyli va yupqa xalati badaniga quyib qo'yganday yopishgan ayol patnisda non, choy olib keldi. Keyin Otabekning ro'barasiga o'tirdi.

— Qani, o'z uyingizdagidek o'tiring. Dasturxonga qarang. Lekin, bemalol o'tirmasangiz xafa bo'laman.

So'ngi gap Otabekka juda yoqdi. Ayol nonni bo'laklab, Otabekning oldiga qo'ydi.

— Hozir ovqat ham pishadi.

Bir zamonda qadrdonlarga aylanishdi.

— Oyi, men ketdim, — qo'shni xonadan qizning ovozi eshitildi.

— Yaxshi, lekin uzoq qolma. O'n bir-o'n bir yarimlardan o'tmasin.

Qiz javob bermadi. Ayol tushuntira ketdi.

— Dugonasining tug'ilgan kuniga... O'zi inyazda o'qiydi. Diplomat bo'lmoqchi, chet elda ishlamoqchi.

Otabekning ayolga mehri yanada oshdi.

Qovurdoq tortildi. Ayol javondan bir shisha konyak va ikkita jimjimador ryumka oldi.

— Chiqqaniga o'n yil bo'lgan! — dedi ayol konyakni stolga qo'yarkan.

— Odamdan chidamli ekan, — hazilga yo'ydi Otabek. — Men hech narsani o'n yil kutmasam kerak.

— Nega endi?

— Mana, masalan, men sizni yana o'n yil ko'rolmay tura olamanmi?

Bu endi Otabekning ayol bilan tanishgandan keyingi birinchi dadil qadami edi. Ayol ham buni tushundi. U bu qo'rqib qilingan hujumga qarshilik ko'rsatmadi, faqat bir noz bilan, dadilroq bo'ling deganday bo'ldi.

— Yomon ekansiz... Hali konyakni ichmasdan, shunday desangiz...

— Ayol unga g'amza bilan bir boqdi.

— Uzr, bir qoshiq qonimdan o'ting.

Ayol konyakni ryumkalarga quyib, birini Otabekka uzatdi.

— Tanishganimiz uchun!

— Tanishganimiz uchun!

Keyin go'zallik uchun, himmat uchun, mehr uchun, yaxshi hayot uchun ichishdi.

Otabek tush ko'rayotgandek edi. Bir qarasa, u ayolga juda yaqinlashib qolibdi. U beixtiyor ayolning tirsagidan ushladi.

— Voy o'lay, nima qilyapsiz, gunoh bo'ladi.

— Hech bo'lmasa men ham bir marta gunoh qilsam nima bo'libdi?

— Yomon bo'ladi!

— Bo'lsa bo'lar. Har kuni hamkasblarim ayollar bilan qanday birga bo'lganlarini aytishadi.

— Yo'g'-e, siz ham ertaga aytasizmi?

— Yo'q, men sevgan odamimni sotmayman.

— Aldamaysizmi?

— Aldasam odam emasman.

Otabekning ko'zi ilingan ekan. Ayol uyg'otdi.

— Turing!

— Yana biroz yotay.

— Yo'q, qizim keladigan vaqt bo'ldi.

Otabek vannaxonaga kirib chiqdi. Keyin kresloga o'zini tashladi va ayolga mehr bilan tikildi. U juda jiddiy qiyofada edi.

— Nima bo'ldi?

— Hech narsa!

— Juda jiddiy lashib qolibsiz.

— Men hamisha shundayman.

— Axir...

— Axir-paxir yo'q.

— Tushunmadim.

— Odam degan istagan narsani yeyishi, istagan narsasi ni kiyishi kerak. Istagan odami bilan hamsuhbat bo'lishi ham kerak.

— Otabek lol bo'ldi. Ayol esa davom etdi.

— Endi boshqa uchrashmaymiz.

— Axir...

Otabek, "Men sizni sevib qoldim" demoqchi edi, lekin ulgurmadi.

— Mabodo hamsuhbat bo'lishni xohlasam, o'zim sizni topaman.

— Hech bo'lmasa ismingizni aytинг.

— Bu nimani o'zgartiradi?

— Kim bilan hamsuhbat bo'lganimni men ham bilay.

— Barno deng, Ra'no deng, o'zingiz istagan bir nomni qo'yib oling!

Otabek xonadan tez chiqib ketdi. Ortidan eshik taraqlab yopildi.

Kech tushib ob-havo salqinlashib qolgandi. U ustiga sovuq suv sepilganday junjika boshladи.

Ertasi kuni do'sti unga qarzini qaytarib berdi. Lekin u kitob do'koniga borishni negadir hohlamay qoldi. Bir haf-tadan so'ng u yana sudralib, kitob do'koniga bordi. Sotuvchi qiz sal hijolatomuz ohangda unga shunday dedi:

— Sizga olib kelgan kitoblarimni boshqa birov olib ketdi.

— Hechqisi yo'q.

Otabekning bu javobi sotuvchi qizni ajablantirdi. Lekin u hech narsa demadi. Keyinroq olib kelarman, degan so'zni ham aytmadи.

Otabek beixtiyor supermarketga kirdi.

— O'n yillik arman konyagi bormi?!

— Bor.

Sotuvchi javonda terib qo'yilgan shishalardan bittasini olib, yulduzchalarni ko'rsatdi.

— Mana.

Otabek uni tanidi. Xuddi shu — ayolnikida ichgan konyagi. Darrov sotib oldi.

Ilgari cho'chqa yog'i aralashgan deb, kolbasani og'ziga olmasdi. Bugun esa, undan ham xarid qildi.

Supermarketdan chiqar ekan, kitob do'koniga bir nazar tashladi. U ko'ziga g'arib ko'rindi. Nima uchun bunday bo'ldi, tushuna olmadi.

MATQURBON SODA

Bekbergan Bekmirzayev uyidan chiqishi bilan Matqurban sodaga duch keldi. Qo'shnisi qo'lini ko'kragiga qo'yib, salom berdi. U ham tirjayib alik oldi. Hatto qo'l olib salomlashishiga ham to'g'ri keldi.

— Ha azonlab...?

— Yoshulli, inshu uy oldidagi boqchani odam etaman, deb...

Bekbergan Bekmirzayev kulgidan o'zini tutib turolmadi.

— Nima, nima deb?

— Odam etaman deb...

— Odam bo'layotirmi.? Xo... xo...

— Ha bo'layotir. Shu bu yil hammayoq atirgul bo'lib ketadi. Birinchi gulni uzib sizga sovg'a qilaman.

— Shunday qiling.

Bekbergan Bekmirzayev uy oldida kutib turgan "Volga"ga o'tirdi. Haydovchi bilan shunchaki salomlashgan bo'ldi.

— Tez bo'l. Mana bu "soda" deganlari vaqtimni oldi. Menga gul sovg'a qilarmish. Nima, men qiz bolamidim? Sovg'a qiladigan bo'lsang, boshqa narsa qurib qolganmi?

Yo'l bo'yи uning xayolidan qo'shnisi ketmadi:

"Bu juda qiziq odam ekan. Hech vaqt tinib-tinchishni bilmaydi. Bir qarasang, u yer-bu yerkarni suvab-oqlab yuradi. Yana bir qarasang buzuq dazmolni, televizorni tuzatadi. Haliyam mashinasi yo'q..."

O'zi "soda" deb bilib ot qo'yishgan. Odamdan xafa bo'lismi bilmaydi. Nima desa kulib, tirjayib turaveradi. Bir gap ikkiga o'tsa, kechirim so'raydi. Shunday odamni nima deb bo'ladi?

Yaxshi uyining ichida nima balo qilsa qilsin, lekin ko'chada gulzor qilaman deganiga o'lasanmi? Mana, uch yildan buyon qo'lidan belkurak tushmaydi.

Bir yil urug' sepdi. Yeri kalning boshiday bo'lib qoldi. Keyingi yili ko'chat ekdi. U ham tutmadi. Bu yil esa qayer-dandir "Zil" mashina topib kelib, oldin tuproqni oldirdi, keyin yangisini to'ktirdi. O'ziyam bir oylik puli ketdiyov... "Zil" o'ziga dehqonchinikiday gap. Axir katta avtobaza gara-

jining mudiri. Lekin soda qo'shnisidan iltimos qilgani yo'q. Pismiq-da...

Bekbergan Bekmirzayevga Matqurban soda gul uzatib tirjayib turganday tuyuldi. U beixtiyor qo'li bilan qo'shnisi ni quvdi. So'ng o'ziga kelib ahd etdi.

— Hay, sanimi soda, senga bahorda o'zim beraman gulni. Shunda sening turqingdan ham, xotinning "ibrat olsangiz bo'lmaydimi" degan gapidan ham qutulaman.

— Mashi, — dedi u haydovchisiga, — qishlog'ingda bog'bon bormi?

— Bor, yoshulli...

— Gulni tushunadigani bormi?

— Daraxt sotadigan odamga gul nima degan gap?

— Ertaga erta bilan uni olib kel. Haqini beramiz...

Haydovchi nima gapligini so'ramasa ham tushundi. Demak, yoshulli Matqurban sodadan qolishmoqchi emas.

Ertasi kuni qo'lida gulqaychi ushlagan qariyani ko'rib Bekbergan Bekmirzayevning oldin hafsalasi pir bo'ldi. Keyin uni gapga tutdi.

— Otaxon qulochchini ko'tarib qo'ysangiz ham bo'lar endi. Mart boshlandi.

— Bo'ladi bolam, lekin qulog Sovuq tortadigan bo'lib qolgan.

— Unda bo'lgan ekanmiz. Men sizga gul ekib bering demoqchi edi.

* * *

— Gul bo'lsa ekamiz. Qo'shnining apilkaga o'rabi qo'ygan gullarini ko'ryapsizmi.

— Ko'ryapman.

— Uch-to'rt oydan so'ng ular ochila boshlaydi. Bizni gullar unikidan bir kun bo'lsa ham oldin ochilishi kerak.

Axir yoshulli, qo'shningizniki bulturgi gullar.

— Axir-paxir yo'q. Siz ham bulturgi gullarni ko'chiring.

— "Qirq og'ayni" keltirsak bo'lar...

— Nima "Qirq og'ayni"?

— Uzumday chirmashib ketadigan bir gul bor. Mayning boshidan ochiladi. Lekin ko'p vaqt turmaydi.

— Zarari yo'q.

— Ixtiyoringiz.

Bog'bon chol navro'zgacha rosa ter to'kib ishladi. Yerni chuqur ag'dardi, o'g'it berdi. Ishqilib tuproq kaloga keldi. Keyin u o'n beshtacha gul ko'chatini tuprog'i bilan olib kelib, o'tqazdi. Ko'chatlar sal "ikkilanib" turishdi-da, tutib ketishdi. Bu orada Bekbergan Bekmirzayev Matqurban soda bilan bir necha marta uchrashdi. U har safar qo'shnisidan xursand ekanligini, endi gulzorlar tutashib ketishini aytib, iljaydi. Gullar tutib ketgan paytda esa Bekbergan Bekmirzayevga yoqinqiramagan bir gap aytdi.

— Yoshulli, otangizga rahmat, yaxshi ish qildingiz. Lekin gullaringiz "Qirq og'ayni" emasmi?

Uning uchun bog'bon chol javob berdi:

— Qirq og'ayni!

— Yaxshi gul! Lekin uzoqqa bormaydi-da.

— Yoshulliga aytganman.

Bekbergan Bekmirzayevning tepe sochi tikka bo'ldi. "Nima ishing bor, musulmon, toshingni terib yuraver-maysanmi", demoqchi ediyu o'zini tiydi. Shahd bilan mashinasiga minib, eshikni qattiq yopdi.

Bekbergan Bekmirzayevning gulzoridagi ko'chatlar shitob bilan o'sishdi. Ular devorlarni butunlay egallashdi. Shuning barobarida behisob g'uncha tugishdi. Bundan u behad zavqlandi. Ichidan qo'shnisining holini tasavvur qildi. Axir uning gullari endigina qad rostlayapti.

May boshlanar-boshlanmas g'unchalar birin-ketin ochila boshladи. Bir hafta o'tar-o'tmas, butun devomi qizil gul qopladi. Go'yo uy oldiga katta gilam osib qo'yilganday bo'ldi.

Bir kuni uyi oldidagi gullarga qarab choy ichib o'tirish-gan edi. Xotini umrida birinchi marta Bekbergan Bekmirzayevni maqtab qo'ydi.

— Siz ham yomon ekansiz... bir narsaga yopishsangiz qo'porib olasiz.

— O'zi shunday bo'lish kerak bu dunyoda... Choynakni sirqiz.

Xotini darrov uning istagini bajo keltirdi.

Bekbergan Bekmirzayev konyakka o'xshab ketgan yarim piyola choyni simirib tashladi. Keyin lablarini yalab qo'ydi. Olam ko'ziga juda go'zal ko'rindi. Shu paytda ko'rmsizgi-

na bir qizcha kelib, kayfiyatini buzsa bo'ladimi. U Bekbergan Bekmirzayevning vajohatidan qo'rqib, ayoliga murojaat qildi:

— Shahodat opa, uch-to'rtta gul bering. “So'nggi qo'ng'iroy”qa o'qituvchimga olib bormoqchi edim.

Bu yana bir qo'shnisining qizi. Otasi ham o'zi shunday. Doim bir narsa so'ragani-so'ragan. O'zi usta bo'lsa-da, hamisha bir narsasi yetishmaydi. Kuni kecha arra so'ragan ekan. Noiloj berib yuborishibdi.

Xotini mo'ltirab qaradi. Lekin erining ko'ngli yumshamadi.

— Bu gulni uzish uchun ekmaganmiz. Axir bu go'zallikku!

Qizcha xafa bo'lib ketib qoldi. Xotini ham ichkari kirib ketdi.

Bir kuni temir panjaradan oshib tushgan ikkita bolakay gul uzayotgan ekan. Bekbergan Bekmirzayev juda darg'azab bo'ldi. Qon bosimi ikki yuzga chiqib ketdi. Bolalarning baxtiga xotini aralashdi. Shu sababli ular rosa ko'z yosh to'kib, boshqa qilmaymiz deya qutulishdi.

May oyi tugadi. Bekbergan Bekmirzayevning uyi oldida-gi gullarning chivig'i chiqib qoldi. Uning juda kayfiyati tushdi. Axir, qo'shnisining atirgullari xuddi shuni poylab turishganday, birin-ketin ochilib turishardi.

Buning ustiga Matqurbon soda nima deydi deng:

— Yoshulli, bizning gul — sizning gul, axir ko'chamiz bir, uylarimiz bir-biriga shipa.

“Ajabo, hech vaqt ham birovning narsasi boshqaniki bo'ladimi? Qolaversa, ko'cha bir degani, yo'limiz bir degani emas-ku. Mening ikki qavatli uyimga sening bir qavatli harob kulbang shipa bo'la oldimi?” xayolidan o'tkazdi Bekbergan Bekmirzayev.

Butun yoz bo'yli u xunob bo'lib yurdi. O'tsa ham, qaytsa ham, Matqurbon sodaning gulzori ko'z oldiga kelaveradi. Bu atirgul degani ham sira gullamay qo'ymas ekan. Qolaversa, sal shamol qo'zg'alsa chayqalib-chayqalib o'ynab turadi.

Bir kuni katta bir it kichkina bir mushukni quvib, Matqurbon sodaning gulzoriga kirib ketdi. Bekbergan Bekmirzayev ham chidab turolmadi. U beixtiyor ovchar-

kasining tasmasini yechib yubordi. Mushuk g'oyib bo'ldiyu, ikki it bir-biri bilan urishishib, gulzorni rosa tepkilashdi.

Bekbergan Bekmirzayevning xayoliga birdan "ovcharka birovni tishlab qo'ymasin" degan fikr keldi va itini chaqirib oldi. It jonivor ham qilarini qilib, kelib-kelib xo'jayining oyog'iga suykaldi. U Matqurban soda sal o'pkali gap qiladigan bo'lsa, aytadiganini kallasida pishitib qo'ydi.

Kechqurun Matqurban soda hech narsa demadi. Faqat bir narsaga afsus qildi.

— Shu pishgan novdalarning anchasini sindirishibdi itlar. Ulardan ko'chat qilib, qo'shnilarqa tarqatmoqchi edim.

— Zarari yo'q, har kim o'zi topadi, kerak bo'lsa, — dedi Bekbergan Bekmirzayev qo'shnisi bilan aytishib xumordan chiqish imkoniyatidan mahrum bo'lganligini tushunib. Shunda ham zaharxandalik bilan qo'shib qo'ydi:

— Yaxshisi siz ham temir panjara aylantiring, shunda it ham, bit ham kirmaydi.

— Boqqa panjara tortaversang, uning bog'ligi qoladimi? It-mushuk degani bir o'ysiz mahluq. Ko'ngliga tushsa panjaradan ham o'taveradi.

Bu gap endi Bekbergan Bekmirzayevga tegib ketdi. Matqurban soda unga itingiz ham bog'imga kiribdi, deb ta'na qilganday bo'ldi.

— Haliyam yaxshi, ovcharkam bog'ingizga kirgan itni qochirib yubordi, bo'lmasa hozirgidan ham battar bo'lardi.

Bekbergan Bekmirzayev uyiga kirib ketdi. Qon bosimi ko'tarilib, kechasi bilan u xlabel olmadi.

Matqurban soda o'quv yili boshlanishi oldidan bir nechta guldasta tayyorlab, qo'shnilarниkiga tarqatdi. Bolalaringiz mакtabга olib borishar, — dedi. Shu jumладан, Bekbergan Bekmirzayevning o'g'li ham guldastали bo'ldi. Xotini bundan hijolat tortdi. O'zi esa battar g'azabga mindi. Qon bosimi ko'tarildi. Keyin ikki oycha kasalxonada yotib, davolandi. Uyiga qaytib kelsa, Matqurban sodaning gullari hali ham gullab turibdi. U yuragini changallab yana yotib qoldi.

NAVBAT

Matkarim barcha ishni yig'ishtirdi-da, "G'ayrat" sihatgohiga yo'l oldi. Shu yerda u bundan o'n besh yil burun yaxshi davolanib, ruhi ko'tarilib qaytgan edi. Ayniqsa igna bilan davolovchi shifokor Ilgizar Tolmasov katta yordam ko'rsatdi. U o'ng qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari o'rtafiga atigi bir igna sanchdi. Shunda boshi aylanib, ko'z oldi xiralashdi. Tolmasov uni asta kresloga o'tqazdi.

U tez o'ziga keldi. Juda yengillashib ketdi, kayfiyati ko'tarildi. Doktorga takror-takror rahmat aytdi. Osh qilib bermoqchi edi, ko'nmadi.

Yillar o'tib uning eski dardi qaytaladi. Boshi og'rib, qo'llari qaltiraydigan bo'ldi. Shu sababli yana sihatgohni qo'msadi. Tolmasovni uchratolmasam kerak, deb o'yladi. Lekin baribir yo'llanma topib, "G'ayrat"ga otlandi.

U sihatgohga kela solib, o'zini krovatga tashladi. Lekin u الخلأا olmadi. Uch xona uchun umumiy bo'lgan balkonda ikki kishi suhbatlashib o'tirishardi. Biri keksa, biri o'rta yashar. Matkarim ularni ko'rmasa-da ovozlarini aniq eshitdi.

- Ota, qayerdansiz, — so'radi o'rta yashari.
- Shu yerdanman. Shu shifoxonada qirq yil ishladim.
- Yosh nechada.
- Yetmish birda.
- Men sizni yarim yoshingizdamан. Hali sizni yoshingizga yetamanmi yo'qmi?!
- Unday demang, xudodan tilang bolam, tilang.

Matkarim cholning ovozini kimnikigadir o'xshatdi. Lekin aniq bilmadi. Bu tiniq ovoz kimniki o'zi? Axir kechagina eshitganday.

Matkarim o'midan turib balkonga chiqdi. Qarasa o'zi uchratishdan umidini uzgan odam — Tolmasov yosh hamxonasi bilan suhbatlashib o'tiribdi. Oradan o'n yilcha o'tsa ham yuz-ko'zi o'sha-o'sha. Lekin qo'liga hassa ushlagan.

- Assalomu alaykum.
- Chol o'grilib qaradi.
- Matkarim!
- Ular quchoqlashib salomlashdilar.

— Buni qarang... Men sizni ko'ramanmi-yo'qmi, allaqa-chon pensiyaga chiqib ketgandir, deb o'ylagandim.

— Ha pensiyaga chiqqanimga yetti yil bo'ldi. Bugun esa xuddi siz kabi dam oluvchi, davolanuvchiman.

— Bu qanaqasi bo'ldi. Men sizdan najot kutib keldim axir.

— Najot kutsangiz biz najotkormiz.

Matkarim o'zining majlislaru to'y-ziyofatlarda o'tayot-gan hayoti, bolalarining tashvishidan sira qutila olmayotganligi ikkita o'g'lini uylantirganligi, yana ikkitasi uylanishi kerakligi haqida gapirib berdi.

Tolmasov Matkarimga tikildi. Uning qorayib ketgan yuzlaridagi ajinlarni ko'rib nimadir demoqchi ediyu o'zini tiydi. Buning o'mniga o'z hayotidan gapirdi.

— Ikki o'g'lim, singlim vafot etdi.

— Chatoq bo'libdi, joylari jannatda bo'lsin. Kasalmidilar?

— Katta o'g'lim Chernobilda nur olgan ekan, qirqqa yet-madi. Ikkinchisi unga kuydi. Singlim menga kuydi. Xullas, kuyib ado bo'limgan men qoldim.

— Axir qo'lingizda-ku.

— Ignar kuyganga kor qilmaydi. U miyadagini oladi. Yurakdagiga yetib bormaydi. Sizni yuragingiz sog', tuzalib ketasiz.

— Lekin shuni ham davolay olishmayapti.

— Ertaga xonangizga kiraman. Ignam yonimda.

Tolmasov yana o'sha joyga igna qadadi. Yana uni tok urganday bo'ldi. Lekin hushini yo'qotmadni.

Matkarim ancha o'ziga keldi. Lekin bu safar ilgarigidek yengil bo'lmasdi. Axir ro'barasida o'zi kabi ojiz odam tur-ganini bilardi. Qolaversa, Matkarim yana bir haqiqatni anglatdi. Uning dardi ham yurakka o'tgan.

— Tirikchilik qanday? — Matkarim oxiri shu savolni ham berdi.

— Yomon emas, nafaqa olib turibman. Hovlini sot-dim. Shu ishni qilish kerak bo'lib qoldi. Qolaversa bir o'zim katta hovlida nima qilaman? Hozir bir xonali uydaman-issiqliqina.

Tolmasov sihatgohdan ertaroq ketdi. Matkarim ham uzoq qolmadı.

Matkarim sihatgohdan qaytar chog'i keksa shifokor yashayotgan uyga kirib o'tdi. U Tolmasovning qo'liga qog'ozga o'rog'lik bir narsa tutqazdi.

— Nima bu?

— Arzimagan narsa. Sizga o'tgan safar ham minnatdorchilik bildira olmagan edim.

Tolmasov sovg'ani rad etmoqchi bo'ldi. Lekin Matkarim qattiq turib oldi va tez xonadan chiqib ketdi.

Matkarim cholga, o'zi ne-ne niyatlar bilan sotib olgan tilla ignalarni sovg'a qilgandi. U Tolmasovni ko'rishi bilan o'z niyatlaridan qaytdi. Chunki yordam berish navbatni kelganini tushungan edi.

HASHAR

Shahar chekkasidagi "Issiq suv" sihatgohining tengi yo'q. Kamida yuz yillik, balki undan ham ko'proq umr ko'rgan daraxtlar hammayoqni qoplab olgan. Tagidan o'tsangiz, tani joningiz yayraydi. Yer tagidan beto'xtov otilib turgan issiq suvni aytmaysizmi? Ming dardga davo. Shu bilan birga sihatgohda turli beqiyos muolajalar olib boriladi.

Sihatgohga uzoq rahbarlik qilgan To'rabek Kalonbekov nihoyat charchadi. Shu dargohga qarasang nimayu, qaramasang nima? Shuncha yil ishlab umri yonboshidagi ariqdek oqdi. Hech kim sening ko'kragingga bir orden taqib qo'yay demaydi. Bundan keyin ham qilmaydi. Birgina qo'lidan keladigan ish qoldi. U ham bo'lsa, o'g'li O'tkirni o'miga qo'yib, tinchgina chekkaroqqa chiqish.

O'tkir tushmaguri o'zidan ham salobatli. Lekin, har xil muomalada, oldi-berdida ismiga monand emas. Lekin bir odati yaxshi, kattalar nima desa chidaydi. Shuning o'zi ham yetadi.

Keyingi uch yilda, Kalonbekovning maqsad-rejalari o'zgarishi bois, sihatgoh ham tubdan o'zgardi. Ko'pgina ishning ko'zini biladigan, odam uchun joni og'riydigan shifokoru hamshiralari, farroshlar sihatgohni tark etishdi. U

bunga sira achinmadi. Oylıklarni ko'paytirib, shtatlarni qisqartirib qo'ya qoldi.

Ishlashni istamagan odam oylik oyga chiqsa ham, ishlamas ekan. Sihatgohda kundan-kun ishlar orqaga ketdi. Kalonbekovning hech narsa bilan ishi bo'lmadidi. Hammasini hisobchiga topshirib, tinchidi. O'rribbosarini bir bo'limning mudiri qilib tayinladi. Hisobchi buni qadrladi. Har kuni kechqurun xabarini olib turdi.

Hamma sihatgohda Xotira ismli oltmishlardan o'tgan bir ayol dam olishga kelishidan boshlandi. U yurtning bir chekkasidagi tumannning odam oyog'i yetmaydigan qishlog'ida yashasa ham, balo ekan. Kelishi bilan o'zi-o'ziga gapirib, u yoqqa o'tdi, bu yoqqa o'tdi, Kalonbekovni qidirib, ikki-uch marta topmadidi. Keyin unga qo'l siltadi. Bosh shifokor o'rribbosari semizligidan zo'rg'a o'midan qo'zg'aladigan ayolni ko'rib, bosh chayqab qo'ydi-yu, hech narsa demadi.

Bir hafta o'tar-o'tmas, o'sha ayol erta bilan sihatgoh oldidagi maydonga uch-to'rtta xotinni yig'ib, qo'llariga chelak, supurgi tutqazdi. U bir kun oldin o'zi bozordan olib kelgandi ularni.

— Xotinlar, hashar qilamiz! Hammayoqni bir tozalaymiz.

Xotinlar ham shuni kutib turgan ekanmi, darrov ishga sho'ng'ib ketishdi. To'rt qavatli binodan hirin-ketin tushib kelayotgan ayollar ularga qo'shilishdi.

Sihatgoh ichini chinniday tozalash uchun uch-to'rt soat yetar ekan. Buni ayollar amalda ko'rsatishdi. Lekin cho'p-chor ko'p yig'ilgan ekan, besh-o'n xalta bo'ldi. Bu xaltalarni Xotiraning o'zi ko'tarib, bir chekkaga olib chiqdi. Keyin xas-xashaklarni katta bir g'aram qilib, yoqib yubordi. Yoshi katta ayollardan biri uni ogohlantirdi.

— O't olib ketmasin yana.

— Qo'rqmang, o't olmaydi. Akamizning muzdek xonalari ham uzoqda!

Yarim kun ichida sihatgoh tamoman o'zgardi. Hammayoqning chiroyi ochildi.

Dam oluvchilar ham birdan o'zgarib qolishdi. Axir chinniday qilsa bo'lar ekan!

Xotira o'ziga o'xshash ikki-uch shaddod juvonni olib, to'g'ri Kalonbekov huzuriga bordi. Eshik ichidan berk. Bir necha bor taqillatib zo'rg'a ochtirishdi.

Kalonbekov yoqar-yoqmas ichkaridan chiqdi, salqin havo ayollarning yuziga urildi.

— Kimsiz?

— Xotira.

— Qaysi Xotira?

— Farrosh Xotira.

— Farrosh!

Kalonbekov o'ylanib qoldi. Axir sihatgohda farrosh shtati bormidi o'zi? Bor bo'lsa, ismi Xotiramidi?

— Qo'rwmang, men sizdan oylik olmayman. Men xonangizni beminnat tozalab beraman.

Shunday deya u xonaga kirdi. Keyin televizorni o'chirdi.

Xotinlar bir zumda bosh shifokor kabinetini sirib-supurishdi, turli buyumlarni changdan tozalashdi. Xonaning rangi ochilganday bo'ldi. Kalonbekovning bu tomoshaga tikilib, jim turishidan boshqa iloji qolmadi.

— Siz ham bir dam olsangiz bo'lardi, — dedi unga tikilib Xotira. — Hamisha ishdasiz.

Kalonbekovning qon bosimi oshib ketdi. Zo'rg'a kreslo-ga yotib oldi.

— Shu yetmay turgandi, — dedi Xotira.

— O'lib qolgan bo'lsaya.

Ayollar sarosimaga tushishdi.

Xotiraning tabibchilikdan ham xabari bor ekan. Kalonbekovning qabog'ini ko'tarib, ko'z gavhariga tikildi.

— Hali-beri o'lmaydi. Lekin badani harakatsizlikdan ilma teshik bo'lib ketgan.

— Qani, xotinlar oldik.

Uni ko'tarib divanga yotqizishdi.

Shu orada hansirab o'rinbosar yetib keldi. U Kalonbekovning qon bosimini o'lchadi. Keyin xotirjam ohangda dedi:

— Qon bosimi oshgan, yana pristup.

Xotinlar asta-asta xonadan chiqishdi.

Xotira shu kuni qishlog'iga jo'nab ketdi. Dam oluvchilar Xotirani uzoq eslashdi.

Ko'p o'tmay o'g'lini o'miga qoldirish istagidan ham voz kechib, Kalonbekov ishdan bo'shash haqida ariza berdi. Ko'pchilik shunga ham suyunib, uni tantanali ravishda nafaqaga kuzatdi.

Xotira bulardan xabar topmadı.

BOLAKAY

Qishloqning shaharga tutash hududidan markaziy dehqon bozorigacha uzlusiz qatnab turuvchi avtobus joyidan qo'zg'aldi. Yo'lovchilar xizmat haqi uchun pul uzatishdi.

Haydovchi barcha pulni jamlab, ikki-uch marta sanadi. Har safar yuz ellik so'm kam chiqdi. Shunda u orqani ko'rsatuvchi oynaga tikildi. Hech narsani aniqlay olmadi.

— Kim to'lamadi?

Mashina salonidan sas-samar bo'lindi. U yana qichqirdi.

— Pulni kim to'lamadi?

Yana jimlik. Haydovchining ko'zi orqadagi o'rindiqda o'tirgan o'n bir-o'n ikki yoshlardagi bolakayga tushdi.

— Hoy bola sen to'ladingmi?

Bola nima deyarini bilmadi.

— Qani, tush mashinadan!

Bolakay taraddudlandi. Buyruq ikkinchi marta eshitilganida o'midan qo'zg'aldi. Mashinada o'tirgan to'rt-besh ayolning bolaga rahmi keldi.

— Shopir uka, qo'ying, tushmasin.

— Endi bir marta hech gap bo'lmas.

Gap-so'zlar haydovchini o'ylantirib qo'ydi. Lekin u bolani tushirib yuborishni juda istadi. Shu sababli yana do'q qildi.

— Qayerga boryapsan o'zi?!

Bola bu savolga javob bergunicha, yana ayollar biri olib, biri qo'ydi.

— Uyiga-da.

— Boshqa qayerga borardi?!

Ishni bolaning o'zi buzdi.

— Bozorga.

— Qayerga?

— Bozorga!

— E... seni, tush!

Hamma jimib qoldi. Bola boshini quyi egganicha sumkasini osiltirib tushib ketdi. Ayollar yana chug'ur-chug'ur boshlashdi.

— Ie, bozorga borayotgan ekan-a.

— U — bu narsa olib kelib sotishadi-da.

— Ha, onasi yuborgan.

— Onasi yuborsa qo'liga yuz ellik so'm tuttirib yubor-maydimi?

— Biz haydovchini ayblab o'tiribmiz-a.

Mashinaga shoshilib bir qiz mindi. Atir hidlari salonni tutdi. U bolakayning o'miga o'tirdi.

— Assalomu alaykum, Arslonjon aka.

Haydovchingin kayfiyati ko'tarildi. U mug'ombirona kulimsiradi.

— E... senmiding, Marjona... kel... kel... Bormisan-ey.

— Borman, o'zingiz yo'qsiz.

— Biz, shu yo'ldamiz.

— Ikki-uch marta ko'rmay o'tdingiz.

— Nahotki...seni ko'rsam to'xtamay o'libmanmi...

Ikki bekattan so'ng yangi mingan qiz tushib ketdi. Haydovchi u uzatgan pulni olmadi. Qiz haydovchiga bir tabassum hadya etdi.

Bolakay bozorni tomosha qilish uchun borayotgandi. U birov olib birov sotib turgan, birov birovga pul uzatayotgan bu gavjum joyni yaxshi ko'rardi. Katta bo'lsam bozorchilik qilaman, deb niyat etardi. Buni haydovchiga aytishga uyaldi. Nima deb aytadi?

QO'SHNILAR

Muqaddas erini jerkib tashladi. O'g'liga tarsaki tushurdi, qizini so'kdi. Qaynonasiga hech narsa demasa ham, qachon undan qutilaman, degandek qaradi. Bularning barisiga ar-zimagan gap sabab bo'ldi. Eri ishdan kech qaytdi. O'g'li esa maktabdan erta keldi. Qizi bayramga tuqli olib bering dedi. Qaynonasi esa hamma vaqt dagidek uning ishlariga "hay-hay"lab turdi.

— Boltaboy bolam, xotiningni davolat, — dedi qaynonasi o‘g‘liga.

— Ko‘nmayapti.

— Majburlab olib bor. O‘z bolalarini o‘zi boqsin.

Eri oxiri uni do‘xtirga ko‘rsatdi. Uni shifoxonada olib qolishdi. Ma‘lum bo‘lishicha, Muqaddasning qoni zaharlangan. U og‘ir kasalga mubtalo bo‘libdi. Jigar bilan taloqning faoliyati buzilgan mish.

— Boltaboy, inim, — dedi keksa do‘xtir, — endi belni mahkam bog‘lang, xotingizning dardi yomon.

U “yo‘q” dedi. To‘rt tarafga yugurdi. Viloyatdan katta do‘xtirlarni olib keldi.

— Uyga olib ketganingiz tuzuk. Mening qizim ham shu darddan olamdan o‘tdi, — dedi katta do‘xtir.

Shu gap Muqaddasning yonida aytildi. Uning yuragi juda qattiq urib, hushidan ketdi.

— Ana, komaga tushdi, — dedi uni katta do‘xtir chiqib ketayotib.

Boltaboy, yetsa molim, yetmasa jonim, tuzatasizlar deb turib oldi.

— Yuzdan bir imkoniyat, qonni butkul tozalash kerak!

— Tozalaysiz.

— Buning qanday bo‘lishini bilasizmi?

— Bilaman.

— Kamida o‘ttiz-o‘ttiz besh odam qon berishi kerak.

— Beramiz.

Oldin Boltaboy, keyin hali yosh bo‘lsa ham qizi va o‘g‘li, so‘ng qaynonasi qon berishdi. Muqaddasning bir qo‘lidan qoramtil-sarg‘ish qon idishga oqib turdi, ikkinchi qo‘lidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri toza qon quyildi.

Muqaddasni ko‘rgani qo‘shni ayollar kelishdi. Keyingi vaqtida Muqaddas ularning ko‘pchiligi bilan urishgan bo‘lsa ham baribir qo‘shnichilik qilishdi.

— Qon quyishyapti, — dedi hijolatomuz holda ularga Boltaboy.

— Bormi, qon topiladimi? — so‘rashdi qo‘shnilar.

— Sotib olamiz.

— Sotib olib nima qilasiz, — deyishdi ayollar. — Mana biz bormiz.

— Qon gruppasi to‘g‘ri kelarmikan?

— Qoni qaysi gruppá?

— To‘rtinchi.

— To‘g‘ri keladi, — deyishdi qo‘snilar kulishib va yana qo‘shib qo‘yishdi. — Muqaddasning omadi bor ekan. Unga istagan odamning qoni to‘g‘ri kelaveradi. Lekin o‘ziniki ko‘philikka to‘g‘ri kelmaydi.

Boltaboy bu hazildan xafa bo‘lmadi. Axir rostdan ham shunday.

O’n kun deganda Muqaddasning qoni butkul tozalandi. U hushiga keldi. Uning birinchi aytgan so‘zi shu bo‘ldi:

— Bugun hayitmi?

Boltaboy onasiga qaradi. Axir Muqaddas hayitdan bir kun oldin hushidan ketgandi.

— Ha, — dedi Boltaboy, — bugun bayram kunimiz.

— Bolalar shaharga ketishdimi?

— Ha, shaharga ketishdi.

Muqaddas uyiga qaytdi. Qarasa hammayoq saranjom-sarishta. Hamma narsa ko‘ziga go‘zal ko‘rindi.

— Xonim, men bugun kechroq kelaman, — dedi Boltaboy.

— Ha albatta, keluningizcha osh tayyorlayman.

— Oyi, — dedi qizi, — raqs to‘garagiga borsam maylimi?

— Nega bormas ekansan, boraqol qizim.

— Oyi, — deb sumkasini ko‘tarib o‘g‘li oldiga keldi, — bugun sportivka olib berasiszmi?

— Albatta.

Nariroqda unga qarab qaynonasi jilmayib turardi. Muqaddas uni oldiga borib quchoqlab oldi. Keyin ko‘zlaridan yosh oqdi.

Muqaddasning sog‘ayib ketganidan qo‘snilar ham behad shod bo‘ldilar.

— Endi qonlarimiz bir-biriga qo‘sildi, opa-singil bo‘ldik, — deya hazillashishdi uni ko‘rgani uyiga kelgan ayollar.

Muqaddasning ko‘zlarini yoshga to‘ldi.

NAFS O'G'RISI

Yo'lga chiqqanman, Turkistonga—Ahmad Yassaviy zi-yoratgohiga. Qo'limda kichkina sumkacha, nemislar yasagan. Ichida ikki yuz ming so'm-kupon bor. Ikki oylik maoshim, ta'til hamda yordam puli, shuningdek, u-buni sotib jamlaganim shu bo'ldi.

Yo'lda ketayapmanu o'ylayman, nima olib qaytsam ekan? Bir charm kurtkaga bemalol yetadi. Suvsar telpak sotib olish ham mumkin. Xullas, bozorming o'zi ko'rsatar. Avtobus g'ildiragi shu orada bir necha marta chuqurchaga tushib, siltab-siltab tashladi. E'tibor ham qilmadim.

Mana, nihoyat manzilga yetdi. Ziyorat ko'ngildagidek bo'ldi. Agar shu qo'limdag'i sumkacha bo'lmaganida yanada zo'r bo'lar edi. Axir u har vaqt har vaqt, xayolimni olib qochmoqchi bo'ladi. Uni xayolimdan beto'xtov haydayman. U esa yo'qolib ketadigan emas.

Shaharga qaytgach, savdo rastalariga sho'ng'idim. Yonimdag'i shеригим — mulla Ahmadulla "Shu yerga chatoq kirdik, biroz dam olganimiz yaxshi edi" dedi. Lekin unga so'zimni o'tkazdim.

— Dam ibodat, dam tijorat!

U indamadi. Beixtiyor ortimdan ergashdi.

Har bir narsani sinchiklab ko'zdan kechiraman, bahosini, inol qaysi yurtniki ekanini erinmay so'rayman. Sotuv-chilarning og'zidan bol tomadi go'yo. Lekin shoshilmayman. Shoshilib qayerga boraman. Sumkachamga molning xudoyini jamlab qo'yganman axir.

Diplomatga o'xshash g'ilofda tillarang pichoq, qoshiq va vilkalar jamlanmasi bor ekan. Shunga bir ko'nglim ketdi. Mulla Ahmadullaga qaradim. U yuzimdan o'tib, "nimaga kerak" deya olmadni. Lekin bir rangini burishtirib qo'ydi. Tushundim. "Nima qilasiz" degani bu. Keyin kurtka, telpak ko'rdim. Hammasi yaxshi. Men esa yaxshidan yaxshini istayman. U esa oldinda turganday.

Bir mahal novchagina, kichkina mo'ylov qo'ygan bir yigitcha menga kelib urildi. Buni kutmagandim. Uning yuziga bir qaraganimni bilaman, kechirasiz, dediyu ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Sal beriroqdan o'tsa bo'lardi, nega urildi ekan, deb o'yladim. Keyin har holda odobsiz emasga o'xshaydi, u兹 so'radi-ku degan xayolga bordim. Nihoyat qo'limdag'i sumkacha juda yengillashib qolganini his etib, miyamda chaqmoq chaqnadi. "Eh kallavaram! Nahotki..."

Sumkachani ko'tarib ko'rib, peshonamdan achchiq ter chiqib ketdi. Uning zanjiri yarim ochilgan. Ichida pul o'rabi qo'yilgan qog'ozdan boshqa hech vaqo qolmagan.

Qo'l-oyog'im shalvirab qoldi go'yo. Sal chekkaroqqa o'tib, ustunga suyandim. Shu orada mulla Ahmadulla ham yetib keldi.

- Domullo, rangingiz oqaribdi.
- Sal charchadim shekilli. Bu joylarda havo yo'q ekan.
- Axir aytgandim-ku, dam olaylik, deb.
- Mulla Ahmadulla hali ko'p dam olamiz. Ochig'i dam olishdan boshqa ishimiz bo'lmaydi.

U menga hayron bo'lib tikildi. Nima gap yuz berganini bilmoqqa intildi. Lekin o'g'irlik haqdagi xayoldan u tamoman yiroq edi. Unga haqiqatni aytishdan naf bormi? Tasallii berishi turgan gap. Lekin bu faqat yaramni yangilaydi.

— Yuring qaytamiz. Yo'l bo'yi o'ylab boryapman: o'g'ri behad ustamon ekan. Bir daqiqaga yetar-yetmas vaqt ichida, bir urilishda, sumkachani ochishga va pulni olishga ulgur-gan. Ustidan kulganday, pul o'ralgan qog'ozni qoldirib ketgan. O'g'riga tan berdim. O'zimni esa juda ezdim. Axir og'zidagi oshni oldiradigan odamning o'zi bo'lib qoldim.

Nima uchun shu kuyga tushdim?

Balki ziyorat paytida savdo-sotiqni o'ylaganim uchundir? Ha, shuning uchun! Shuni tushunish paytida o'zimda allaqanday kuch sezdim. Har kuni kimdir nimasindir yo'qotadi. Goh katta, goh kichik bo'lsin. Pul o'g'irlatish ham shunday gap emasmi? Axir bilmay, sezmay o'g'irlayotgan narsalarimiz qanchadan-qancha?

Har bir yo'qotish uchun odam o'lgudek kuyunaversa, qancha yashashi mumkin? Qolaversa, ziyorat o'zi nechun? Yo'qotishlar paytida o'zni yo'qotmaslik uchun emasmi?

— Odamga nima azob beradi, mulla Ahmadulla, voqeahodisalarning o'zimi yo uning xayolimi, — so'radim ham-xonamdan.

— Bir-biri bilan ajralmas holda bog'liq bu. Aslida esa xayolning azobi hamma azobimiz.

Men jimb qoldim, mulla Ahmadulla esa xotirjam savol berdi.

— Buni nechun so'radingiz domullo?

— Qariganimda faylasuf bo'ladiganga o'xshayman.

— Sizu biz hamma vaqt ham faylasuflarmiz. Ammo goho dunyoga ko'ngil berib, ikki kemaning boshini ushlab, yangilishamiz.

Ko'nglim yorishdi. Xudo mullo Ahmadullani hamroh qilganiga suyundim. O'g'riga duch etgan esa, Xudo emas, mening nafsim xalos. Shundan keyin parvardigordan bir narsani so'radim.

— Yo parvardigori egam, meni pul o'g'irlatganim haqidagi hayollardan xolos et. Men pul emas, nafsimni o'g'irlatgan bo'lay.

Yonimdag'i temir katda' mullo Ahmadulla uyquga ketgan. Uning nafas olishi ham sezilmaydi. Yuzlarida bir g'ubor yo yig'iriq² yo'q. Unga havasim keldi. O'zim ham u kabi qotib uqlashni istadim. Bu oson bo'lmadi.

Ertalab uyg'onib o'zimni ancha yengil his etdim. Xayollar menga deyarli azob bermasdi. Mullo Ahmadulla esa namoz o'qib bo'lib, choyga unnayotgan ekan. Uning qo'lidagi choynakni olishga shoshildim.

* * *

Uyga qaytgach, tijoratchi oshnamning yoniga bordim.

— Puling bormi?

— Bor, — dedi u, — qancha kerak?

— Ikki yuz ming...

— Bir yerdan ikki yuz ming o'z-o'zidan kelgan edi.

Boyib ketsang berarsan.

— Men qachon boyib ketishimni xudo biladi.

— Hechqisi yo'q.

U stol g'aladonini ochdi. So'ragan pulimni qo'limga tutqazdi.

— Yana ziyoratgami?

¹ Krovatda.

² Tirishiq.

— Xudo xohlasa.

— Sen ziyoratingni qil, kitobingni yoz, tijoratni esa bizga qo'yib ber.

Unga pul o'g'irlatganimni aytmadim. Juda darg'azab bo'lardi.

QARZDOR

Xudargan Xalillayev bir javondagi kitoblarga, bir kutubxonachiga qaraydi. Muhabbat haqidagi qiziq-qiziq qissalar hayoli bir yonu uzun bo'yli, oppoq yuzli qizning ohanrabosi bir yon. Oxiri u ikkinchi tarafga og'ib ketdi.

— Qaysi kitoblarni o'qishni maslahat berasiz?

Kutubxonachi unga tabassum bilan boqdi. Keyin shahlo ko'zlarini o'ynatib, qoshlarini pirpiratdi.

— Xohlaganingizni... — Hammasi yaxshi.

— Lekin men shular ichida eng yaxshisini o'qim-oqchi edim.

— Unaqasini topish qiyin. Axir sizning ko'nglingiz bilan mening ko'nglim mos kelmasligi mumkin.

Qiziq gap bo'ldi. Bu Xudargan Xalillayevni o'ylantirib qo'ydi. Ilgari hech kimdan eshitmagandi bunday gapni. "Qaniyi teskarisi bo'lsa. Ya'ni ko'ngli ko'ngliga mos kelsa", o'yladi u.

Kutubxonachi qiz qistog'da andak oshirib yuborganligini tushundi, shekilli, vaziyatni yumshatishga harakat qildi.

Men sizni olim yo shoorsiz deb o'yabman. Ular eng yaxshi kitob qaysi kitob ekanligini bir ko'rishda bilishadi.

Xudargan Xalillayevning yuzlariga qizil, lablariga tabassum yugurdi.

— Ey, yo'q, bor-yo'g'i korrektorman. Xato qidiraman.

Qiz ham jilmaydi. Orada iliqlik paydo bo'ldi. Qiz shunda lutf qildi.

— Viloyat gazetasidanmisiz?

— Yo'g'e, tuman gazetasidanman.

— Ana aytmadimmi, bugun bo'lmasa ertaga baribir shoir bo'lar ekansiz.

Xudargan Xalillayev o'zini kulgudan to'xtata olmadi.

¹ Shoshilinch.

— Nimaga kulyapsiz? Mening ustimdan kulyapsizmi?

— Yo'q, o'zimning ustimdan kulyapman. Muhammarr o'rribbosariga she'rlarimni ko'rsatgandim, shu borishda o'limasang, ellik yildan so'ng shoir bo'larsan dedi.

Kutubxonachi qiz ham kula boshladi. To'xtab-to'xtab, yana ikki-uch marta kuldil. So'ng hozir to'xtab turing, deganday bir qarab, ro'baro'dagi uzun kitob javonlarining ichiga kirib ketdi. To'rt-besh daqiqadan so'ng qo'lida bir kitob bilan chiqdi.

— Mana shuni o'qing, xudo hohlasa ellik yilda emas, to'rt-besh oyda shoir bo'lasiz. Agar shunda ham bo'lomasangiz muhammarr o'rribbosariga ishonishga to'g'ri keladi.

Xudargan Xalillayev kitobni qo'liga oldi: "Sergey Yesenin".

— Eshitganman, ajoyib shoir. O'zim ham topsam shu kitobni o'qimoqchi edim, sizni xudoning o'zi yetkazdi.

*Shoir bo'lmoq buku tayin gap,
O'z joningni o'rtamoq faqat.*

Xudargan Xalillayev qotib qoldi. Qizning she'r o'qishi uni o'ziga tamoman mahliyo etdi. Nazarida televizorda ham she'rni bunchalik yoqimli o'qishmaydigandek tuyuldi.

— Endi joningizni qiyang, yigit.

Xudargan Xalillayev kutubxonaga serqatnov bo'lib qoldi. Bir-ikki kun ichida qiz bergen kitobni o'qib bo'lardi-yu, darrov egasiga olib chopardi. Kutubxonachi ham uni ko'rishdan xursand bo'lardi. Oxiri Xudargan Xalillayev unga she'r ham o'qib beradigan bo'ldi:

*Shoir kelib yori oldiga,
Yot yonida ko'rsa uni gar.
O't solsada nafrat qalbiga,
Qiz ko'ksiga urmaydi xanjar.*

— Ofarin, — deb xitob etdi qiz.

— Lekin yonida emas, qo'ynida.

Xudargan Xalillayev shu so'zni o'zi bila-ko'ra o'zgartirib aytgandi. Qiz hijolat bo'lmasin degandi. Shuniyam payqadi-ya.



Kutubxonachi javonlar ichiga kirib ketdi. Xudargan Xalillayev o'zini tutib turolmadi. U ham qizga ergashdi. U bilan ikki javon oralig'ida, juda tor joyda to'qnash keldi. Xudargan Xalillayev qizga orqaga qaytishga yo'l bermadi. Qiz bundan xafa bo'lmadi, aksincha jilmaydi. Yigitga bu kuch berdi. Kutubxonachi qizni bag'riga bosdi.

— Bunday qilmang, axir shoir degan...

— Men shoir emasman, she'r ixlosmandiman, xolos.

Xudargan Xalillayev qizning o'ng qo'lini ushlab, yuragining ustiga olib bordi.

— Ko'ryapsizmi, siz uchun shunchalik tez urayapti.

Qiz o'zini qo'lga oldi. Bir chaqqon harakat bilan yigitning og'ushidan chiqib ketdi. Tamom, deb o'yładi, yigit o'zicha, endi men bilan gaplashmaydi.

Qiz o'zining yozuv stoli oldida boshini quyi egib o'tirardi. Xudargan Xalillayev uning yonidan o'tayotib, bir kalima so'z aytdi.

— Uzr, xayr.

U ikki kungacha o'zini juda ezib yurdi. Axir shu ishni qilmasa nima bo'lardi? Uchinchi kuni telefon jiringladi. Go'shakdan kutubxonachi qizning mayin ovozi eshitildi.

— Yaxshiyam telefon nomerini bergen ekansiz, bo'lmasa siz uchun topib qo'yan yaxshi kitobimni qanday xabar etar edim. Yo endi kitob o'qimaysizmi?

— O'qiymen, jon deb o'qiymen. Lekin sizni xafa qildimmi, deb qisinib yurgandim.

Qiz kulimsirab ha, xafa qildingiz, degancha go'shakni qo'ydi. U shunday dediyu, so'z ohangidan endi xafa qilib qochib ketaverasizmi deganday bo'ldi.

U kutubxonachi qizni ko'p kuttirib o'tirmadi. Darrov kutubxonaga yo'l oldi.

Kutubxonachi avvaliga bir noz firoq qilib turdi.

— Endi sizga boshqa kitob bermayman.

— Nega?

— Suyulib ketar ekansiz.

— Siz quyuq bo'lishimni istaysizmi?

— Albatta.

— Bo'lmasa quyuqdan ham quyuq bo'lganim bo'lsin.

¹Qayg'urib.

- Toshdek qotib qolmang tag'in.
- Unga ham chidamaysizmi?
- Axir chidab bo'ladimi.

Shunday deya qiz Xudargan Xalillayevga qalin bir kitob uzatdi: "Cho'lpon".

Xudargan Xalillayev kitobni ikki kunda o'qib bo'ldi. U Cho'lpondan yod olgan she'rlaridan aytди. Qiz uning hech bir so'zni buzmay aytganiga qoyil qoldi.

Nihoyat musahhih kutubxonachiga uylandi. Juda zo't to'y bo'ldi. Tuman gazetasi muharriri ham, kutubxona direktori ham bu to'yda qadah so'zları aytishdi. El-yurtga tinmay ziyo tarqataverishlarini tilashdi. Ko'p o'tmay ularning taqdiri o'zgardi. Tahririyatda va kutubxonada shtatlar qisqarishi sabab, Xudargan Xalillayev hamda uning rafiqasi o'zlarini boshqa sohalarga urishdi. Xudargan Xalillayev o'zini tijoratda sinab ko'rdi. U qildi-bu qildi, bozorga yaqin joyda do'kon qurdi. Xotini bilan o'ylab-o'ylab oxiri kitob, daftar sotishga qaror qilishdi. Bir kun do'konda o'zi o'tirdi, bir kun xotini.

Keyinchalik Xudargan Xalillayev mol yetkazib turdi. Har vaqt-har vaqt o'tgan-ketganga qarab, o'zi savdo qildi. Yomon emas, biri ikki bo'ldi, ikkisi to'rt. Hech vaqt minmagan mashinasini mindi. Xotini ham xursand. Lekin gapping ochig'i, kitob o'qish qoldi. She'r yodlashga ham vaqt yo'q.

Bir kuni u o'zi do'konda turgan paytda yoshgina qiz yaxshi kitob so'radi:

— Sizga Yeseninni, Cho'lponni tavsiya qilaman, — dedi Xudargan Xalillayev ishonch bilan.

Qiz yuzlarini burishtirdi.

— Menga detektiv kerak. G'ayrioddiy holatlarni istayman. Siz aytgan kitoblarni esa ana kutubxonadan olishim mumkin. Umuman shoirlarni uncha xushlamayman.

Xudargan Xalillayev o'zini g'ildirak ichida bosh oyoq aylanayotganday his etdi.

— Unday kitobimiz yo'q, singlim.

— Ey, bo'lmasa nima sotasiz o'zi?

— U-bu.

— U-bu deganingiz nima?

— To'g'risi, o'zim ham bilmayman.

Qizning unga rahmi keldi shekilli, ko'p vaqtdan buyon

o'tmay yotgan, lekin ustiga yaqindagina televizorda namoyish etilgan serialning qahramonlari rasmi tushirilgan umumiylardan bir nechtasini sotib oldi.

Xudargan Xalillayevning peshonasidan ter chiqib ketdi. O'zini qarzdor his etdi.

KO'PAL KO'PALSINOV

Jun tayyorlash korxonasining xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri Ko'pal Ko'palsinov bilan bir palatada allergik xastaliklar bo'limida-shifoxonada yotibmiz. Hamxonam 55—57 yoshlardagi to'ladan kelgan qop-qora odam. Bo'yisi ham pak-pakana. Yurganida pildirab qadam tashlaydi. Goho qalin qoshlari ostiga ko'zoynagini taqib, shipga qarab kitob o'qib yotganida juda g'alati tuyuladi. U kitob bilan butun yuzko'zini yopganicha pinakka ketadi. Ko'p o'tmay bir xirillab, bir pishillab xurraqni zambarak o'qiday otib turadi. Lekin ovozi juda haddidan oshib ketganida o'z tovushidan o'zi tez uyg'onib ketadi va darhol kitobni bir yoqqa surib qo'ygancha, kravotda o'tirib oladi va dami qismadan¹ shikoyat boshlaydi.

Uning dami ayniqsa bahorda ko'proq qisarkan. Shu sababli Navro'z o'tar-o'tmas saroyday uydan bosh olib chiqib, shu shifoxonaning katalakdek xonasida jon saqlar ekan.

Men esa tez-tez shamollayman. Do'xtir tanishim qo'yarda-qo'y may shu yerga yotqizdi. Bir-ikki kun dam oling, allergiya nima ekanini biling, dedi. Men ham xo'p dedim. Lekin Ko'pal Ko'palsinovning xurraqlari tushimga ham kirgan emas.

Ko'pal Ko'palsinov hamshiraning besh-olti xil dorisini bir yo'la salkam bir piyola suv bilan yutib yuboradi. O'zi joy-joyini topib oladi, — deydi u, — nega bunday qilasiz deganday, ajablanib qarashimga javoban.

Men esa shu dori nimaga foyda-yu, nimaga zarar deb ko'p o'ylayman. Keyin uni ichsam ichaman, ichmasam yo'q.

Ko'pal Ko'palsinov krovatda ag'anab yotgancha chuqr xo'rsindi. Keyin so'yloq tishlarining orasidan tuflik² sochib gapira ketdi.

¹ Astma.

² Tupuk.

— Bolalardan oltita, uchtasi o'g'il, uchtasi qiz. Qizlarni boy-badavlat joylarga uzatdim. O'g'illarning ikkitasini uylantirdim, bir kenjasи qoldi. Uni ham kasalxonadan chiqsam boshini bog'layman.

— Ha, tinchib qolibsiz, deyman beixtiyor uning gapiga javoban. U esa so'zida davom etadi.

— O'g'illarimning biri qassob, ikkinchisi do'konchi, uchinchisi taksi haydayapti.

— Hammasining topish-tutishlari zo'r bo'lsa kerak.

— Baribir, ularning aravasini ham o'zim sudrayman. Hammasiga uy qurib berdim. Kenjasiga ham uy tayyor. Uni ham chiqarib yuboraman.

— Nega endi, birginasi yoningizda qolaversin.

— To'g'risini aytam, bolalardan naf yo'q, hammasi o'ziga. Sal "inq" etsam¹ kasalxonaga tiqishadi, bo'lGANI shu.

— Axir astma yaxshi kasal emas. Yotmasangiz bo'lmaydi.

— E, hali bu yerdan chiqib ketganimga 3 oy ham bo'lGANI yo'q.

Shu payt eshik ochilib, Ko'pal Ko'palsinovning o'zi singari pakanadan kelgan, yosh bo'lishiga qaramasdan tepakal bir yigit kirib keldi. Uni to'ng'ich o'g'il bo'lsa kerak, deb o'yladim. Haqiqatan ham shunday ekan.

— Yaxshimisiz ota, — dedi yigit qo'lidagi haltachani tumbochkaning ustiga, aniq ko'rinish turadigan yerga qo'yar ekan.

— Yaxshiman, o'zing nichiksan?² Erta kelibsani. Bugun necha mol so'yding?

— Birgina.

— Nechun oz?

— Bozorda mol qimmat. Biroz kutib turaylik, dedim.

— Sen kutib turgan bilan kissang kutib turmaydi. Mol qimmat bo'lsa, etni ham qimmatroq sot.

Yigitning otasiga ortiqcha hisobot bergisi kelmadimi, yoki tanbehni noo'rin sezdimi har holda gapni boshqa yoqqa burdi.

— Ota, qo'chqor yana yem yemayabdi.

— O'zi shuni o'ylab yotgandim.

¹ Kasallansam.

² Qandaysan.

Ko'pal Ko'palsinovni yo'tal tutdi. U yo'tala-yo'tala hansirab qoldi. Men xonodon chiqib ketmoqchi edim, uni xijolat bo'lar dedim. Ko'pal Ko'palsinov esa o'ziga kelib olgach suhbatni kelgan joyidan davom ettirdi.

— So'yib yubor harobni. Xudo urganda ham ellik kilo-cha chiqar. Yuz ming so'm bo'lar.

— Unga bormas-ov.

— Boradi.

— Ota, sog'ligingizdan so'zlang.

— Ko'rayapsan-ku, qo'chqor harom o'laman, deb turganda menda sog'lik bo'ladimi?

— Ota, qiziq gap aytasiz. Harom o'ldirib qo'yamizmi. O'zi so'yishga narsa topmayapmiz.

— Tana qanday, tana'?

— U yaxshi, semirib boshladi.

Ko'pal Ko'palsinov piyoladagisov uq choyni bir ko'ta-rishda simirib tashladi. Keyin labini artib, o'g'liga tayinladi.

— Uydgilarga ayt, endi hech kim kelib o'tirmasin.

— Axir kelmay bo'ladimi.

— Mening aytganimni qil, bola. O'zi nima olib kelganding?

— Issiqliqina manti. Keliningiz tong bilan pishiribdi.

— Tongni tirmalab turgandan keyin oldin mol-holga qarash kerak. Darrov go'sht to'g'rashga tushaverish kerak emas.

— Axir...

— Yaxshi bor, bor.

Manti, degan so'z bir yon, yigitning boshqa so'zlarini bir yon bo'ldi. Har holda hamxonam bilan birga tushlik qilarmiz deb o'yladim. Lekin Ko'pal Ko'palsinov mantidan sira og'iz ochmadi. Balki bo'limning oshxonasiga birga sho'rva ichishga majburlab olib borganday olib bordi.

Peshindan so'ng uning o'rtanchi o'g'li kirib keldi. U ham otasiga quyib qo'ygandaloy o'xshar ekan.

— Og'angga kelib yurmasinlar deb aytgandim-ku.

— Ota, axir sizni ko'rmay bemalol yura olamanmi?

— Mashinada birovni olib keldingmi?

— Yo'q, taksiga minadigan odam kam, hamma 100 so'mlik marshrutga yopishib yotibdi.

¹ Buzoq.

— Katta yurt, odam ham topiladi, odam yo'q, deb to'rt tarafga chopavermaslik kerak. Sal kutib turish kerak. Ayniqsa aeraport yonida.

— Kunim shu aytgan yeringizda o'tadi, ota.

Ota-bolaning suhbatiga halal bermay deb, qo'shni xonadagi shaxmatchilar yoniga chiqdim. Ko'pal Ko'palsinov mutlaqo xayolimdan ko'tarildi. Bir soatlardan so'ng qaytib kelsam u yana xirillab, pishillab yotibdi. Men ham krovatga o'zimni tashladim, lekin uxlolmadim. Ko'p o'tmay u uyg'onib, yana gapga tutishini yaxshi bilaman, qolaversa xurraq tovushi odamni uxlatgani qo'yadimi.

Beixtiyor ko'zim Ko'pal Ko'palsinovning tumbochkasi ustidagi tugun o'zgarganiga tushdi. Aftidan, u katta o'g'li keltirgan ovqatni o'rtanchisiga berib yuborgan. O'rtanchisiniki esa qanday kelgan bo'lsa shunday ahvolda turibdi.

Kutganimday Ko'pal Ko'palsinov uyg'onib, yana bo'g'iq ovozi bilan so'z ma'nilay boshladi:

— Ko'rmasizmi buni. O'n kilometrcha yo'l bosib bo'mbo'sh kelibdi. Axir odam olib kelsa ham bo'ladi-ku.

— Endi bir foyda, bir zarar degan gap bor.

— Kim aytgan shu gapni?

— Kimligini bilmadimu, shunday deb eshitganman.

— E, bir foyda, bir zarar bo'lsa, odamning kosasi hech vaqt oqarmaydi. Qanday kelgan bo'lsang, shunday ketasan bu dunyodan. O'n foyda, bir zarar desangiz, ham boshqa gap.

— Bizniki esa foydadan zarari ko'p bo'ladi.

— Unda bo'lmaydi. Lekin siz ham anoyi odamga o'xshamaysiz. Biz yotgan palata axir lyuks-ku. Unda unchamuncha odam yotolmaydi. Katta do'xtirning og'zini bir yog'lab qo'ymasangiz sizni bu yerda yottiradimi? Bir yerdan foyda ko'rmasangiz, shu ishni nima uchun qilasiz?

— Bilmadim, menga shu joyni ko'rsatdi, yotibman.

— Qayerda ishlaysiz o'zi?

— Gazetachiman.

— Ha bo'ldi, bo'ldi. Yozuvchi ekansiz. Sizdan qo'r-qishadi.

— Be, kim qo'rqiadi? Hozir o'zi gazetaga bir tanqid qilib yoz, otim chiqsin deydi.

Biroz kulishib oldik. Ko'pal Ko'palsinov o'z odatiga ko'ra ochilishib kulolmay faqat xi-xi-xilardi.

Yana eshik ochildi. Yana menga tanish bashara ko'rindi.
Ko'pal Ko'palsinovning uchinchi o'g'li kelgandi.

— Do'koni yopib kelaverdingmi?

Kenja o'g'ilning yuzi burishdi. Aftidan, u bunday gapni
ko'p eshitgan. Lekin ko'nikib ketolmagan.

— Ha, yaxshi novvot sotishni to'xtat endi. Kammutga
o't, kammutga'. Birdan-birdan qolsa ham, kisangda qoladi.

— Konfetchi ham ko'p, ota.

— Sen ham ortiqchalik qilmaysan.

Tashqariga chiqib ketmoqchi edim. Lekin bir narsaga
qiziqib qoldim.

— Nima olib kelding?

— Novvot.

— Qanaqa novvot?

— Shu o'zimiz yeydigan novvotdan. Boshqasidan olib
kelsang, damim qisib qoladi, degansiz-ku.

— Xo'p, yaxshi, manavini olib ket.

Ko'pal Ko'palsinov tumbochka ustidagi tugunni olib
o'g'liga uzatdi.

— Nima bu.

— Shashlik, og'ang olib kelibdi.

— O'zingiz yeng, mana, sheringizing bilan.

— Biz kasalmiz, yesak bo'lmaydi. Uyda kechqurun
ovqat pishirib o'tirma.

Ko'pal Ko'palsinov tugunni o'g'liga noiloj oldirdi.

Men qiziqqan narsa aynan shu edi. Anig'ini bilib tinch-
landim.

Ko'pal Ko'palsinov keyin hafsala bilan choynak-piyolani
artdi. Choynakka bir chimdimgina choy soldi.

Tumbochkani xonaning o'rtasiga tortdik. U o'g'li olib
kelgan novvotni o'rtaga qo'ydi. Ko'rib hayron bo'ldim. Buni
novvot emas, shakar desa bo'lardi.

— O'zimiz yeydigan novvot bu, — deb tushuntirish
berdi Ko'pal Ko'palsinov. — Baribir ortib qoladi, hech kim
sotib olmaydi. Ustidan choy quysang bilinmaydi nimaligi.

U shunday deb bir qisim novvot olib, piyolaga soldi.
Ustidan choy quydi. Keyin biroz kutib turdi-da, bir barmog'i
bilan choyni bulab yubordi. Keyin barmog'ini choydan

¹Konfetga.

chiqarib, bir yalab ham qo'ydi. Men ham noiloj novvot unidan, uni shunday deb atash to'g'riroq bo'lar edi, piyolaga solib ustidan choy quydim. Lekin uni bir ho'plashdan nariga o'tolmadim. Ko'z oldimda Ko'pal Ko'palsinovning piyola ichida harakatlanayotgan barmog'i aylanaverdi.

Ko'pal Ko'palsinov terga botdi.

— Bizga mana shu yaraydi, — dedi u. — Do'xtirlarning davolay olishlariga ham ishonmayman, lekin baribir yotish kerak. Yotgan bilan ham tinchlik bormi. Biri keladi, biri ketadi, ishni chala tashlab. Bunga ham qisinaman.

Shu payt xonaga kulimsiragancha xotinim kirib keldi. U mendan ham ko'proq Ko'pal Ko'palsinov bilan holahvol so'rashdi. Issiqliqna chuchvara olib kelganman. Sovutmay yeb olinglar, dedi. Bilib turibman, xotinim meni tinch, bermalol yotsin deydi, shu sababli hamma ishni qilishga tayyor.

— Hozirgina ovqatlangandig-a, — dedi Ko'pal Ko'palsinov afsuslangandek bo'lib.

— Qo'y etidan bo'lgan chuchvaraning o'mi bo'lak, — dedi xotinim, — yemasangiz bo'lmaydi deganday.

Men ham andak hazil qildim.

— Bu ovqatni bermalol yemasak bo'lmaydi. Xotinim hech yerda ishlamaydi, ovqat pishirishdan boshqa ishi yo'q.

Ko'pal Ko'palsinov xafa bo'larmikan deb o'ylagandim, yo'q aksincha, vaqt xush bo'ldi. Xi-xilash o'miga xo-xolashi mumkinligini ham ko'rsatdi.

Ikkimiz chuchvarani paqqos tushirdik. To'g'risi ochiqsan ekanmiz. Indamasa Ko'pal Ko'palsinov laganni yuvib bermoqchi ham edi.

— Ertaga bizni ayollar ham kelishadi. Hali ko'rasiz, — dedi u xotinim chiqib ketganidan keyin.

Men erta lab kasalxonadan chiqib ketdim. Chiqib ketayotgan paytda Ko'pal Ko'palsinov aytgan bir gap esimda saqlanib qoldi.

— Bordi-keldi qilib turaylik, bor tovog'im, kel tovog'im deyishgan.

— Ha, albatta.

YOMG'IR OSTIDAGI IKKI MANZARA

Yoz. Aslida yomg'ir yog'maydigan, yog'sa ham tez etagini yig'ishtiradigan vaqt. Lekin yog'ish to'xtama-yapti.

Yomg'ir tinishini kutib bekatda o'tirgan ikkita qariya gurunglashyapti.

- Iyulda bunday yomg'irni birinchi ko'rishim.
- Necha yoshdasiz?
- Yetmish birda.
- Men yetmish beshdaman. Men ham ko'rmagandim.
- Bu nimani alomati bo'ldi ekan?!
- Tabiat o'zgaryapti. Aytishlaricha, yuqorida muzliklar qo'zg'ala boshlabdi.

Qo'liga hassa ushlagan ko'zoynakli cholning so'nggi gapiga suhbatdoshi yoqa ushladi.

- Shu muzliklar bilan bu yomg'irni aloqasi bormikan-a?
- Albatta bor! Muz-suv demak. Suv esa bug'. Bug' esa siz ko'rayotgan yomg'ir.
- Qo'ying-ey. O'qituvchi bo'lganmisiz?
- Ha, fizikadan dars bergenman. Shu gapni bolalarga aytganimda ham ishonishmasdi.
- Yo'q, men ishonaman, lekin siz dunyoni "o'yin-o'yin" qilib ko'rsatayotganingizga qoyil qolyapman xolos.
- O'yin-o'yin, deganingiz to'g'ri. Yosh vaqtimizni o'ylang. Yo anavilarga qarang.

Bekatning ikkinchi chekkasida yigit bilan qiz o'tirishib-di. Ular shu chollar bo'lmasa bir-birining pinjiga kirib ketishmoqchi.

- Yomg'ir na degan yaxshi.
- Yigit qo'lini cho'zdi. Unga tomchilar tusha boshladidi.
- Shu yomg'ir hech to'xtamasa yaxshi bo'lardi.
- Qaniyi. Hamma uy-uyiga kirib o'tirishsa, biz shu yerdan ketmasak.
- Qiz yigitning yoniga yaqinlashdi.
- Hamma vaqt yomg'ir yog'sa, osmonni suvi yetadimi?
- Suv ko'p. Muzliklar bir qo'zg'alsa bormi... Hali qo'zg'algandir ham.
- Unda sovuq ham birga keladi?
- Yigit yaxshi bahona topdi.

— Unda men seni mana bundoq qilib sovuqdan saqlar edim.

Yigit qizni pinjiga oldi. Qiz yana ham shodlandi.

— Qarashyapti.

— Qarayverishsin. Bizga nima?

* * *

Shunday ajoyib havoda, qisini o'tiramizmi?

— Bizga qarashyapti.

— Kim.

— Anavi chollar.

Aslida chollar ularga qarashayotganlari yo'q edi. Ular faqat ketma-ket yo'talib olishdi. Keyin suhbatda davom etishdi.

Ulardan biri xo'rsinib oldi.

— Men esa bo'lди-bitdi novvoyman. Yaqin-yaqingacha har kuni to'rt-besh tandir non yopar edim. Biri ham ortib qolmasdi. Hammasini olib ketishardi. Shu ob-havo o'zgar-ganidan so'ng bo'g'inlarim sirqirab og'riy boshladi. Shunga qo'ydim ishni.

— Yaxshi qilibsiz, endi biz o'zimiz ham suvda qolgan bo'lka hisobimiz. Bir quyosh chiqsaydi.

— Koshkiydi, bir tuzga tushib, qumga ko'milsak.

Yoshlik bir guliston... Bir-biriga yopishib olganini qarang.

Yigit yana gap boshladi.

— Munir, yomg'ir haqida she'r aytaymi?

— Ayting.

*Yomg'irjon, boshimda soyabon bo'lgin,
Sevgilim ustida posbon bo'lgin.*

— E, qiziq ekan she'ringiz. Yomg'ir ham soyabon bo'ladi mi?

— Ha, ajoyib soyabon bo'ladi. Hech qachon ko'zga quyosh tushirmaydi.

Qiz labini chimirdi. Bu unga juda yarashdi.

— Yaxshi, posbon deganingiz nimasi?

— E shuni ham bilmaysanmi, bizni yomon ko'radigan odamlar yaqin yo'lamaydi.

Qiz mazza qilib kului. So'ng boshini yigitning ko'ksiga qo'ydi. Yigit qizning to'pidan ayrilgan bir tola sochini to'g'rilab qo'ydi.

— Yana bir pas o'tiraylik.

Ular ma'nisiz she'rdan ham ma'ni topishdi. Umuman, ular uchun hamma narsa, hatto yerda uzilib yotgan barg ham ma'nili edi.

— Endi ketmasak bo'lmas, — dedi chollardan biri, — yomg'ir hali veri to'xtamaydi.

— Ha to'xtamaydiganga o'xshaydi.

— Eson-omon uyga yetib olaylik. Keksaroq cholga yoshrog'i turishda yordamlashib yubordi. Keyin hassalar to'qqillab, ko'zdan uzoqlashdilar.

Chollar ketishganidan ko'p o'tmay bekatda trolleybus to'xtadi. Ichi bo'm-bo'sh.

Yigit bilan qizga trolleybus Qorabotirday ko'rindi. Ular noiloj minishdi. Bir lahzada yo'lda ketayotgan chollardan oldinga o'tib olishdi. Chollardan biri hassasini ko'tarib ishora etdi. Lekin trolleybus o'rta yo'lda to'xtarmidi?

MUZLATKICHDAJI KUCHUK

Asalni juda yaxshi ko'raman. Bolalikdan har bir ovqat oldidan ham, izidan ham shundan ozgina bo'lsa ham yeyishga odatlanganman. Ayniqsa, asalli choy ichganga nima yetsin? Hozir yoshim ellikka yetgan bo'lsa ham, asalxo'rligim ortsa ortgan, sira kamaymagan. Hech bo'lmasa, asal topilmay qolsa, choy qoshiqni bir yalab qo'yaman.

Xotinim ham har bir ovqat oldidan "asalingizni yeb oling" deb turadi. Bu doringizni ichishni unutmang, deganday gap. Asalxo'rligim bolalarimga ham o'tgan. Ular ham asal ko'risha ustiga tappa tashlashadi. Lekin bu borada men kabi batartib emaslar.

Bir kuni xotin tushlikka mastava pishirdi. Achchiqqina, ichsa bo'laveradigan mastava. Lekin to'g'risini aytsam mazasi sal kamroq. Har holda mastava osh emas-ku. Osh qil desam xotin tushmagur sabzi tugagan, go'sht oz, deb bahona topdi. Uni ham xafa qilmay dedim. Lekin shunda ham "asal" qo'shib bir chaqib oldim.

— Boldan so'ng mastava to'g'ri kelarmikan, xotinjon.

— Jonim, — dedi u avval nazokat bilan. Lekin baribir madaniyat masalalarida sal ishkali bor oxirini buzdi. — Muzlatkichda kuchuk huryapti.

— Bu nima deganing?

— Shuni ham tushunmaysizmi? Yana bu kishim til va adabiyot o'qituvchisimishlar. Obrazli ifoda bu.

Nihoyat tushundim. O'lganning kunidan degandek, avval asta-asta, keyin rosa ochilishib kuldim. Xotin ham menga qo'shildi. Bo'ldi tomosha. Televizor ko'rayotgan bolalar ham nima gapligini tushunmay "xi-xi" lasha boshlashdi. O'yin-o'yin chinakam xursandchilikka aylandi.

Mastavani ham o'zimni majbur qilib ishtaha bilan yedim. Kosa tagida kichikkina bir qizil murch yotgan ekan, uni ham beixtiyor bir-ikki chaynab yutib yuboribman. U murch emas, bir balo ekan. Og'zim ham yondi, ichim ham. Lekin bildirmadim. Yuzim sal bujmaygan yo tirishgan bo'lishi mumkin. Xotin buni sezmadni hisob.

Hammasi shunday yaxshi edi, chidasa bo'lardi. Lekin ertalab soqolimni olaman deb ko'zguga qarasam yuzimning hamma yeriga toshma toshib ketibdi. Qip-qizil va ko'rimsiz. Xuddi mastavadagi murchga o'xshaydi. Damimni ichimga yutib soqolimni chala oldim. Keyin nima der ekan deb, xotinga ro'baro' bo'ldim.

— Vyo, men o'lay, yuzingizga na bo'libdi?

— Na bo'libdi?

— Qizil murchday bo'lib ketibsiz-ku.

— Yo'g'e, dedim jilmaygancha. Shu paytda o'zimda hazil qilishga ham kuch topa oldim.

— Kuchuk tirmaladi.

— Qanaqa kuchuk?

— Muzlatkichdag'i kuchuk.

Xotinning kechagi kesatishiga munosib hazil bo'ldi. Biroz kulishib ham olishdik. Lekin ko'p o'tmay ikkimiz ham jiddiy tortdik.

— Hazilni qo'ying, dadasi, siz kasal bo'libsiz.

— Nahotki.

— Hovo, hovo. Bu yaxshi kasalga ham o'xshamayapti.

Xotin bilib turib yo beixtiyormi baribir yaramga tuz sepdi.

— Nafasing sovuq, odam o'lib qolmas bu kasaldan.

- Yo‘q, o‘lib qolmaysiz, lekin murchday bo‘lib yuraverish ham yaxshi emas.
- Nima qilamiz bo‘lmasa?
- Hozir “Tez yordam” chaqiraman.
- Lekin hech yerim og‘rimayapti.
- Ana shu yomon-da. Biron yeringiz og‘risa darrov o‘zingiz do‘xtirga chopardingiz.
- Balki kechagi mastavang yoqmagandir.

Aslida murch yoqmadidi, deb aytmoqchi edimu aytolmadim. Sizga murch ye, deb kim aytdi, deb xotin battar tarang qilishi mumkin.

— Mastavani hammamiz yedik-ku. Ana bolalaringiz ham hech narsa bo‘lmaqandek yurishibdi. Balki siz allergiya bo‘lgandirsiz?

— Mayli, nima bo‘lsa bo‘ldi. Lekin “Tez yordam” chaqirishning keragi yo‘q. O‘zim boraman do‘xtirga. Hozir tong bilan senga qaysi do‘xtirning ko‘zi uchib turibdi.

Xotin menga juda achinib qaradi, hatto bolalarim ham yuzimdagisi o‘zgarishni sira xushlashmadidi.

Poliklinikaning keng karidoridan yurib borayapman-u, hamma menga qaragandek tuyuladi. Go‘yo mana bu odam murch yutganmi deyishayotgandek. Har holda do‘xtirning huzuriga yetib keldim.

Pensiyaga chiqqaniga ham kamida o‘n-o‘n besh yil bo‘lgan va inqillab-sinqillab qolgan, hamma tekshirish va muolajalarni kursidan qo‘zg‘almay qiladigan do‘xtir, meni ko‘rishi bilan dodlab yubordi.

— Voy-bo‘y, shunaqa ham madaniyatsiz odam bo‘ladimi?

Bu endi o‘lganning ustiga tepgandek bo‘ldi.

— Nima qilibman madaniyatsiz bo‘lib?

— Nima ham qilolar edingiz? Qila oladigan ishingiz faqat yuzni dabdala qilish.

— Yuzimga toshma toshsa madaniyatsiz bo‘lavera-manmi?

— Siz yuzingizga toshma toshgani uchun emas, o‘z sog‘ligingizga qaramaganingiz va bizning oldimizdan, ya‘ni ko‘rigimizdan o‘tib turmaganingiz uchun, madaniyatsizsiz. Donishmandlar o‘z sog‘lig‘iga qaramagan odam madaniyatsiz odam, deyishgan. Buni inkor qilishga urinib ham yurmang.

Madaniyatsizligimni aniqlaganligini do'xtirning g'am-xo'rligi, deb tushunishga o'zimni ishontirdim va uning so'zlarini inkor etmadim. Hovurimdan tushib yana yuziga iltijoli boqdim.

— O'zi bugun shunday bo'ldi.

— Buning endi, ukajonim, sira ahamiyati yo'q. Bugun bo'ldimi, kecha bo'ldimi, fakt — shu bo'ldi.

“Nima qilay, qanday maslahat berasiz” degan so'zlarini unga aytmasam ham ko'zlarim bilan tushuntirganday bo'ldim. U bir lahma jim o'tirdi, keyin sigaret tutatdi. Azbaroyi xudo tamaki hidi yoqmasa, ham chidab o'tirdim. Oxiri u asosiy so'rovni boshladi.

— Nima yegandingiz?

Achchiq mastava ichganimni aytdim.

— Yana, — dedi do'xtir.

Yana nima yegandim o'zi. Non, choyni aytib o'tirish shartmi? Nihoyat esimga tushdi. Asal ham yalagandim-ku.

— Asal!

Do'xtir o'midan turib ketmoqchi bo'ldi. Lekin bu ishni eplolmadi shekilli, yana o'zini kursiga tashladi.

— Vo! — dedi u ko'rsatkich barmog'ini naq ko'zimning oldiga olib kelib. — Asalga allergiyangiz bor ekan.

— Asalni hamma vaqt yeymanku, do'xtir.

— “Nu i chto!” Ko'za kunda emas, kunida sinadi. Organizmingiz yarim asr chidab kelgan, sizga bildirmay. Siz unga holing nima, qanday darding bor demagansiz. Mana oqibati.

O'ylanib qoldim. Axir ming qilsa-da shifokor. O'ziyam otam zamondan buyon ishlab kelayotgan bo'lsa kerak. Mening o'yga cho'mganimni sezib, u avjiga mindi.

— Bilib qo'ying, asal sizning dushmaningiz! Uni o'zin-gizga yaqinlashtirmang.

Juda yomon bo'ldim. Axir qirq yillik qadrdom dushman bo'lib chiqsa-ya. Endi nima qilaman? Nima ham qilardim. Asalni ko'zdan butkul yo'qotdim. Yetti kecha-yu yetti kunduz nonni asal surkamasdan yeb yurdim. Uni choyg'a ham yaqinlashtirmadim. Bolalar ham asal ko'rmay zada bo'lib ketishdi. Lekin yuzimdag'i toshmalar qaytmadi. Aksiga olib oppoq betim sarg'aya boshladi. Axir faqat mastava rangimni yana nima ham qilardi?

Xotin yana mastava qilgan ekan, oxirigacha ichdim. Hayriyat ichidan murch chiqmadi. Lekin baribir avzoyi badanim lovillab ketdi. Aftidan, murch yaxshilab pishgan va ezilgan ko'rinadi.

— Gap asalda o'xshamaydi, — so'z boshladi xotinim. — Bir haftadan buyon mana yemayapsiz, lekin qaytmayapti toshmalaringiz. Boshqa bir do'xtirga uchrab ko'ring.

— U non yemang desa nima qilaman?

— Ey, hazillashmang. Nonga hech kim allergiya bo'lmaydi. Agar shunday bo'lsa birorta ham odam qolmasdi sizni ahvolingizga tushmagan.

Bama'ni gap. Nima ham qilardim? Ertasi kuni boshqa do'xtirga bordim. U chaqqongina, yosh yigit ekan, meni hayajonlantirib ham, qisintirib ham o'tirmadi. Birgina jo'yali savol berdi:

— Qanday achchiq narsa yegandingiz?

— Murchli mastava yegandim.

— Bundan keyin murchli narsa yemang, umuman achchiq narsa sizga to'g'ri kelmaydi.

Ustimdan tog' ag'darilganday bo'ldi. Tavba, dedim o'zimcha, xotin bilan ikkimiz aqli odammiz deb yuribmiz. Shunga farosatimiz yetmabdi-a. Hamma gap tirnoqday qalampirda ekan-ku. Meni yana bir narsa juda qiziqtirardi. Shu sababli do'xtirga savol berdim:

— Asal yesam bo'laveradimi?

— Bo'laveradi.

— Toshma toshmaydimi?

— Men shu paytgacha asaldan toshma toshganini ko'rmanman.

Juda xursand bo'ldim. Do'xtirning qo'lini mahkam siqib, uzoq minnatdorchilik bildirdim.

— Qo'shni poliklinikadagi do'xtir asal allergiyangizni qo'zg'atadi, degandi.

— Ha, oqsoqolni aytayapsizmi? U kishining o'zlarining shirinlikka allergiyalari bor. Shu sababli aytgan bo'lishi mumkin.

Uyga juda vaqtim xush bo'lib bordim. Buning ustiga xotin osh ham damlabdi. O'z qaytdisiga' yebman.

¹Bo'g'zimga kelguncha.

— Xotin, — dedim keyin choyga asal qo'shib ichar ekanman. — Allergiyam qalampirdan ekan.

— Xudoga shukur. Asalga o'rgangan og'zingiz yomon bo'lar edi bo'lmasa.

Men uning haziliga javoban hazil qildim.

— Muzlatkichdan kuchuklarni chiqarib yubor. Bugundan boshlab uni to'ldirib qo'yaman.

— Qaniydi.

— Qalampir topsang endi mastavaga solib yurma. Biror yerga osib qo'y. Ko'z tegmaydi.

Rosa kulishdik. So'ng o'mimdan shaxd bilan turib ketdim. Muzlatkichni to'ldirish mas'uliyatini chuqur angladim. Axir endi uni yana kuchuk hurmaydigan qilishim kerak.

KIM AYBDOR

Aeroport oldidagi maydonning yonboshidagi chog'roqqina choyxona. Bu yerda parvozga ertaroq kelgan yo'lovchilar bir oz dam olishadi, tamaddi qilishadi, bir so'z bilan aytganda, "vaqt ni o'ldirishadi".

Choyxonachi, rus yigit, issiq suvgaga sal-pal choy qo'shib sharbat bahosida sotadi. Kabobpaz ham undan qolishmaydi. Chumchuqning boshiday keladigan ikkita go'sht bo'lagiga tirmoqday yog' qo'shadida, kabob deb, aytganiga sotadi. Yo'lovchi uchun buning ko'p ham ahamiyati yo'q. U bir necha soatdan keyin uyida bo'ladi. Shu sababli pulning yuziga qarab o'tirmaydi.

Mazkur choyxonada biroz o'tirmasam bo'lmaydigan bo'lib qoldi. Samolyot uchishiga hali ikki soatdan ko'proq vaqt bor. Beixtiyor choyxonaning qamishdan to'qilgan pardalar bilan o'rabi olingan, oldi ochiq kabinasidan o'rin egalladim. Qamishlar oralig'idan choyxona oldidagi gulzorda ochilib turgan atirgullar ko'zga tashlandi. Hayot naqadar go'zal, o'yladim o'zimcha, bir necha soatdan keyin uyda bo'laman. Xotin albatta osh damlab qo'ygan bo'ladi. Hammaga sovg'a-salom tarqataman, bolalar xursand bo'lishadi. Nima uchun odamzod qandaydir bir yetishmovchilik, qoniqmaslik hissi bilan yashaydi?

Choyxonachining qadamlari xayolimni buzdi, choynak va piyolalarni stolga qo'ydi. Endi choyni shopiraman deb

turganimda, birdan ko'zim bir necha stol narida o'tirgan odamga tushdi. Uni ko'rib ko'nglim allanechuk bo'lib ketdi. Axir u xotirjam yo'lovchiga yoki toliqqan musofirga sira o'xshamasdi. Yuzlari shishib ketgan, ko'zları ovga chog'langan yirtqichnikiday bir nuqtada qotib qolgan. Unga e'tibor qaratishni istamadim. Bunday piyonista, o'zligini unutgan odam kammi dunyoda? Balki u bir baxtsizlik qurbanidir. Unga yana qarashga qandaydir ehtiyoj sezdim.

Bir necha stol narida o'tirgan yo'lovchilar o'midan qo'zg'alishdi. Boyagi odam xuddi shuni kutib o'tirgan ekan, bir sakrab o'midan turdida, bo'shagan stol oldiga keldi. Tarelkada qolgan gazaklarni, nonni olib shoshib-pishib yeya boshladi. Keyin yana o'z o'miga borib o'tirdi.

U odamga juda qiziqib qoldim. Har xil kishilarni ko'rganman-u, bunaqasini uchratmagandim axir. Bir imlab kabobpazni yonimga chaqirdim.

— Bu kim?

— Bir bekorchi, kunda-shunda.

— Uni bu yerdan ketkazib bo'lmaydimi, axir ishtahani bo'g'ayapti.

Kabobpaz ham xuddi shuni istayotgan ekan, u kishining yoniga bordi. Qulog'iga bir narsa deb shivirladi. Bu gaplar unga kor ham qilmadi. Keyin qattiqroq gapira boshladi. Ta'siri bo'lmadni. Kabobpaz bir qo'li bilan meni ko'rsatib, aftidan, shu odam ketsin deyapti, deb tushuntirdi. Keyin qo'lidan ushlab tortqiladi. U odam qo'zg'almadni. Keyin kabobpaz mening oldimga kelib astagina shundai dedi:

— Uni ketkazishning hech iloji yo'q.

— Militsiyaga topshirsa bo'lmaydimi?

Kabobpazga bu taklif uncha yoqmadni. Chunki choyxonada ozmi-ko'pmi janjal yo ko'ngilsizlik bo'lsa, uning rizqi qirqiladi. Men ham buni tushundim va gapni cho'zib o'tirmadim. Menga nima, baribir tez ketadigan odamman. O'sha odamni unutishni istadim va yana orqamga o'grilib gullarga qaradim. Nima uchundir ular avvalgidek juda fayzli va chirroyli ko'rinnadi. Beixtiyor yana o'sha odamga tikildim.

U endi ancha dadillashib olgandi. Men uni tushunishni istadim. U esa hech narsani tushunishni istamas, faqat biror-bir yegulik, ayniqsa ichimlik ilinjida edi. Kutilmaganda u menga qarab tirjaya boshladi. Qoshu ko'zlarini o'ynatdi.

Buni yoningga boraymi, ulfatlashmaymizmi, degan ishora sifatida tushundim. Tabiiyki, menda bunday istak yo'q edi. Lekin undan uzoqlashishni ham istadim.

Hayollarim birdan yerga tushib singan piyoladay titrab ketdi. U odam beto'xtov aksa ura boshladi. Aftidan, kuchli shamollagan. U og'zidan, burnidan oqqan suvni qo'li bilan artib yerga siltab tashladi. Buni ko'rish endi qiyin edi. O'mimdan qo'zg'aldim. Kutilmaganda u xayr, yana kelib turing deganday tabassum qildi. Men unga qo'limdan kelgan birgina yaxshilik qiloldim. Oldimga keltirilgan kabobdan totmadim ham. Ketib borar ekanman, u tezlik bilan o'mimni egallaganini va kabobni shoshilib og'ziga solayotganligini aniq his qildim.

Samolyot osmonga ko'tarildi. U odamni nima shu kuyga soldi ekan. Yaqinlarining mehrsizligimi, yoki birovlarining muruvvatsizligi?

OXIRGI SINOV

Matematika muallimi Odil Abdurahmonov shahar madaniyat va istirohat bog'ida joylashgan "shashka-shaxmat" klubiga borishni va u yerda shaxmat o'ynashni xushlamasdi. Avvalambor bu yer to'rt tarafi ochiq bostirma xolos. Uning ichida shamol ko'lankaday izg'ib yurardi. Qolaversa, temir stollar ustiga qo'yilayotgan donalarning taqillashi bir lahza ham tinmaydi. Odatda, klubga havaskorlar to'planishiadi. Ularga o'yindan ham ko'proq shovqin-suron, askiya, har xil qiyqiriqlar qiziqarli. Ko'pchiligi o'zları o'ynab-kalla ishlatib emas, balki ko'rib kuzatib, aql o'rgatib, yutqazgan o'yinchini kalaka qilib dam olishadi. O'n-o'n ikki odam taxtaga tikilib xayol sursa yigirma-o'ttiz kishi ularni o'yinni yaxshi bilmaslikda, vaqt ni bekorga cho'zishda ayblab turishadi.

Ishqibozlardan chidamsizroqlari "uni yur, buni yur" deb taxtaga qo'llini cho'zishdan to'xtab tura olishmaydi. O'yinchiesa ular maslahatiga amal qilish, jarga qulash bilan barobar, ekanini yaxshi biladi. Shu sababli u hech kimning gapiga kirmaydi. Ishqibozlar asosan ko'zini oldidagidan boshqa narsani ko'ra olmaydigan-sarmast odamlar.

Odil Abdurahmonov bunday holatga qancha tushgan.

Uni “ana sport ustasi kelyapti” deb xursandchilik bilan kutib olishardi. Lekin hamma raqibiga yordam ko’rsatishga intildi. Har safar u yutganida bu tabiiy hol hisoblanardi. Lekin agar o’yin durang bilan yakunlansa hamma raqibini qutlardi. Agar yutqazib qo’ysami, bu sharmandali hol edi. U o’yinlardan ko’ngli to’lmay joyidan qo’zg’alsa darrov o’rnini egallashardi. Klubdan chiqar-chiqmasidan “sport ustasi”ni unutib yuborishardi.

Bugun Odil Abdurahmonov klubga maktabdosh do’sting qistovi bilan oyog’i tortmay keldi. Do’sti yur bog’ni bir aylanaylik, shaxmatxonangni ham bir ziyorat qilaylik, deb sira qo’ymadi. U avvaliga “ko’pning orasida xomtalash bo’lishimni istaysanmi” deb ko’nmadi. Keyin arzimagan gap uchun do’stimni xafa qilmay dedi.

Odil Abdurahmonov yo’l-yo’lakay bolaligini esladi. U paytda ham bor edi shu klub. Lekin boshqacharoq edi. Tevarak-atrofi odam bo’yi g’isht bilan o’rab olingan edi. U oliygojni tamomlagan vaqtarda klub yangilandi.

U shu paytlarda klubni juda yaxshi ko’rardi. Uzun bo’yli taxta oyog’i uzoqdan, ham o’zidan darak berib turuvchi urush faxriysi klubning mudiri edi. Uning kelayotganligi uzoqlardan ham darrov ma’lum bo’lardi. Odil Abdurahmonov bu amakining kelishini qancha kutgan. Taxtaning asfaltga zarb bilan urilishi uning uchun naqadar yoqimli tuyulgan.

Klub mudiri uning-hammadan burun shaxmatxonaga tashrif buyurgan bolakayning boshini silab-silab shaxmat taxtalarini qo’liga berardi. U esa chaqqonlik bilan taxtalarini stollarga joylashtirib, donalarga terib qo’yardi. Shu orada klubga odamlar oqib kela boshlashardi.

Odil Abdurahmonov bir-ikki yil ichida katta yoshdagi shaxmatchilar bilan ham tengma-teng o’ynay boshladи. Yana bir yildan so’ng hammani yutadigan bo’ldi. Klubda o’tkazilgan bir necha musobaqada g’olib chiqdi. O’shanda u hali o’n beshga ham to’limgan edi.

Bir kuni u otasiday bir odam bilan shaxmat o’ynadi. Uni bir emas, besh marta yutdi. Raqibi juda hijolat bo’ldi, kayfiyati buzilganligini yashira olmay qoldi. Nima qilarini bilmay boshdagи shlyapasini olib stolga qo’ydi. U tepakal ekan. Boshini biroz qashlab turdi-da, uch-to’rt tola uzun sochlari

bilan tepakalini yashirmoqchi bo'ldi. Odil Abdurahmonovning kulgisi qistadi.

— Ha, professor, odamiga tushmagan ekansiz, — dedi tepakalning yonboshida turgan sherigi. — Endi ertaga ham-maga aytib chiqaman, qaytib maqtanmaydigan bo'lasiz. Sizlar ikkingiz guvohsizlar.

Guvohlardan biri pak-pakana, xuddi g'ozdek lapanglab yuruvchi shapkasini qoshigacha bostirib kiygan, amaki uning oldiga kelib qo'llarini mahkam siqdi.

— Bolakay, esingdami, bir hafta burun meni ham qon qaqqhatganding.

Odil Abdurahmonov amakiga tikildi. Ha, rostdan ham tanish qiyofa. Bir hafta burun shapkasiz edi. Aftidan, sochlarini oldirgan. Amaki so'zida davom etdi.

— Bu tog'angga men ko'p maqtanma, seni bolangday bir bola ham yutadi dedim, ishonmadi. Bahs boylashdik, agar u seni yutsa men ziyofat beradigan, sen yutsang u ziyofat bera-digan bo'ldi. U shunday degancha o'zining yoshiga va jus-sasiga yarashmagan bir chaqqonlik bilan qo'llarini yuqori ko'tardi va barmoqlarini bir-biriga uring qattiq qarsillatdi. Bu "men yutdim" degani edi. Odil Abdurahmonov "professor odam ekan, uyatga qo'ydim" deb hijolat bo'ldi va ohista so'radi.

— Institutda o'qituvchimisiz?

Gapni yana pakana amaki ilib ketdi.

— Qaydan ham, mol bozorni bozorqo'mi bu, lekin kallasi professornikidan zo'rroq ishlaydi. Qayerda qanday yurish kerakligini oldindan biladi. Lekin shaxmatdamas, pul topishda.

— E bo'ldi, yurlaring, — dedi "professor", — sen bola ham biz bilan yur, aroq ichmasang ham tabaka yersan.

— Yo'q kech bo'ldi uyg'a borishim kerak.

— Ixtiyorin.

Uch ulfat kula-kula restoranga yo'l olishdi. Odil Abdurahmonov birinchi marta o'shanda o'yindagi yutuq ham kimningdir manfaatiga xizmat qilishini tushunganday bo'ldi...

Ular klubga kirib kelishi bilan ikki-uch odam o'r'in bo'shatishdi. Odil Abdurahmonov shunchaki o'yinlarni

kuzatib turmoqchi edi, bo'lmadi. Uni hali ham tanishar ekan. Basavlat bir odam o'yinga taklif qildi. Beixiyor u taxta qarshisidan joy oldi, Lekin kutilmaganda o'sha odam o'mini uzun bo'yli, mo'yabi endigina sabza urgan yigitchaga bo'shatib berdi. Odil Abdurahmonov ham o'midan turmoqchi edi basavlat odam unga iltijo bilan tikildi va yalingansimon ohangda shunday dedi:

— Odiljon, bu juda qobiliyatli yigit. O'zimizni bolamiz. Bir o'ynab ko'ring, ishonmasangiz mana, do'stingiz Beknazар ham biladi.

U Beknazarga nima gap deganday tikildi. Beknazар mayin tabassum bilan unga o'ynay qol degandek ohista bosh silkitdi.

Odil Abdurahmonov o'zim ham bir vaqtlar otamday odam bilan o'ynab uni yutganman-ku, deb xayolidan o'tkazdi va taxtani aylantirib qo'ydi. Bu yigitchaga "yurish sizdan degani" edi.

Yigitcha ikki-uch yurishdan so'ng shaxmatdan deyarli bexabar ekanligini ko'rsatdi. Bu Odil Abdurahmonovga sira ma'qul bo'lmadi, ensasi tirishdi. Mot qilishga shoshilmadi. Lekin raqibining bilimsizligi tobora kuchayib boraverdi.

Yigitchaga o'z o'mini bo'shatib bergen kishi biroz o'ylanib turdi-da, Odil Abdurahmonovning yaqiniga keldi va uning qulog'iga shivirladi:

— Odiljon, Adhamjon yutishi kerak.

Odil Abdurahmonov hayron qoldi. Shuncha yoshga kirib sochlariqa oq oralab, bunday ko'rsatmaga duch kelmagandi.

— Nega?

— Adhamjon Abduhalil akamning o'g'li. Buni bilarsiz deb o'ylagan edim. Beknazар do'stingiz aytmadimi?

Odil Abdurahmonov Beknazarga angrayib qaradi. Do'sti g'alati bir tirjayish qildi.

— Abduhalil aka kim o'zi?

Endi shivirlashga ehtiyoj qolmadı. Yigitchaning homiysi go'yo hech narsa bo'lmagandek gapira boshladı.

— Abduhalil akani bilmaydigan odam ham bor ekan bu shaharda. Siz gorkomingizning sekretarini hali tanimaysizmi?

— Abduxalil Qoraboyevmi?

Homiy kulimsirab boshini tebratdi.

- Yutqazmasam nima bo'ladi?
- Unday bo'lishi mumkin emas.
- Tushunmadim.

— Akam do'stlari oldida o'g'lim champion Odil Abdurahmonovni ham yutadi deb qo'ygan ekanlar. Endi u kishini yolg'onchiga chiqarsak bo'lmas.

U yana Beknazarga tikildi.

— Beknazar yaqinda gorkomda instruktor bo'ladi. Siz ham kam bo'lmaysiz. O'zingiz ishlaydigan mакtabning zavuchligi, boring-e direktorligi sizniki. Sizni ko'pdan ko'z ostiga olib qo'yganmiz. Bugungisi oxirgi sinov xolos.

Odil Abdurahmonov tevarak atrofiga razm soldi. Klubda o'zlaridan boshqa hech kim qolmagandi. Aftidan, buning harakati qilingan.

Odil Abdurahmonov o'sha odamning galstugidan tortib bir adabini bermoqchi, keyin Beknazarning yuziga musht tushirmoqchi bo'ldi. Lekin o'zini tiydi. Xayoliga shunday fikr keldi: bir yutqizish nima degan gap? Shunday yutqizishni izlab yurgan, istab yurgan, sotib olishga intilayotgan qanchadan-qancha?

- Siz kimsiz o'zi?
- Gorkomning orgotdeli.

— Rahmat, lekin men shaxmat o'yinchisiman, siz o'ylagan o'yinchi emas.

Orgotdel "yaxshilikni bilmaydigan odam ekansiz" deganday tikildi.

Yigitcha esa ikki qo'li bilan boshini changallagancha taxta ustiga egilib, hech bir qarorga kelolmasdi. Unga yurish uchun yo'l qolmagandi.

Odil Abdurahmonovning yigitchaga ichi achishdi. U ko'ziga taxtaning chekkasida qamalib qolgan piyodaday tuyldi. Keyin birdan o'zi ham shunday ahvolda ekanligini anglatdi. Beixtiyor qo'li bilan taxta ustidagi oqu qora donalarni bir-biriga aralashtirib yubordi. So'ng yigitchaga qo'lini uzatdi.

- Siz yutdingiz, yigitcha.
- Yo'q, sizda yurish ko'p edi.

Odil Abdurahmonov kulimsiradi. So'ng klubdan tezroq chiqib ketishga intildi. Nogohniy sovuq shamol uning yelkalariga urildi.

Y O' L

Kampirni manzilga yetkazish oson bo'lmadi. Buning uchun salkam sakson kilometr yo'l bosishga to'g'ri keldi. Tekis yo'lda vaqt o'tgani bilinmadi. Kampir o'z xayollariga berilganicha og'iz ochmadi. Yonidagi nabirasi ham churq etmay o'tirdi.

Odatda yo'lovchilar undan-bundan gapirib haydovchini zeriktirishmaydi. Kampir va uning nabirasi esa og'zilariga mum solishganday. Haydovchi ularning qasdiga radioning ovozini ko'tardi. Yo'l bo'yи qo'shiq eshitib keldi.

Mushkullik safar nihoyasiga yetayotganda, ya'ni kampir yashaydigan uyga yaqin qolganda boshlandi. Oldin katta yo'l chorrahasidan aylanib olishda chorak soat kutishga to'g'ri keldi. Katta-kichik mashinalar izi uzilmay kutib turdi. Bunday holatni haydovchilar "oyoqdan qolish" deyishadi.

Nihoyat haydovchi bir amallab "Tiko"ni chapga burdi. Keyin yana chaproqqa aylanishga to'g'ri keldi. Bir avtomashina sig'adigan yo'lidan o'tguncha haydovchi jon hovuchlab, oldindan boshqa mashina chiqib qolmasin-da degan xavotir bilan, bordi. Keyin Shovot kanalining yonboshi bo'ylab ham salkam bir kilometrcha yurishga to'g'ri keldi. Undan keyin yana chapga, ko'p qavatli uylar oldidagi o'nqir-cho'nqir maydoncha tomonga burilishdi. Kampirning uyi eng chekkada nurab qolgan tandirdan ham nariroqda ekan. Tandir birdan qulab tushmasin deya haydovchi tezlikni yanada kamaytirdi.

Kampirning nabirasi mashinadan birinchi bo'lib tushdi. Keyin sira shoshilmasdan buvisining yerga tushishiga ko'maklashmoqchi bo'ldi.

Kampir mashinadan tushgunicha bir hol bo'ldi. Nabirasi ham aftidan biroz dovdirroq shekilli, bu ishni hadeganda uddalay olmadi. Haydovchining sabri chidamay mashinadan tushib o'zi yordamlashib yubordi. Uning hafsalasi pir edi. Shuncha vaqt ishdan qoldi. Qolaversa, kun bo'yи o'rnidan qo'zg'almasdi. Bugun esa majburan kampirga yordamlashdi.

Kampir oldindan kelishilgan pulni to'liq berdi. U haydovchi o'zini deb ancha aziyat chekkanligidan xijolatda edi. Shu sababli haydovchiga birgina gap aytdi.

— Bolam, alashtirma¹. Man o'limning yo'lidagi odamman.

Haydovchi bunday gapni umrida eshitmagan edi. U o'zini taksi haydovchisi emas, noshud bir besabr va beshukur boladay his qildi. O'zi kampirning yoshiga yetadimi-yo'qmi, xudo biladi. Qolaversa, odamning o'limning yo'liga kirgalligini sezishi, bu holatni osoyishtalik bilan qabul qilishi va boshqalarga bildirishi naqadar dahshatli. Balki bu dahshat emasdur. Iymonlilik belgisidir.

Kampir va uning nabirasi uy eshigiga yetay deb qolganda haydovchi ularning ortidan yetib bordi.

Ona, — dedi u ohista. Kampir o'grilib qaradi.

— Men sizdan pul ololmayman.

Haydovchi bir dasta pulni kampirga uzatdi. Kampir olmoqchi emasdi, lekin u iltijo qildi:

— Oling, ona bir duo qilsangiz bo'lgani.

— Illohim, yo'llaring tunganmasin, — kampir duoga qo'l ko'tardi.

Kampir endigina oyoq ochayotgan² boladay ehtiyyotkorlik bilan uyiga kirdi.

Haydovchi mashinasiga qaytib radioni o'chirdi. So'ng kampir kirib ketgan uyning derazasiga tikilib xayol surdi. Naqadar shafqatsiz bo'lmasa bu so'ngi yo'l. Unga taksi haydash bema'ni ishdek tuyulib ketdi. Chunki ertaga ham uning nashinasiga ko'p odamlar minadi. Ular qayoqqa yo'l olishlarini kim biladi?

MUZ KO'NGIL

Men bu odamni ko'rganda titrab ketaman. Chunki yonidan o'tsang, albatta biror yoqimsiz gap aytadi. Buning uchun hech qanday imkoniyat topmasa, hech bo'lmasa bir yovqarash qiladi. Go'yo hamma undan qarzdor, hamma tili qisiqday. Bu odam-qirq yillik devordarmiyon qo'shni. Qirq yil unga chidab kelganimga "rahmat" deyish kam.

Bir kuni ertalab ishga ketayotsam u mendan "qayoqqa" deb so'radi o'ziga xos suzag'on ovoz bilan. "Ishga" dedim.

¹ Xafa bo'lma.

² Yurayotgan.

— Ishga, ishga, — deguncha u o'zicha g'udrandi, — sizlar ishlarmidingizlar, bekorga vaqt o'tkazasizlar, gap sotasiszlar.

Nima deyishimni bilmadim. Axir u janjalni sotib oladi-ganlar toifasidan. "Sening nima ishing bor" desam, azonlab dilim xufton bo'lishi turgan gap. Shu sababli indamay o'tib ketaverdim. Yonimda nabiram bor edi. U birdan tilga kirdi:

— Ishga, ishga deysiz, indamay o'tib ketaversangiz bo'lmaydimi?

— Ishga desam nima bo'libdi. Qolaversa, indamay o'tib ketaverish odamgarchilikdanmi?

— Endi kuni bo'yи sizni g'iybat qiladi. Siz odamgarchilik qilaman deb yuravering.

Besh yashar bolaning bu gaplariga hayron qoldim. Nima deyishni bilmadim. Shu ham mendan aqlliyoqdir, deb o'yladim. U buni isbot qilmoqchi bo'lganday yana bir gap aytdi.

— Ota, siz shu odamdan qo'rqsiz-a?

— Nega qo'rqrar ekanman.

— Bo'lmasa nega unga ko'rmaslikka harakat qilasiz?

— Shu qo'rquvmi?

— Nima bo'lmasa?

— Bu andisha, botirman, deb hamma bilan urishaversang odamlar axmoq deyishadi. Yur, yaxshisi senga muzqaymoq olib beraman.

Men uni bu safar ham yenga olmadim. Uning oddiy man-tiqi chuqur mulohazasiga tan berdim. Muzqaymoq bahonasi ham aslida to'g'ri va aniq muloqotdan qochish edi. Lekin men unga o'mi bilan bir narsani o'rgatdim.

— Mana bu ariqdagi suvni ko'ryapsanmi?

— Ko'ryapman, xushro'y bo'lib oqayapti.

— Agar shu suv sovuqdan muzga aylansa oqa oladimi?

— Yo'q.

— Barakalla, shu qo'shnimizning ko'ngli ham muzga aylangan, shu sababli og'zidan hamisha sovuq gaplar chiqadi. Mening ham shunday bo'lishimni istaysanmi.

— Yo'g'e.

— Bo'lmasa meni undan qochadi, deb o'ylama.

— Yaxshi.

U mening ko'zlarimga tikildi. Men uning ko'nglidagi

buloqning ko'zini ochishga bir qadar muvaffaq bo'lganimni tushundim. Buni uning o'zi ham bir gap bilan tasdiqladi.

— Ota, nima desa deyaversin, biz parvo qilmaymiz. Bir narsa so'rasha javob ham beraveramiz.

TO'Y

- Abdulla, onangning ismi kim?
- Nima qilmoqchisan?
- Aytaver, kerak bo'lib qoldi.
- Rajabgul.

Alfiya to'y boshqaruvchiga "bilib oldingizmi" degandek qoshlarini suzib tikildi. Keyin jilmayganicha "Rajabgul ekan" dedi. Kattakon lampochka yonida Alfiyaning og'zida-gi tishlar yaraqlab ko'rniib ketdi.

Aslida kampirga so'z berish to'y boshqaruvchining xayoliga kelgandi. U do'sti Abdullani xursand qilmoqchi edi. Onasining nomini so'rashni esa ep ko'rmagandi.

Dolanni boshiga ko'tarib chinqirayotgan estrada ansamblining sadolari tindi. "Karavay" qo'shig'ini o'zining bor mahoratini ishga solib aytib bergen ingichka ovozli xonanda hammaga ta'zim qilgan bo'ldi. Qarsaklar eshitildi.

Kampir bir chekkada qimtinib o'tirardi. "O'g'lim yoshlari orasida, men nima qilaman, kechki to'yni mensiz kelin bilan birga qilaveringlar" desa Abdulla ko'nmadi. "Neujeli shunday kunda ketib qolasiz" dedi.

Kampir o'g'lining ko'ngli og'rishidan qo'rqi. Axir Abdulla o'zi farzand ko'rgani yo'q. O'tgan yili "tug'maysan" deb avvalgi xotinini ajratib shu Alfiyaga uylandi.

Alfiya allaqayerda kassirmi, buxgaltermi bo'lib ishlar ekan. Ishqilib topishishdi. Shundan so'ng Abdulla Alfiyaning otasidan qolgan kenggina uyda yashay boshladи. Bugun esa Alfiyaning avvalgi eridan bo'lgan Rashidning yosh to'yi. U beshga to'layapti. Kampir ilgari Rashidni bir marta ko'rgan. Astagina boshini silagan edi.

— Aziz do'star, endi navbat bugungi tantanalarning "aybdor"i Rashid Abdullayevichning sevimli momolari Rajabgul xolaga!

- Kampir bir qiziq bo'lib ketdi. To'y boshqaruvchi ikki

qator qilib qo'yilgan stollar orasidan o'tib unga yaqinlashdi. Mikrofonni og'ziga yana ham yaqinroq olib borib qaynona va kelin orasidagi munosabatlarni, mehr-oqibatli o'g'ilni maqtadi.

— Xolajon, nabirangiz qanday odam bo'lishini istar edingiz. U o'zicha juda yengil deb hisoblagan ana shu savloni berib, iltifot bilan mikrofonni kampirga uzatdi.

Kampirning yuzlaridan ter chiqib ketdi. Shunday paytda turish kerak shekilli deb o'ylab o'rnidan qo'zg'aldi. Mikrofonni og'ziga yaqin olib borishni ham unutib, sekingina gapira boshladi.

— Shu o'zimizga o'xshagan bo'lsin. Ota-buvalarini unutmasin. El-yurtiga xayr keltirsin. Abdulla bilan kelinning bolalari ko'paysin.

Kampirning so'zlarini ko'pchilik eshitmadi. Lekin baribir hamma qarsak chaldi. Abdullaning maktabbosh o'rtog'i Po'lat "yashang kampir, molodes" deganicha o'rnidan irg'ib turib bir stakan aroqni oxirgi tomchisigacha sippordi.

Alfiya kampirning so'nggi so'zidan keyin qoshlarini bir chimirib qo'ydi. Aftidan, u yana bola tug'ishni istamasdi.

To'y boshqaruvchi "lazgi" bo'lishini, o'ynamaydigan bironata ham tirik jon qolmasligini e'lon qildi. U bir chekka-da o'tirgan do'ndiqqina juvon bilan "tayyormisiz" degandek ko'z urishtirib ham oldi. Keyin jasurlik uchun stol ustidagi aroqdan quyib ichdi.

Estrada asboblari bilan chalingan "lazgi" qanaqa zo'r bo'lsa, o'zin ham shunaqa qoyilmaqom bo'ldi. Raqsga tush-magan odam qolmadidi. Sal bo'shlik qilganda kampirni ham o'rtaga sudrab chiqishardi.

Abdullaning do'sti Qosim prorab hammani kuldirdi. U qornining juda katta ekanligini hisobga olmaganda, qora ayiqqa o'xshadi. Balki kampirga shunday tuyulgandir.

Qosim mazza qilib raqsga tushayotganda, oriqqina bir yigit uning ro'parasiga kelib o'ynay boshladidi. Qosim juda yayrab ketdi. U bir chinqirib olib, qorni bilan yigitni itara boshladidi. Unga o'ynashga ham, o'ynamaslikka ham yo'l bermadi. Shu tahlid devorgacha qisib olib bordi.

Kampir astagina "astag'furullo" deb qo'ydi. Hech kim

eshitmadimikan deb u yog', bu yog'iga qaradi. Lekin hech kimning uning bilan ishi yo'q edi.

Stolning ustida ovqat uchun ham, ichimlik uchun ham joy qolma-di. Kampirning oldiga shashlik qo'yishayotganda konfet solingan tarelka tushib ketishiga sal qoldi. U yerga tushgan bir dona konfetni qo'liga olib "uf-uf'ladi. Keyin cho'ntagiga solib qo'ydi.

Yana "lazgi" takrorlandi. Bu gal raqsga Qosim prorabning qo'g'irchoqdek xotini Baxtigul ham chiqdi. U eriga noz-karashma qilib o'ynadi. O'ynab turib bir qo'li bilan Qosimning peshonasidagi temi ro'molchasi bilan artib qo'ydi. "Kasimchik, ti ustal", deb so'radi.

Kampir Qosim prorab bilan Baxtigulga hayron qoldi. O'g'lining tengqurlari va do'stlari sifatida ularni ancha vaqt-dan buyon bilardi. Axir "xarakterlarimiz to'g'ri kelmadi" deb ajralishmoqchi bo'lishgani, bir-birlarining soyasini savab yurishgani xuddi kecha edi. Bugun esa go'yo Layli-Majnun. Kampir "ichkilik oxiri baxayr bo'lzin" deb qo'ydi.

O'rtaga Abdulla ham chiqdi. U juda yengil, gruzinlarga o'xshab o'ynay boshladi. Kampir basavlat ko'rsa ko'rgudek o'g'li borligidan quvondi. Shu paytda erining "o'g'ling men kutgan bola bo'lmaydi" degani esiga tushdi. O'zicha "axir hozirgi yoshlар..." deb pichirlab qo'ydi.

To'y boshqaruvchi ham o'sha do'ndiq ayol bilan rosa o'yin tushishdi. Tansa boshlanishi bilan bir-birlariga yopishib olishdi. Kampir umrida ko'rmagan o'yinni Alfiya va uning dugonalari ko'rsatishdi. Ular qo'llarini u yog'idan bu yog'iga irg'ishlab ajabtovur raqs tushishdi. Kampirning fahmlashicha, bu o'yin "tvist" deb atalarmish.

To'y taassurotlari bilan kampir uyiga qanday yetib kel-ganini bilmadi. Choli hali uxlamagan ekan. "To'y yaxshi o'tdimi" deb so'radi. U "juda yaxshi bo'ldi, o'g'lingiz sizni ko'p so'radi" dedi. Chol indamadi. U yana biron narsa so'rasha, kampir javob bermoqchi edi. Lekin chol boshqa savol bermadi. Ko'zini ham yummay shipga tikilib yotaverdi. Biroz o'tgach "chiroqni o'chir" dedi.

Kampirning tushiga ham to'y kirdi. U Abdullaning, o'z o'g'lining to'yida turganmish, cholini hadeb o'yinga qis-tarmish.

JIMJILOG'

Men ertak yozayotgandim. Xotinim namoz o'qirdi. Besh yashar nabiram velosipedga minib xonada aylana boshladi. Unga qarab astagina "xalaqit berma" dedim. Lekin bu gapga u parvo qilmadi. Shunda o'mimdan turib qulog 'idan tortdim. Bu ham yetmagandek ko'zlariga jahl bilan tikildim. U jim bo'lib qoldi. Divanga o'tirdi. Keyin g'ujg'anak bo'lib yotib oldi. Juda rahmim keldi. Qilgan ishimga pushaymon bo'ldim. Xotinim shu orada namoz o'qishni tamomladi va meni koyigan bo'ldi.

— Dam olish kuni ham saharlab turasiz, yotaversangiz bo'lmaydimi. Bola degan o'ynaydi-da.

— Men o'zimni emas, seni o'yladim.

— Menga u xalaqit bergani yo'q.

Nima yozayotgandim o'zi. Xayollarim chuvalashib ketdi. Stol ustidagi qog'ozlarni g'ijimlab tashladim. Shu orada nabi-ram sal-pal o'ziga kelib yonimdag'i kursiga o'tirdi. U men bilan yarashgisi kelganini sezib turibman. O'zim ham shuni juda istayman. Shu sababli unga o'ng qo'limning jimjilog'ini uzatdim. U ham jimjilog'ini cho'zdi. Ikki jimjilog' bir-biri bilan mustahkamlandi. Bu bizning yarashganimiz edi.

— Bor, velosipedingni min.

— Yo'q, sizga xalaqit bermayman.

U menga xalaqit bermay qo'ydi. Lekin ilhom parisi ham uchib ketgan ekan shekilli hech narsa yozolmadim. Shunda tabiiylikni kuch bilan buzganligimni angladim va o'ylanib qoldim. O'zi nima uchun ertak yozaman, nima uchun xotinim namoz o'qiydi. Hammasi shu bolalar uchun, ularning o'ynab-kulib yurishlari uchun emasmi? Darhaqiqat, shunday. Demak, bolalarni xafa qilib qilingan har bir ish g'ayri-tabiyy va g'ayriinsoniydir.

"PRIZ"LI SOMSA

Ishxonamiz yaqinidagi somsa sotuvchi bola ko'chma tandir yoniga jilmayib kelayotganimni ko'rib biroz ajablandi.

— Ha, yoshulli, — dedi u. — Sizning ham kulib keladigan kuningiz bor ekan-ku. Yo biror narsa yutdingizmi?

— Yo'q, lekin bugun somsangni yutmoqchiman.

— Xo'p, shunday qilib, bizni bir sevintiring. O'ntachasi-ni olmaysizmi?

O'zi bitta-ikkita bilan qanoatlanmoqchi edim, lekin shunday deb turgandan keyin, shovla ketsa ketsin, obro' ketmasin, — dedim. Bor pulim-bir dasta o'ntalikni chiqarib, ichimdan o'tganini o'zim bilib qo'liga uzatdim.

— Mana, to'rtta ber, bir choynak achchiq ko'k choy bilan...

Issiqliqina, qip-qizil somsalardan bittasini bir tishlaganimni bilaman, toshdek qattiq narsa tanglayimga tegdi. Hafsalam pir bo'ldi. Azbaroyi jahlim chiqib somsaning ichini ochib ko'rdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, qo'y oshig'i tikka turibdi.

O'zimni zo'rg'a qo'lga olib somsachi bolani yonimga chaqirdim.

— Hoy, bola, — dedim unga juda ohistalik bilan hujunga tayyorlanib. — Somsadan qil-pil chiqib turadi. Bor-e, pashsha chiqishi ham mumkin. Suvarak chiqsa ham indamasdim, axir somsapaz ham odam. Lekin bu oshig'ing nimasi, o'ziyam yumuruqday.

U mendan uzr so'raydi, oyog'imga yiqiladi, deb o'ylagandim, aksincha, xursandchilikdan og'zining tanobi qochdi. O'mimdan turg'izib, mahkam quchoqladi.

— Aka, baxtli odam ekansiz "priz"li bo'ldingiz. Bir oydan beri shu priz hech kimga chiqmayotgan edi. Ming so'mli bo'ldingiz.

— Bu qanday priz. Axir somsaning ichidan ham priz chiqadimi?

U tandiri yonida o'qlovday-o'qlovday qilib rangli harflar bilan yozib qo'yilgan taxtachani ko'rsatdi.

— O'zingiz o'qimishli odam bo'lsangiz ham ko'p narsani bilmas ekansiz. Eng katta prizlar shu somsadan chiqadi hozir. Mana, italyanlarga qarang, Yangi yil oldidan somsaning ichiga tilla buyumlar solib mehmonlarga berishar ekan. Kim yutsa baxti. O'tgan yili bittasi tilla ruchka topib olibdi.

— E, yolg'onam evi bilanda. Ming ham shog'ol bo'ladimi'.

¹Xalq ifodasi — mingta chiyabo'ri ham bir yuradimi, degan ma'noda.

— Hazil, hazil, — dedi somsachi mazza qilib kulgancha, — lekin tilla buyumlar solishlari aniq.

Har holda xursand bo'ldim. Umrim bino bo'lib lotareya-da ham, boshqa o'yinlarda ham hech narsa yutmaganman. Mana, o'zim bilmagan holda somsapazlar tashkil etgan o'yinda qatnashib ming so'm yutdim. Bu ham bir omadda. Xudoga shukr, menga shundan qo'ygan ekan.

Endi ziyoli odamman, shu somsapazning ming so'mini ham olib ketaversam bo'lmas. Beklik qilib, shu pulni ham unda qoldirish yo'lini topdim.

— Menga mukofot o'miga yana besh ta somsa keltir!

So'msapaz bundan g'oyat ruhlandi. "Baribir tushungan odamsiz-da", — deb maqtadi.

Achchiq ko'k choy bilan "baribir puli to'landi, endi somsalarni qoldirib bo'lmaydi, olib ketish ham uyat" degancha bir-bir tushurib boshladim. O'zimga jabr qilib bo'lsa ham hammasini yedim.

Nihoyat o'mimdan zo'rg'a turib uyga ravona bo'ldim. To'qqiz somsa oradan 3—4 soat o'tgach o'z ishini qildi. Yuragim qisilib, oshqozonim qattiq og'riy boshladi. Biroz uqlab olmoqchi bo'lgandim, tushimga o'zimdan ham katta oshiq kirdi. U tomog'imga qadalsoqchi bo'ldi. Seskanib uyg'onib ketdim.

Undan keyin nima bo'lganini bilmayman. Hushimni yo'qotibman. Bir oycha kasalxonada davolanishimga to'g'ri keldi. Qisqasi, somsadan chiqqan oshiq menga qimmatga tushdi. Xotinimga ham davron tegdi. "Sizmi prizni uyga olib kelmaydigan" deb ko'p javradi.



MUNDARIJA

Yangicha so'z jaranglari (Anvar Obidjon).....	3
Temurg'ozи to'ra (qissa).....	5
Hikoya va novellalar.....	73
To'g'ri chiziq.....	74
Hamsuhbat.....	87
Matqurban soda.....	93
Navbat.....	98
Hashar.....	100
Bolakay.....	103
Qo'shnilar.....	104
Nafs o'g'risi.....	107
Qarzdor.....	110
Ko'pal Ko'palsinov.....	114
Yomg'ir ostidagi ikki manzara.....	120
Muzlatkichdagi kuchuk.....	122
Kim aybdor.....	127
Oxirgi sinov.....	129
Yo'l.....	134
Muz ko'ngil.....	135
To'y.....	137
Jimjilog'.....	140
«Priz»li somsa.....	140

SOTIM AVAZ

TEMURG‘OZI TO‘RA

Qissa, hisoya va novellalar

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrirlar: *I. Shoymardonov, D. Ismoilova*

Rassom: *S. Qalandarov*

Badiiy muharrir: *B. Bobojonov*

Texnik muharrir: *L. Xijova*

Musahhib: *I. Elmirzayeva*

Sahifalovchi: *L. Soy*

Terishga berildi 27.12.05. Bosishga ruxsat etildi 23.01.06. Bichimi 84x108^{1/2}.
Tayms garniturası. Ofset bosma. Sharlı bosma tabog‘i 7,56. Nashriyot-hisob
tabog‘i 7,95. Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 2193. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.